



**Nazar Eshonqul**

### **SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI**

Yuz yildan beri tersotaliklarning g'ururi va faxri bo'lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko'rimsizlik va keksalik bag'ishlab turgan, noma'lum va mudhish sinoatlarga to'la qadim qo'rg'onni eslatuvchi Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo'q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi: temir tirnoqli buldozerlar uyning devorlarini qulatar ekanlar, uy bilan qo'shib, o'zlarining ham nimalarinidir buzib, vayron qilishayotgandek, tersotaliklar bir chekkada jimgina kuzatib turishar va naq ellik yilcha taqdirning beshafqat o'yiniga qarshi kurasha-kurasha dunyodan yolg'iz va izziz o'tish azobini ko'tarib kelgan, hayoti o'zlariga hamon tushuniqsiz va mavhum tuyuladigan Bayna momoni eslagan ayollar ko'zlariga yosh olib, bolalarini bag'irlariga bosgancha, olis va g'amgin xotiralarga berilib, mung'aygan alfozda o'tirardilar.

Bayna momo tirikligida, garchi bu ayollarni, erining polvonlik lash-lushlari va kiyim-kechaklari yotgan, polvonning o'limidan so'ng hechqachon chiroq yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan ana u hujra kabi qorong'u musibat to'la uyi ichkarisiga kiritmagan bo'lsa-da, ular qahr va g'azabini sitam bilan ichiga yutib kelgan bu kampirni hurmat va ehtirom bilan eslashardi. Bu uy Tersotada qurilgan birinchi uylardan edi va Rayim polvonning otasi Shukur oqsoqol bundan bir asr muqaddam tug'ilajak farzandlariga keng uy va yildan-yilga ko'payib borayotgan yilqilarga otxona solish maqsadida Tersota soyining oftobro'yasiga qishloqning birinchi poydevorini qurgandi. Rayim polvon esa otasining ishini davom ettirdi: uyning orqasida bog' barpo etdi va otxona yonida qirga tutashtirib, yozning jazirasidan go'sht va yog'larni, qimiz va ayronlarni asrash uchun keng erto'la, uyning oldiga toshdan baland supacha, ot kirib chiqadigan uzun, ustundor ayvon qurdi. Bayna momo ellik yilga yaqin yolg'izlik davrini ana shu ayvondagi ustunlarga suyanib o'tkazdi: u eri va o'g'lining judolik azobi qiynagan paytlar shu ustunlarni quchgancha yig'lardi. Keyinchalik ko'z yoshlari ham tugab qolgach, hayotida go'yo suyanchig'i va orqasidan yig'lab qoladigani yo'qligini odamlardan yashirish uchun yoki endi yillar silsilasiga dosh berolmay puturdan ketayotgan uyni butkul vayron bo'lishdan asrab qolmoqchidek, elkasini ustunga suyagan holatda xotirasining siniq parchalariga tikilib, ko'zlarini yumgancha g'amginu mustag'riq o'tirardi.

Rayim polvonning o'limidan keyin tug'ilgan va u haqda keyinchalik butkul eslaridan chiqib ketgan cho'pchaklarnigina eshitib ulg'aygan avlod uylarini ravoqli va pishiq g'ishtdan qura boshlagach, bir paytlar Tersotaning ko'rki va g'ururi bo'lib turgan bu uy birdan ko'rimsiz qiyofaga kirdi va endi Bayna momo kabi uy ham qishloqdagi uylar

oldida yolg'izlanib qolgandi: faqat biri-birini bosib-turtib kirib kelayotgan shoshqoloq yillar bu avlodning sarkash qalbiga qandaydir olis xotirani yoqib qo'yish uchun behuda urinib, uy devorlariga mahzun bitiklar yozar, bekasi bilan birga bu makon ham allaqachon o'zining oldingi qudrati va viqorini yo'qotib bo'lgan, unut va tashlandiq maskanga aylangandi. Tersotaliklar endi aeroplanlar haqida gaplashishardi. Ular zamonning alg'ov-dalg'ovlariga g'arq bo'lgan, hayotlarida yuz berayotgan yangiliklarni hazm qilib ulgurmasdi. Yillar bilan birga hamma narsa o'zgarar, faqat Bayna momogina uni sezmas, go'yo uning uchun vaqt o'sha holicha qotib qolganday, uni hamon o'sha ellik yil oldingi - eri va o'g'lining o'ligini askarlar tepkilab o'tishgan ustun oldidan topish mumkin edi.

Mirshab va askarlar uyning har burchagidan yopirilib kelishganda Bayna momo erining murdasi ustida turardi. Rayim polvonni qo'lga tushirolmay yurgan Zamon otboqar uni uyidan chiqayotganda otib o'ldirgan, endi polvon rostdan xam o'lganmi, yo'qmi mirshablar bilan pusib-poylab, ayvonga yaqinlashib kelardi. Biroq shu payt yana o'q ovozi jarangladi va Rayim polvondan ko'z uzmay kelayotgan askar oyog'ini quchoqlagancha baqirib yiqildi. Bayna momo mehmonxona eshigidan chiqaverishda otasini otib tashlashganini ko'rgach, uyga yugurib kirib ketgan, qo'lga otasining miltig'ini tutib turgan o'g'lini ko'rdi - o'g'lining ko'zlarida ham eriniki kabi g'azab, telbalik yonardi. Bayna momo o'g'lini ogohlantirishga ulgurmasdi. Birdaniga bir necha o'q ovozi uning qulog'ini bitirib qo'ydi va o'g'li otasining ustiga yuztuban yiqildi - yiqilarkan, endi sabza urgan mo'ylovi titrab ketdi, onasiga bir zum qo'rquv va hijolat aralash tikildi. Zamon otboqar yugurib kelib, uning boshiga tepdi va miltiqni bir chetga uloqtirdi. Qishloqda askarlardan boshqa hech kim ko'rinmas, odamlar go'yo suvga cho'kkanday g'oyib bo'lgan, faqat derazalarga tortilgan qora pardalar bu mudhish jinoyatga loqayd va befarq boqib turardi. Bayna momo tersotaliklarni kechira olmadi - ko'kragi ilma-teshik bo'lgan o'g'liga qarata Zamon otboqar yana bir necha bor o'q uzarkan, u madad izlab, uylarning tuynuklarini yopib turgan qora pardalarga bir-bir ko'z tikdi, biroq u erdan sovuq sukutdan boshqa hech narsa ko'rinmas, zulmatga cho'kkan tuynuklar bu misli ko'rilmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi. Mirshablar Rayim polvon va o'g'lining o'lganiga ishonch hosil qilishgach, otlariga minib jo'narkan, Zamon otboqar eri va o'g'li murdasi ustida cho'kka tushgan Bayna momoning elkasi osha qamchi tushirdi: - Endi xoru zorlikda o'lib ketasan, - xirilladi u. - Molingni topshir, deganda ering qo'lga miltiq ushlab biz bilan sichqon-mushuk o'ynadi. Mana, endi unga hech narsaning keragi yo'q.

Mirshablar Rayim polvonning qo'radagi podasi-yu otlarini haydab ketishdi. Zamon otboqar otlarni quvib ketarkan, bir yo'la otasi bilan uning qasosini olishi mumkin bo'lgan o'g'lini ham otib tashlaganidan xursand edi - u shu ketishi bilan qishloqning ko'p narsasini haydab ketdi - endi qishloq birdan minorasi qulagan shahardek g'arib va notavon ko'rinardi. O'n besh yillardan so'ng Zamon otboqar qishloqqa qaytib kelganda qishloqdan fayz ketib, odamlar yana ham ojiz va hurkak bo'lib qolgandilar. U Rayim polvondan so'ng tashlandiq holatga kelib qolgan soy bo'yidagi bog'ga keng qilib uy qurdi: u bog'da uy qurish uchun hech kimdan ruxsat so'rab o'tirmadi. Endi u o'zi bu qishloqqa olib kelgan zamon havosidan yayrayotgan qishloqdoshlarini ko'rish uchun otda izidan bir to'da ov itlarini ergashtirib aylanib yurarkan, qoya ostida elkasiga o'tin ko'tarib kelayotgan Bayna momoga duch keldi. Bayna momo qarib qolgan, ammo hali ham ko'zlari xuddi o'n besh yil avvalgidek qahrli va nafrat to'la edi. - Sen menga bunday qarama, - Zamon otboqar qamchisini havoda silkitar ekan. - Ering

bu erda bo'lmasa boshqa erda baribir o'lgan bo'lardi. Sen esa xavotir olma, o'lsang itlarim ko'madi. - Shunday deb u bo'ribosarlarni ko'rsatdi. Ammo u Bayna momoni bu safar urmadi. Bayna momo ham unga bir og'iz ortiqcha gapirmadi. Umuman eri va o'g'lining o'limidan so'ng kamgap va odamovi bo'lib qolgandi. U Shukuroqsoqol o'z fe'liga yarasha keng-keng qilib qurgan xonalarda xuddi bir narsasini yo'qotgan kabi maqsadsiz kezib yurardi: u endi bu alg'ov dunyoda yolg'iz va qarovsiz qolgandi: lekin o'zining ojizligini hech qachon bildirmas, o'zidan ko'ngil so'raganlarni yomon ko'rar, go'yo hayoti hech kim qiyo boqa olmaydigan daxlsiz saltanatdek u yoqqa biron kishini ,hatto so'zi bilan ham, kirishga yo'l qo'ymasdi. Erta bahordan to kech kuzgacha saharmandondan oldiga besh-olti qo'y-qo'zi, echki-uloq haydagancha daryo bo'yidagi yulg'unzorga tushib ketar, u erdan qurigan shox-shabba terib, qorong'u tushganda uyiga qaytar, bir yilda ikki-uch marta tegirmonga bug'doy ko'tarib borardi. Uning bug'doy ko'tarib yurishidan ori kelgan Ollomurod tegirmonchi Bayna momoni insofga chaqirdi:

- Siz bunday ovora bo'lib yurmang, - dedi u. - Biron erkakdan berib yuborsangiz, tortib, o'zim uyingizga olib borib tashlayman.

-Bu qishloqda erkak yo'q, - dedi Bayna momo zarda bilan, so'ng elkasidagi bug'doyni tegirmonga kiraverishda tushirdi. Gapirayotganda ovozi titrab ketdi. Tegirmonchi tilini tishlab qoldi. Bayna momo bir paytlar faqat qishloq emas, butun tog'li xalqning orini ko'targan, nomini chiqargan Rayim polvonni quloq deya ta'qib qilishlariga, so'ng itday xor qilib otib tashlashlariga yo'l qo'ygani va o'g'li bilan erini zamonning egasi, bir paytlar Rayim polvonning malayi Zamon otboqar ixtiyoriga berib qo'ygani uchun qishloqdoshlarini kechirolmas, ularga bo'lgan nafrati susayish o'rniga, yillar o'tib, ota-bola o'ldirilgan oqshomdan uzoqlashgan sayin ko'proq o'rni va qadri bilinayotgan, o'zini hayotning barcha quvonchidan bir yo'la mahrum etgan, yolg'izlikning ko'r musibati aro tobora avjlanib, Bayna momoning keksaligi bilan birga injiq va yo'riqsiz bo'lib borardi. U ba'zida qishloqdoshlarini ochiq masxara qilardi: «E, senmisan, Salom ko'sa, xotiningning ishtonini kiyib yuribsanmi deyman», «Hakim otchopormisan, buncha urg'ochi baytalga o'xshab qiyshanglaysang...» «Bu qishloqning ayollari endi faqat xezalak tug'adi». Bu masxara va nafrat yillar o'tishi bilan Bayna momoni qishloqdan butunlay ajratib qo'ydi. Endi u yolg'iz va kimsasiz qoldi. Uni oylab birov yo'qlamas, faqat ertalab echkilarini yulg'unzorga haydab, borayotganidan, kechqurunlari qishloqni tutgan qaynayotgan sut hididan hali uning tirik ekanini bilishardi. Bayna momo o'z yolg'izligi va musibatini hayotning badbo'y, zabun, xor etilgan hidlari anqib yotgan yillar dahlizidan etaklab o'tdi. Qishloqdoshlari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga ko'chib chiqishar va er shudgorlar, har kim o'z tashvishiga berilib ketardi. Qishloqda qolgan Bayna momo esa bu paytda yolg'izlik dashtini shudgorlar, u erga har yili Zamon otboqar hukumat odamlari bilan kelib, eri va o'g'lini otib tashlagan oqshomni ekar va so'ng yolg'iz o'zi hosilini ham yig'ib olardi. Bayna momo har kecha ko'z yoshlari bilan to'lgan qayiqda yillar qoyalari orasida qolib ketgan eri bilan o'g'lining ilma-teshik bo'lgan murdasi va Zamon otboqarning muzaffar qamchisi yotgan qonli halqob bilan to'lgan ayvonga suzib borar, ertalablari ho'l bo'lib ketgan yostig'ini xuddi qadim ajdodlarning unut yaloviday uyining oldidagi- oradan yillar o'tgach, uyini buzayotganlar qo'porib tashlashga kuchlari etmagach, kovlab olishga majbur bo'lgan- baland tolga osib, oftobda quritardi. Qish paytlari g'amlab qo'ygan o'tini etmagan kunlari u ko'rpaga oyog'ini tiqqancha xotirasiga isinib jon saqlardi. Rajab ko'sa qarindoshligi qo'zib, bir necha yil oldin g'amlab bergan o'tini omborxonada ortida ko'sa keltirib, taxlagan joyda taxi buzilmay turardi - uni Bayna momo qazo qilganda ma'arakaga yaratishdi va barcha tersotaliklar Rayim polvon tirikligida hammaning maslahatgo'yi bo'lgan, uyi hamisha mehmonlar va polvonvachchalar bilan to'lib-

toshadigan bu ayolning bunchalik nafrati va tavqi la'natiga sazovor nima gunoh qilishganini bir umr bilolmay o'tishdi. Bayna momo qishloqdoshlariga ko'z-ko'z qilmoqchiday, bu uyning erkagi va oriyati o'lmagan deya ta'kidlayotganday eri va o'g'lining polvonlik yaktaklarini har oyning oxirida shusiz ham hammaning ko'ziga tashlanib turadigan uyining shappatgayiga osib qo'yardi: yaktaklar ham bora-bora yillar hovuriga hamda har oyda qayta yuvadigan nafrat to'la changallarga dosh berolmadi: Zamon qassob o'limidan bir kun oldin yaktaklar torda uvada-uvada bo'lib osilib turar, ular endi kiyimdan ko'ra ko'proq qabrlar ustiga ilib qo'yadigan laxtakka o'xshab qolgandi.

Zamon otboqarning o'limi ham Bayna momoning qalbini yumshata olmadi: uning o'limi to'g'risidagi xabarni keltirishganda Bayna momo o'z hujrasida kelinlik sandig'i yonida cho'kak tushganicha musibatu g'amga ko'milib o'tirardi: uning shu turishi azob-uqubatning bir to'plam uyumiga o'xshardi. Hujraga bosh suqqan Roziya momo unga Zamon otboqarning o'limi haqidagi xabarni etkazdi. Barcha ayollar hozir quvonchdan hammani bir-bir quchib chiqadi deb o'ylashgandi. Ammo Bayna momo xabarni oqsuyaklardek xotirjam qabul qildi: u bu xabardan ajablanmadi ham, o'tirgan joyidan ostonadagi ayollarga burilib ham qaramadi - haykalday, go'yo toshday qotib o'tiraverdi. Faqat uning barmoqlari qaltirab turar, xonaga qon hididay noxush hid o'tirib qolgandi. Ayollar undan javob kutib uzoq o'tirishdi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Bayna momo ularga o'girilib ham qaramay, go'yo ularni ko'rishdan ijirg'anganday va jirkangandek alfozda «Boringlar, o'liklaringga yig'langlar» dedi. Uning qahr to'la tovushi ko'pdan buyon odam qadami etmagan hujralar ichiga singib ketdi: u erdan yigirma uch yillik changu g'ubor go'yo zardali ovozdin qaltirab ketgandek joylaridan bir qimillab qo'ydi, so'ng yana hujralarga bu xonadon boshiga tushgan g'am-anduhday abadiy cho'kdi. Shunday deya Bayna momo musibat va g'am ado qilgan bu ayolning yildan-yilga kichrayib, qarib borayotganidan va yuzlarini tilim qilib tashlagan ajinlaridan uyalganday faslma-fasl rangi o'zgarib, xuddi bekasi kabi tussiz, rangsiz ko'rinishiga kelib qolgan va hech qachon elkasidan tushmagan jelagi bilan yuzini ayollardan to'sib oldi; shu bilan u tersotaliklar va odamlar bilan o'rnatilajak barcha muloqotlar eshigini taqa-taq yopdi va faqat o'zigagina ma'lum, boshqa hech kim anglay olmaydigan, boshqa hech kim anglashga qodir bo'lmagan o'z dunyosiga kirib ketdi.

Bayna momo so'nggi nafasigacha o'z nafratiga sodiq qoldi. Zamon otboqarning o'limidan so'ng ham qishloqdoshlari bilan ilakishib ketolmadi. Umrining oxirida bu o'jar kampir baribir o'zlarinikiga ko'chib bormasligini sezgach, singlisi bilan kuyovining o'zlari ko'chib kelishdi: ammo bu paytda Bayna momo butunlay oyoqdan qolgan, faqat kun uzog'i ko'zini shiftga tikkancha cho'zilib yotishga yarardi. Bayna momoni eri va o'g'lining qabri yoniga qo'yishdi: ellik yil avvalgi qabrni osongina topishdi; qabr deyarli har hafta tozalab turilganidan boshqa qablardan yakqol ajralib turar va undan miskin bir anduh anqirdi. Uning Rayim polvondan so'ng deyarli yangilanmagan, hatto ularga ham musibat va yolg'izlik hidi o'tirib qolgan ko'ylaklarini xalq laparlarini yig'ish uchun kelib, qurib ketishgan va o'sha talaba qizlardan so'ng biron marta foydalanilmagan torga uzoq janglardan so'ng mag'lub bo'lgan qo'shinning o'zlariga o'lja qolgan tug'larini osib qo'yishgandek va qishloqdoshlaridan ellik yil nafrat qilgan ayol ustidan nihoyat g'alaba qilishgandek bir-bir osib chiqishdi. Talaba qizlar o'shanda Zamon otboqarnikiga yig'ilgan, pishiriq-mishiriqni boshlashgan ayollar qiy-chuv qilishayotgan oqshomda kelishgandi. Ularning kelishi bilan Zamon otboqarnikida boshlangan to'y tashvishlari qo'shilib ketdi. Biroq qizlar qishloq irimlarini nazariga ham ilishmadi. Bayna momonikiga kela-solib, kir

yuvishga tushdilar - ular ichko'ylak, ro'mol, yana Bayna momoga g'alati ko'ringan shimlarini shundoq hammaga ko'z-ko'z bo'ladigan joyga bemalol osib qo'yishdi - ular Meli o'qituvchining «qishloqdagi eng keksa ayol» degan bir og'iz gapi bilan Bayna momonikiga kelib o'rnashib olishgan, aftidan, hali-beri ketishmoqchiga o'xshamasdi. Bayna momo ular bilan ochilib gaplashmadi ham. U kechqurun echkilarni sog'arkan, qizlar hayratdan qiy-chuv qilib yubordilar: ularning birontasi ham echki sog'ishni ko'rmagandi. Qizlarning bir-ikkitasi Bayna momoga yaqinroq kelib, uning echki eliniga borib kelayotgan qoqsuyak qo'llariga qaradilar: mirshablarning hafsalasini pir qilgan, xuddi uyning devori kabi yillar uqalay-uqalay jimitdek qilib qo'ygan gavdasini sal oldinga egib turganidan uning o'zi ham qari va ozg'in echkiga o'xshab qolgandi. -Agar o'g'lingiz bo'lganida men sizga jon-jon deb kelin bo'lardim, - dedi qizlardan shaddodrog'i Bayna momoning echki sog'ishidan zavqi kelib.

Bayna momo unga o'qrayib qaradi va ko'zlarida birdan alam yondi: qizlar qo'rqib ketishdi: ko'z oldilarida Bayna momoning butun tanasi birdan tutab jo'naganday tuyuldi. Qizlar dud hidini aniq sezishdi. Bayna momo o'rnidan turdi-da, qo'lidagi kadini supaga qo'yib, ichkari kirib ketdi va shu kirgani bilan ertasiga echkilarini yulg'unzorga haydab ketmaguncha qaytib chiqmadi. Choshgoh payti echkilarini haydab ketar ekan, qizlarga bir og'iz ham gapirmadi. U xuddi oyparastga o'xshab ketib borar, echkilari yulg'unzorga emas, Po'lat cholning bedapoyasiga qarab ketayotganini ham sezmay yulg'unzor tarafga yo'l olgandi. Po'lat chol qorni shishib ketgan echkilarni haydab kelganda Bayna momoni uydan topolmadi: u allamahol, oy atrofni sutday yoritganda sharpaday kirib keldi va uyga kirib ketib, to mirshablar so'rab kelmaguncha uydan chiqmadi. Qizlar bir hafta uning og'zini poylab ovora bo'lishgach, biron narsaga erisholmay qaytib ketishdi. Ular uy oldida paydo bo'lishlari bilan uyning tanazzulga yuz tutgani birdan bilinib qoldi. Ular navqiron va go'zal edilar, uydan va Bayna momodan chirkinlik va musibat hidi kelar, navqironlik oldida birdan uy ham, Bayna momo ham keksayib qolganday edi. Ular bu uyga o'rnashib qolgan yolg'izlik va musibatni cho'chitib, so'ng quvib yuborishmoqchiday tinmay xoxolashardilar. Talaba qizlarning ochiq-sochiqligi va loursillagan tanalarini ko'z-ko'z qilish uchun kiyib olgan tor shimu ko'ylaklari, kalta sochlari-yu g'alati, oppoq paypoqlari ham tabiatan tekin tomoshani yaxshi ko'radigan tersotaliklarning e'tiborini tortolmadi: ularning shahar atiri ufurib turgan noz va tamannolari sirli tarzda o'ldirilgan otboqarning azasi orasida ko'zga tashlanmay qoldi. Uzoq vaqt farzandsizlik azobini tortgan otboqarni qirqdan oshib dunyoga kelgan uch o'g'liga biravrakayiga dabdabali to'y kilish uchun kazo-kazolarni shaxsan o'zi aytib kelish maqsadida shahar tushib ketgandan ikki kundan so'ng ertalab daryo bo'yidagi yulg'unzor ichidan chavaqlangan holda topib olishganda allaqachon to'y qozonlari qurilib, uzoq manzillardan ba'zi mehmonlar kela boshlagan edi. Uzoq yillar o'zlariga suyanchiq bo'lib kelgan otboqarning o'limi xuddi dushmanlaridan o'zlarini asrab turgan qo'rg'onlari qulagandek tersotaliklarni birdan mung'aytirib qo'ydi - ular qariyb yigirma besh yil rahnamo va peshvolari bo'lib kelgan odamning o'limidan qattiq qayg'uga tushdilar. Ertasiga etib kelgan mirshablar qishloqdagi har bir erkak bilan gaplashib chiqishdi, so'ng ular Bayna momonikiga yo'l oldilar - ular yigirma uch yil muqaddam otboqar tufayli eri va o'g'lidan ajralgan ayolni to'satdan eslab qolishgandi. Biroq uloqlar ichida uloqdan ham kichik jussali, yuziga yillarning beshafqat muhri bosilgan hamda yolg'izlikka mahkum etilgan, har bir soniyaning musibatu anduhi asorati porlab turgan kichkina, jimitday, sochlari oppoq bo'lib qolgan kampirni ko'rishgach, negadir botinisholmadi - ular qarshilaridagi ramaqijon kampir bilan devday Zamon otboqarni qiyoslashib, o'z shubhalaridan uyalib ketishdi, chog'i, indamay iziga qaytdilar. Ular, garchi Bayna momoni so'roq qilganlarida

ham hech narsaga erisha olmasdilar - u keyingi yillarda bir og'iz ham gapirmagan, so'zlar va ularning ma'nosi uning xotirasidan chiqib ketganday yoki o'z mohiyatini yo'qotganday, o'z qayg'u va azobi bilan kunlarni zo'rg'a engib yashayotgan edi. Zamon otboqar itday o'lim topgandi. Jasadning shu turishi avval o`zi, keyin tepasi qulab tushgan ulkan minorni eslatardi- kiyimlar pora-pora yirtilgan, avrati uzib tashlangan, o`nta barmoqning hammasi kesib olingandi... Baribir barmoqni izlab topisholmadi. Jasadni barmoqsiz ko'mishga to'g'ri keldi: butun qishloq naq yomat maydonga aylangandi: ayollar uvvos soib yig'lashar ekan, endi sochlari qorday oppoq, deyarli arvohga aylangan, qishloqdoshlarining xotirasidan ham chiqib ketgan Bayna momo tom ustida Rayim polvonni itday otib, tashlashlaridan bir necha daqiqa oldin otini egarlash uchun olib chiqayotib, o'qqa duchor bo'lgan, yillar pora-pora qilib tashlagan jabduq ustiga cho'kak tushgancha to'y deb kelib, aza ustidan chiqayotgan mehmonlarni, to'y beraman deb, endi aza berayotgan qishloqdoshlarini kuzatib, xuddi qutlug' bir vazifani o'tab, endi dunyoda armoni qolmagandek, yillar g'ijimlab tashlagan yuzida bir jununvash ifoda qotib qolgan holda tersotaliklar hayotiga yigirma uch yil soya solgan tosh haykal kabi qilt etmasdan o'tirardi.

Nihoyat bu kampirning ham sitamgar kitobi o'qib bo'lindi - u laylatulqadr kutilayotgan oqshom yog'och va ko'p yillik anduhlar hidi o'tirib qolgan, sodiq qo'shinday ellik yilning biron kuni ham tark etilmagan g'amnok va alamli saltanati - kelinlik to'shagida jimgina joni uzildi - faqat o'lishi oldidan singlisini chaqirib yigirma yildan buyon ochilmagan, oltmish etti yil oldin teraklilik Ko'r Safar usta yasagan, yarim vayrona sandiqqa imo qildi va bir so'z demay to'shakka bosh qo'yib jimgina jon berdi. Uni ertasiga tushga yaqin chiqarishdi. Udumga ko'ra azaga O'raning barcha qishlog'idan odamlar terilib kelishdi - amir zamonlarini ko'rgan, narigi asrning so'nggi yodgori bo'lgan qishloqdoshlarini so'nggi yo'lga kuzatish uchun barcha keksa-yu yosh yig'ildi. Yig'ilganlar orasida Rayim polvon bilan o'g'lini himoya qilolmay, Bayna momoning bir umrlik nafratiga duchor bo'lgan, o'sha paytda navqiron, endi sharti ketib, parti qolgan chollar ham bor edi. Ular oradan ellik yil o'tgach, bu unut va muztar go'shaga birinchi bor qadam qo'yishgan va tobut ortidan gunohkorona bo'yin egib borishardi.

Murdani yuvish oldidan sandiqni ochishdi. Avval o'limlikka atalgan kiyim-kechaklarni, kafanni olishdi, so'ng dastasi qorayib qolgan qamchi, sopiga gavhar o'rnatilgan xanjar, erkak kishining ter hidi kelib turgan kalapo'shi, ko'krakka taqadigan zebigardon, kampirning qo'lida hech qachon ko'rinmagan kelinlik bilaguzugi, etagi kashtali, yoqasiga tasma urilgan keng ko'ylak, angishvona va sarg'ayib ketgan Qur'onni olishdi. Eng oxirida sandiqdan bog'ichini chirk bog'lagan, kaptarning yuragidek kichkina, matosi zar sim bilan tikilgan, ko'p yillik qon qotib qolgan tumor va tig'i zanglagan qaychi, ko'p yil turganidan bo'g'in-bo'g'in bo'lib, faqat suyakning o'zi qolgan, u ham qoramtir tus olib, naq kukunga aylanish arafasiga kelgan, chorsining yirtig'iga pala-partish o'rab tashlangan o'nta odam barmog'i ham topildi...

## MAYMUN YETAKLAGAN ODAM

Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko'chaning muvulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqda chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim. U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi. Mashinadan kitoblarni katta etakda tashib kiritayotganimda - go'yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo'ygandek, hech narsaning qizig'i qolmagandek menga e'tiborsiz bir ko'z tashladida, so'ng yana o'sha holatida erga qarab o'tiraverdi. Bir necha kundan so'ng uy bekasidan bu cholning bir paytlar tuzukkina rassom bo'lganini va hozir ham surat chizib turishini eshitib, hayron qoldim. Uni hayotda omadi chopmagan biron amaldor bo'lsa kerak, deb taxmin qilgandim. Keyinchalik cholni tez-tez o'sha kitelida go'yo necha qadam umri qolganini o'lchab yurgandek og'ir qadamlar bilan uyiga yoki ko'cha boshidagi oziq-ovqatlar do'koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla oshxonasida ovqatni titrab-qaqshab eb o'tirganini, qoboqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo'yganini ko'rib qoldim. Zaharli ... odamni bo'g'ib, holdan qilib qo'yadigan bu adovat menga o'shanda uning butun tanasidan, butun vujudidan, qoqshol bo'lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakdor ichidagi tilsimli qo'rg'on kabi noma'lum bo'lgan umr qal'asidan ufarayotgandek tuyulgandi. Uni ko'rsam negadir yuragim g'ash tortadigan, ko'nglim behuzur bo'ladigan, kayfiyatim buziladigan bo'lib qolgandi, vaholanki, hali u bilan salom-alikdan nariga o'tmagandik. Menga, avvalo, uning turqi yoqmasdi: nochor holiga qaramay odamlarga kibr aralash dimog'-firog' bilan qarar, hammaga yotsirab, shubha bilan tikilar, go'yo o'zini bir umr har bir kishiga shunday tikilib o'tgandek tutar edi. Bir kuni uy bekasi mendan cholga kechki ovqat chiqarib berishni iltimos qilib qoldi. Cholning sovuq yuzini esladimu isthola qildim; biroq yo'q deya olmadim. Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshidan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda ... o'tirgancha oldida ... Cholning uyi hashamatli, keng, lekin toshlar tilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlari chirigan, umuman hovlidan chirkin va badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kkelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo'yi saqlab kelgan bo'lsa kerak degan fikr kelib qoldi. Hiddan ko'nglim ayniguday bo'lib chol o'tirgan ayvonga yo'l oldim. Chol menga e'tibor ham bermadi, ajabsinib bir qarab qo'ydiyu, o'z ishini davom ettiraverdi; u qandaydir bo'yog'i ko'p surat chizayotgan edi. Nariroqda turgan kichkina xontaxtani keltirib cholning oldiga qo'ydim: u shunda ham e'tibor bermadi, u o'ziga ovqat keltirib berishlariga ko'nikib qolgan edi, shekilli. Shunda uning qo'llari qaltirab, bo'yoqlarni chaplab yuborayotganini sezib qoldim. Cholning oldiga ovqatni ham qo'yganimdan so'ng, u chizishdan to'xtab, xontaxtaga o'girildi va bo'yoqli qo'llari bilan nonni bemalol sindirdi, og'ziga tutdi; yorilib qolgan lablari orasidan chirigan ko'm-ko'k tishlari ko'rindi. Shunda men yana uning qandadir badjahl ma'budning haykaliga juda o'xshab ketishini his qildim. U bu erdaligimni ham unutganday, xurillatib, imillab, chollarga xos lanjlik bilan ovqatlanar va og'zining ikki chetidan lag'monning suyug'i yana kosaga oqib tushar, boshi qalt-qalt titrar, bo'yinlarida tirishib qolgan tomirlar u yutinganda bo'rtib, ko'karib ketar, ko'zlari horg'in yoshlanib turar, har dam-har damda

qanjarini o'ng qo'li bilan qashirdi. Bu unga odat edi chog'i - qanshari turli bo'yoqlarga belinib qolgandi. qo'llari qoshiqgi madorsizlik bilan ko'tararkan, uning shu soniyada yana ham ifodasiz tusga kirgan yuziga qarab, ovqatni ham eplab icholmaydigan asabiy va ro'dapo cholning rassom ekanligiga sirayam ishongim kelmasdi.

- Suratlaringizni ko'rsam bo'ladimi? Yigirmanchi yillardagi suratlaringizni? Deb so'radim men unga shubhamni bildirmaslikka tirishib. Chol bamaylixotir kavshandi-da, menga qaramasdan, o'ziga buning aloqasi yo'qday, go'yo bir uyum axlatni ko'rsatayotganday, ijirg'anib, qo'li bilan ayvonning to'rini ko'rsatdi. Hammasi tartib bilan terib qo'yilgan, va u tomondan boshlanadi, - dedi hirqiroq tovushda uning tovushi ham shunchalik sovuq ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi; indamay ayvonning to'riga qarab yo'l oldim.

Cholning yigirmanchi yillardagi suratlarini shu ko'chadagi bir-ikkita san'atdan xabardor kishilar maqtashgandi; muzeyda ishlaydigan yortog'im ham cholning suratlari ko'rgazmaga qo'yilganini aytgandi. Chol yigirmanchi yillarda komsomol bo'lgan va bosmachilarga qarshi kurashgan, yangi hayot qurishda faol ishtirok etgan deyishgandi. Yigirmanchi yillarning shiddatli shamoli uni yuksak parvozlarga ko'targan; o'ttizinchi yillarda mas'ul vazifalarda ishlagan, deb hikoya qilishgan. U o'sha amalida toki pensiyaga chiqarib yuborishgunlaricha uzoq yillar ishlagan ekan. Ko'chadagilar uning o'sha davr faoliyatini mishmishlar bilan qo'shib-atib hikoya qilishardi. Chol ishdan ketgach, mana shu eski uyga qamalib olgan, hech kimga qo'shilmaydi, bir vaqtlar o'zi ozor bergan kishilarni ko'rgisi kelmaydi, deyishardi. Cholning xotini elliginchi yillarning oxirida o'lib ketgan, faqat istarasi o'zinikidan ham sovuq yolg'iz o'g'li bor edi. O'g'li qimorboz, avvallari kissavur bo'lgan deyishadi, keyin qotillik qilgani uchun qamalib ketgan, endi esa qimorning orqasidan kun ko'rar ekan. U juda jizzaki yigit edi. Uni ikki marta ko'chada ko'rgandim. Aytishlaricha, u shaharning chekkasida bir beva bilan birga turar va oyda-yilda otasiga bir ko'rinish berar, shunda ham har doim janjal bilan jo'nab ketar edi. U cholning oldiga ko'pincha birdan-bir ish uchun - pul so'rab kelar, agar topib bermasa, g'ovg'a ko'tarar, hatto ikki marta otasini urib ketgan, deb aytishardi. Ko'plar «cholning puli bor, lekin hech kimga, hatto o'g'liga ham ko'zi qiymaydi, juda xasis», deyishardi. Kim biladi, o'g'li ham otasi haqida shunday o'ylasa kerak; u otasini zarrachcha hurmat qilmasdi. Uning ovozini ko'chadan o'tib borayotib eshitib qolgandim. «Hech narsangni bermayman - deb baqirardi u qandaydir qirindi tovushda, - agar topib bermasangiz, sizga qo'shib uyga ham o't qo'yaman». So'ng taraqa-turuqlar, ihrashlar, cholning nimadir deb so'kingani eshitildi. Kechqurun uy bekasi o'g'li cholni yana urib ketganini aytdi. Cholning yigirmanchi yillardagi suratiga juda qiziqardim, umuman cholga qarab turib qiziqishim yana ham ortgandi.

Cholning ayvoni - unga ustaxona vazifasini o'tasa kerak - oldi oynali, yozda derazalarini lang ochib salqinlatib qo'ysa bo'ladigan, keng go'sha edi. Bu erda har xil keraksiz ashqol-dashqol - sun'iy gullar, tuvaklar, turli ranglar yog'ochlar, kitoblar olov ko'tarib borayotgan ... haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, to'rlar, zanjirlar qalashib yotar va bu erdan ham shilta hidi kelar, ayvondan ko'ra allaneuchuk besarishta qaznoqqa o'xshab ketar edi. Ayvon uzun bo'lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko'rgazmaga qo'yilgandek terib qo'yilgan, to'g'rirog'i, bor-yo'g'i qirqqa yaqin surat va eskizlar «1957», «1947», «1937», «1928», «1926» va hokazo tartibda terib quyilgan edi. Suratlarini oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo'rg'on tomon ko'tarilib borayotgandek his etdim o'zimni. Oxirgi, ayvonning burchagiga osib qo'yilgan suratning tagiga!

1921» sanasi yozib qo'yilgan edi: chol shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Surat ancha uquvchizlarcha chizilgan bo'lsa-da, ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuq o'rmondan maymunni etaklab chiqayotgan barvasta gavdali igit



tasvirlangan edi. Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan edi. Rasmda chol nima demoqchi bo'lganini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning qko'nqlidagi hissitni to'la aks ettira olgan edi. Keyingi suratlarda cholning qo'li ancha kelshib, bo'yoqlar tiniq o'z o'rnini topgan, tabiat manzaralari tobora go'zallashib borardi, ranglar ham turfa xil edi. Biroq bir lahzada osmonu falakni qoplagan kuzgi qarg'alar kabi suratlariga qandaydir mavhumlik yopirilib kirib kelardi, ... surat ortib borishi meni hayratga soldi, mavhumlik tasvirda ham, bo'yoqda ham sezilardi. Men har bir manzarada boshqa ranglar o'rnini qora ranglar olayotganini guvohi bo'ldim. Uttizinchi yillarda chizilgan suratlar esa yana ham mavhumroq edi, endi bu yillardagi suratlarni qora rang butkul qopladi. Chol suratlarni pala-partish chizgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim, chunki cholning mas'ul xizmat davri mana shu yillarga to'g'ri kelardi. Men suratlariga qarab turib, ularning maqsadu maslaksiz yozilganini his qildim. Faqat birinchi suratdagi yigitning ko'zidagi qat'iyat va ishonch beixtiyor har qanday kishini o'ziga rom qilib qo'yardi, siz ham mana shu yigit izidan nomsiz, isyonkor safarga otlanginiz, vahimali zim-ziyo o'rmondan avlod-ajdodlaringizni xurofot hamda bid'atning ... rashlaru alg'ov-dalg'ov hayot quyniga tashlatingiz kelib qolardi. Siz yigitning ko'riga qarab tursangiz uning tantana qilishiga ishonardingiz. Muzeydagi do'stni yana shunday ... boshidan kechirgan bo'lsa kerak, cholni rosa maqtagandi. Ana shu suratida chol o'zini qobiliyatli va istiqbolli rassom sifatida namoyon eta olgan edi. Agar cholning birinchi o'n yillikdagi suratlariga e'tibor bersangiz, sizni ham beixtiyor cholning navqironlik davridagidek ulug'vor kayfiyatlar chulg'ab olardi.

Men keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo'l chiqib ketmaslik uchun chizilgan bo'lsa kerak, degan fikrga kelgandim; bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko'chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'lim isi kelib turgan ar xil qurollar, yig'layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq qandaydir qurquvdan (xuddi «Pompeyaning so'nggi kuni» kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqla, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo'lsa kerak deb o'ylagandim), bazmu jamshid qilib o'tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalong'och ayollar, ma'suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlar aks etgan edi. Bu suratlar ilhom yo maqsad bilan chizilganiga ishonish qiyin edi. Bironta suratda ham aks ettirilgan manzaraga tushunmay, cholga qaradim. Chol ovqatini eb bo'lgan va menga teskari o'tirgancha, matoga yana qo'ng'irroq tus berardi. U go'yo mening bu erdaligimni unutganday edi. Cholning keyingi suratlarida bironta ham mukammal tasvirlangan odamni ko'rmadim. Hamma suratlar bo'yoqlarning mato yuziga chaplab tashlanganidan iborat edi. Bu suratlariga xos mavhumlikdan hayratga tushdim. Chunki chol bularni eng yaxshi suratlar ichidan tanlab, terib qo'ygan edi. O'sha kuni men cholning mahalladoshlari maqtaganchalik rassom ekanligiga sira ishonmadim va uning suratlarini ko'rib, yana ham hafsalam pir bo'ldi. Bu suratlar menga umid qo'shinlari tashlab ketgan umrning tashlandiq qarorgohlariga o'xshab uyuldi. Endi uni shunchaki nomiga maqtashgan bo'lsa kerak, deb o'ylay boshladim. Suratlardagi mavhumlik negadir yuragimni g'ash qilgandi. Biroq cholning hayoti bir paytlar bir kechchada porillab ochilgan guldek to'siq bilmas shiddat bilan boshlanganini, so'ng bu shiddat hayotning mavhum irmoqlariga xuddi yoz yomg'iri jazirama sahroga singgan kabi qqo'shilib ketganini suratlariga qarab his etgandim. Uning o'sha navqironlik davrini eslatayotgan qontalash va shilpiqlanib qolgan bo'lsa ham, hali tiyraklik bilan tikiladigan ko'zlarida qolgan edi. Bu ko'zlar ham har qanday ishonch va ... mahrum edi.

Cholning yoniga qaytar ekanman, u chizayotgan suratga bir zum ko'z tashladim: ustiga chang tushmasin deb, doka yopib qo'ygan suratda odamning va qandaydir hayvonning oyoqlari tasvirini ko'rdim. Va bu hol meni biroz hayratga soldi - polotnoda nihoyat ko'p yillardan keyin odam surati paydo bo'lgan edi. Surat hali chala edi. Munkayib qolgan chol surat qarshisida tiz cho'kib turganga o'xshardi, bo'yoqlar ham cholga zo'rg'a bo'ysunar, go'yo ular ham bu behuda va mavhum manzaralarni aks ettirishdan butkul charchaganday edi.

- Xo'sh, - dedi u mening idin-tovoqni yig'ishtira boshlaganimni ko'rib, suratlar sizga yoqdimi?

Elka qisdim va suratlarga tushunmaganimni aytdim. U charchaanidan milklariga yosh sizib chiqqan horg'in ko'zlarini menga achingandek, bir zum qadab turdi-da keyin bosh silkidi.

- Ha, to'g'ri, biz tushunarsiz yashadik, - dedi g'amgin tusda, - har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong'u bo'lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o'zimiz aybdormiz.

U xuddi odamning ustidan kulayotganday yoki kinoya qila1tganday istehzo bilan gapirar, har bir so'zi asablarni zirqiratib, arralab o'tardi. Kim biladi balki menga shunday tuyulgandir. U endi gap tamom deganday qo'lga mo'yqalam oldi. U men bilan boshqa gaplashgisi kelmayotgan, agar meni bu erda kechkacha ... ham uning biron og'iz gapirishi gumon edi. Idishni olim tezd chiqib ketdim. Chol menga qayrilib ham qaramadi. Uzoq vaqtgacha uning gapini o'zimcha mulohaza qilib yurdim. Biroq menga nima uchun shunday deganiga hech tushuna olmadim. Cholning suratlari ichida menga faqat maymun etaklab borayotgan yigit surati yoqqan edi. To'g'ri, men tasviriy san'at sohasida yomon muxlis edim, lekin yigitning ko'zlaridagi ishonchdan hayratga tushar va uning qat'iyatli chehrasi tez-tez ko'z oldimda namoyon bo'lib turardi. qolgan suratlari esa alog'-chalog' esimda qolgandi. Ikki kunlardan so'ng esa birinchi suratdan boshqa hamma suratlardagi manzaralar bir-biriga aralashib ketdi, so'ng yo'l-yo'lakay daraxtga bir zum qo'nib o'tgan qushlar kabi xotiram daraxtlaridan uchib ketdi.

Boshqa bir kuni cholning oldiga ovqat olib kirganimda yana o'sha shilta hididan ko'nglim ozib ketayozdi. Lekin men endi har burchakda puturdan ketayotgan umrning tanazzulidan darak berib turgan qo'lansa hidga ko'nika boshlagan edim. Biz bu gal ancha suhbatlashib qoldik. Zig'i shundaki, u juda savodli edi va shu vaqtgacha nimaiki qilgan bo'lsa, hammasini bilib, anglab turib qilganga o'xshardi. U Titsiani ham, Pikassoni ham, modernizmning hozirgi namoyandalari Jorj Brak va Umberto Bachanini ham bilar va ularning ijodidan juda yaxshi xabardoredi. Biroq biz o'sha kuni u bilan mutlaqo boshqa narsalar haqida gaplashgandik. U hayotda nima yaxshiligu nima yomonlik, hech qachon farqlab bo'lmaydi, yaxshilik - ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo'lib tuyuladi, mening umrimda anglagan ulosam shu dedi.

- Yo'q, - dedim men uning salmoq bilan, mening xulosam hammaning xulosasi bo'lishi kerak degan ohangda gapirishidan g'ashim kelib. - Bular mutlaqo qarama-qarshi tushunchalar. Yomonlik yaxshilik bo'lishi sira ham mumkin emas, nimaiki hurlikka, erkka, ezgulikka zid bo'lsa, u yomonlikdir, - dedim.

U hali yosh bola ekansan-ku, degandek dimog' aralash kuldi. So'ng jiddiy tortib, nelarnidir eslaganday gapira boshladi.

- Men umr bo'yi .monlikka ... .. ham teng xizmat qildim. Chunki nima ish qilsam o'sha ishim ikki qismga bo'linar edi. Siz bilan tortishmoqchi emasman, faqat bitta misol keltirmoqchiman. Bir vaqtlar juda martabali bir do'stim bo'lardi, o'zi sofdil edi-yu sal obro'talab edi. U yigirma etti yil amal kursisini hech kimga bermadi; usta odam edi. U nima qilardi, deng? Yuqoridan shuncha xom-ashyo bor, deb buyruq kelardi. Buyruqni

inkor etib yoki muhokama qilib bo'lmasdi, - biz ana shunday ruhda tarbiyalaganmiz, - uni bajarish kerak! Bajarish uchun butun korxonada ishchilari o'n to'rt-o'n olti soatdan ishlashlari kerak. Bu esa - bilasizki, rasman mumkin emas. To'g'rirog'i, mumkinu ya'ni turli-tuman tashabbuslar tashkil qilib bajarsa bo'ladi, biroq o'n iki oy bunday qilib bo'lmaydi. Odam mashina emas. Bu minglab odamlarni mayib qilishi mumkin. Yo'q desang, kursini topshiraver; boshqasi albatta shunday qiladi. Bitta sen halol bo'lganing bilan hayot go'zal bo'lib qolmaydi. Shunda mening do'stim eng maqbul yo'lni talagan. Ta'kidlayman, o'zi juda sofdil, oqibatli odam edi. U hamma ishni bajarildi deb, qog'ozga qo'l quyib beravergan. Boshqa korxonalarni ham bu ishga tortgan, ular «bizdan bugina, sizdan ugina» deb yozib beravergan. Azbaroyi odamlarning taqdirini o'ylab shunday qilgan. Do'stim shu yo'l bilan o'zicha buyruqlar mustabidligiga qarshi kurashgan. Yigirma etti yil odamlarni qog'ozlar bilan himoya qilgan. Oxir oqibatda uning ajali etib o'ldi. Keyin uning go'riga tosh otish boshlandi; u himoya qilgan ming-minglab odamlar unga birinchi bo'lib tosh otdilar - o'rniga boshqani saylashdi, bu boshliq buyruqni qanday bo'lsa shunday bajarish uchun qo'lidagi hamma narsadan foydalandi - hatto kuchdan ham. Daromad kamaygan, sadaqa so'rash ko'paygan, bora-bora odamlar oldingi boshliqni afsus bilan eslashgan, uning to'g'ri yo'l tanlaganini anglashgan. Xo'sh, ayting-chi, bu erda nima yaxshiligi nima yomonlik. Buni qanday farqlasa bo'ladi. Biri odamlarni o'ylab, qonunni suiiste'mol qildi, ikkinchisi qonunni o'ylab, odamlarni xarob qildi. Men bu erda qaysi biri yomonlik, qaysi biri yaxshilik, hech farqlay olmayman. Umrim davomida ham buni farqlay olmadim.

- E'tiqod-chi, - dedim uning salmoq bilan gapirishidan achchig'lanib, to'g'risi uning dalillari meni biroz dovdiratib qo'ydi; u o'z umri haqida juda ko'p o'ylagan edi, aftidan, shuning uchun qat'iyat va ishonch bilan gapirardi. - E'tiqodli odamlar to'g'rirog'i, e'tiqodi mustahkam odamlar yaxshilik bilan yomonlikni juda teran anglaydilar, - dedim va gapimdagi balandparvozlikdan o'zim uyalib, to'xtab qoldim.

- E'tiqod! - dedi u g'ussali ohangda, - agar bir umr e'tiqod qo'yib, shunga ishonib, kurashib yonib-kuyib ... e'tiqod qo'ygan narsangiz puch, yolg'on va puflab shishirilgan shunday omonat, siz ezgulik deb sig'ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz bunday demasdingiz; ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan xuddi yo'ldan chiqib ketgan shaldur-shuldur, bo'm-bo'sh aravaga aylanardi. Siz esa bo'shliqni to'ldirish va aravaga nimadir yuklash uchun har qanday yovuzlikdan ham qaytmasdingiz. Shumi e'tiqod?! Men bu so'zni ishlatmay qo'yganimga ham qirq yildan oshib ketdi. Bu so'z shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvozki, eshitsam ko'nglim ayniydi.

U alam bilan xirillab to'xtab qoldi. Uning jahli chiqqan, negadir ko'ngli to'lib ketgandi, hozir biron narsa desam, jerkib tashlashi aniq edi. U o'zining fikrini ma'qullamaganlarni yoqtirmasdi, aftidan. Uning butun umr yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligini izlay-izlay, javob topolmaganini o'zimcha tasavvur qilib, dahshatga tushdim hatto uning o'sha kuni tushunmagan rasmlariga ham andak tushunganday bo'ldim; bu suratlar - o'z-o'zga ishonmagan, umrini turli aldovlar va yupanchlar bilan behuda o'tkazgan odamning hayot haqidagi o'ylari, uning mavhumlikka mustahiq qalbining parcha-parchalari edi. Umri poyoniga etgan sayin dunyoning beshafqat xulosalaridan qochib, u mana shu sokinlik va yolg'izlikning quyuq o'rmoniga yashiringandi. O'zining o'tgan umriga mana shu yolg'izlik qo'ynidan turib nazar solmoqchi, o'z umriga ham xulosalar yasamoqchi edi, shekilli, uning gaplaridan bu sezilar, lekin menimcha o'ziga zarur xulosani hanuz topmagandi. Uning yolg'iz hayoti menga chirigan daraxtning yolg'izligidek mudhish ... bo'lib tuyulgandi. Aftidan, yolg'izlik uning so'nggi boshpanasiga aylangandi. Uning gaplarida odamning vujudini zaharlovchi nimadir bor edi. U bilan chorak soat gaplashib, o'zimni

yomon his qila boshladim. Nimagaki ishonсам, chol hammasini chilparchin qilib tashlagan, meni ham o'zining ishonchsizligi bilan zaharlab ulgurgandi. O'sha kundan so'ng men ichimga kirib olgan cholning qiyofasidagi shaytonni vujudimdan quvib chiqarguncha, uzoq vaqt o'z ko'nglimni o'zim ko'tarib, faqat quvnoq hikoyalar o'qib yurdim.

Cholning oldiga boshqa qaytib chiqmadim. Hovlidagi chirkin va shilta hididan, cholning qo'lansa gaplaridan hamon o'zimga kelolmayotgandim. Es lasam ko'nglim aynir, birdan hamma narsaga qiziqishim yo'qolar edi. Uy bekasi haftada bir marta cholga ovat kiritib turar, uning berilib qandaydir surat chizayotganini aytardi. U suratga tushunmasdi, shuningdek, cholni ham yomon ko'rar, lekin qarovsiz cholga butun ko'cha ovqat kiritib turgani uchun ulardan ayrilgisi kelmasdi. Umuman, beva ayollarda tabiiy shafqat hissi bo'ladi. Ularning ko'ngli yumshoq, tez ta'sirlanib, tez hafa bo'lishadi. Men bora-bora cholning suratlari bilan ham, uning taqdiri bilan ham qiziqmay qo'ydim, o'sha payti Onettining hikoyalarini tarjima qilayotgandim. O'sha paytlari chol kamdan-kam esimga kelardi, esimga tushgan onlari esa ko'z oldimda qora sharpa kabi paydo bo'lar va bu garpa meni tinmay ta'qib qilardi. Ba'zan birinchi suratni eslab, xayollarga tolardim, xayollarim ham suratdagi yigitning ko'zlari kabi huzurli ediyu Meni faqat chol chizayotgan so'nggi suratgina ozroq qiziqtirib turardi, chunki, sezishimcha, chol oxirgi suratini chizmoqda edi. Uni ba'zan yo'lda - oziq-ovqat do'koniga chiqib kelayotgan holatda ko'rib qolardim va kunma-kun hayot asari yo'qolayotgan yuz-ko'zlariga, o'z umri uchun ayanchli xulosalar to'lib yotgan va uni masxara qilgandek ko'klam bilan birga tobora go'zallashib, yasharib borayotgan atrofidagi olamni ko'rmaslik uchun erga yana ham ko'proq egilib qolgan qaddi-qomatiga qarab, shu mudhish fikrimga ishongim kelardi.

Butun qish davomida cholni ikki marta - darvoza yoniga kursi qo'yib, o'zini chuvoqqa toblab o'tirgan holda ko'rdim. Uy bekasi ko'p javraydigan ayol edi. U butun mahallani g'iybat Kilib chiqar, so'ng yana cholni taftish» qilardi. U chol haqida ijirg'anib gapirardi, lekin ovqat kirgizishni kanda qilmasdi: unga ayniqsa, cholning mahalla-ko'ynikiga o'xshamagan odatlari yoqmasdi.

Bahorning boshlarida hordiq oyidan qaytib kelib, uyga kirishim bilan uy bekasi ko'zida yosh bilan qarshi oldi va uch kun burun cholning qazo qilganini aytdi. Vujudimga sovuq shilimshiq narsa o'rmalaganday junjikib ketdim va birdan xayolimga cholning suratlari keldi. «Uy hali qarovsiz, - dedi menga uy bekasi, - o'g'lini hech qaerdan topisholmadi, yana qo'lga tushgan bo'lsa kerak».

Kechqurun cholning hovlisiga o'tdim. Hovli huvillab yotardi. Shilta hidi cholning o'zi bilan birga yo'qolgan, biroq chirkin hid hali gupillab dimog'ni kuydirardi. Cholning suratlari bir chekkaga yig'ishtirilib qo'yilgandi. Cholning so'nggi suratini izlay boshladim. Chol suratni chizib ulgurganmi, yo'qmi, meni juda qiziqtirardi. Sariq matoni nihoyat topdim va uning yuzidagi qog'ozni yulib olib shosha-pisha suratga tikildim. Ko'zimga nihoyatda tiniq ranglar lop etib urildi - bu surat qirq yil ichida chizilgan mahzun suratlariga sira o'xshamas edi. Men rasmdagi manzaradan bir nafas tong qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o'rmon aks ettirilgan edi. Aqat bu suratda maymun qarab turgan umidsiz ko'zlariga g'am cho'kkan munkaygan bir cholni o'rmon sari etaklab ketardi.

Suratning shoshib chizilgani ko'rinib turardi. Ko'p joyiga bo'yoqlar nomiga chaplangan edi. Cholning o'zi ham umri oxirlashganini bilgan va shuning uchun shoshgandi.

Rasmning orqa fonidagi ranglar me'yoriga etmagandi. Bu quyosh botib, atrofga cho'kkan xira qorong'ulikni eslatardi. Biroq ana shu qo'ng'ir rang fonida maymun va odamning qiyofasi ravshan aks etgan, odamning yuzidagi umidsizlikni yana ham kuchaytirgan edi. Men o'shanda beixtiyor hayot kabi san'atning kirish va chiqish eshiklari borligi haqida

o'ylagandim. Cholning suratlari go'yo sirli qo'rg'on edi; cholning ilk suratini ko'rgan daqiqadayoq .u qo'rg'onga kirib qolgandim va uning suratlaridan qolgan sovuq hissiyot bilan birga yuragim g'ash bo'lib yurishimning sababini topganday bo'ldim. Shu kungacha cholning qo'rg'onida yashagan edim va hozir bu qo'rg'on eshigidan biyday kimsasiz dalaga chiqib qolganday his etdim o'zimni. Vujudimni shilimshiq, jirkanch narsa o'rniga bir... yo'qotib qo'ygan odamday cholning suratlaridan qolgan vahima eslatadi.

O'zim yashaydigan uyga qaytib kirganimda beka mahalla komitetida ishlaydigan keksa bir kishi bilan gaplashib o'tirardi. «Mahalla keksalari yig'ilishib, uyni kimgadir bermoqchi bo'lishibdi, - dedi u menga, - uy olaman deb yurgandingiz, mana shu uyni ola qoling». Birdan dimog'imga hovlidagi dov-daraxtlardan tortib, gullaru har bitta g'ishtgacha o'rnashib qolgan chirkin hid gup etib urildi; ko'nglim behuzur bo'lganday ijirg'anib ketdim.

- Yo'q, - dedim men o'z xonamga ketar ekanman. - Hozircha uysiz yashab turaman.

### **OG'RIQ LAZZATI**

Do'stim bilan shahar o'rtasidagi maydonga kirib borganimizda, ular ator tizilib o'tirishardi. Tanalari yara-chaqadan gezargan, azbaroyi og'riq va azobdan deyarli shilinib tushgan elkalaridagi yairga quyosh shu'lalari tushganda yaltirab ketar, oyoqlarini oldinga cho'zganча turishga ham madorlari kelmay zabun bo'lib o'tirishardi. Tekin tomosha ko'rishni istovchi ertayu kech maydondan ketmay ularning faryod va fig'onga to'la holatini zerikkuncha tamosha qilishar, hatto tunlari ham bu erda xohlagancha tomoshabin topilar edi. Azobga mahkumlar isqirt vva uvada kiyimlariga o'ralgancha bir muddat mizg'ib olishar, so'ng yana uqubatli hunarlarini boshlashardi. Fig'onlar qanchalik mudhish, hasratomuz chiqmasin, bunga hech kim e'tibor ham bermas, aksincha, bir necha fig'on ichidan kim ko'proq oh-voh qilayotibdi, kimning tovushi baland, kimniki zo'raki-yu kimniki samimiy deya bahslashardilar. Mabodo birontasi fig'on qilishdan to'xtab qolsa, xuddi aybdordek, yaralar behad azob berayotgan sheriklariga hasad aralash ko'z tashlar va nazoratchilarni imlardi; nazoratchi qo'lida qamchi bilan etib kelar va ko'kara boshlagan yaralar ustidan savalashga tushardi. Agar bu ham kor qilmasa, katta naalli etigi bilan tananing to'g'ri kelgan erini toptay boshlardi. Nazoratchilar azob berishning xilma-xil usullarini qo'llar edilar; ular o'z ishlarining aytish mumkinki, ustasi faranglari edi. Ammo nazoratchilarning og'riq qo'zg'atishdagi tajribalari qanchalik oshayotgan bo'lsa, maydondagilarning qoniqmasliklari ham shunchalik kuchayib borardi. Ayrimlar bosh nazoratchi kelganda usullarning tez eskirib, tanaga kor qilmay qolayotganidan shikoyat qilishardi. Boshliqdan tanbeh eshitgan nazoratchilar biroz kengashib olgach, vajoatli qiyofada yana mahkumlar oldida paydo bo'lishar va avval oyoqlarining, so'ng qo'llarining barmoqlarini birma-bir, bo'g'inma-bo'g'in sindira boshlashardi: og'riq qo'zg'atish mumkin bo'lgan barcha usullarni qo'llashga ruxsat berilgandi; nazoratchilar avval mahkumlarni etlari shilinguncha savalab chiqishar, keyin yaralar ustiga tuz sepishardi. Bu faqat boshlang'ich bosqich edi. Bora-bora tuz ham tanadan og'riq qo'zg'atmay qo'yardi, shundan so'nggina nazoratchilar bosha a'zolarga og'riq qo'zg'atish taraddudiga tushardilar.

Barmog'i singan mahkum o'kirib yuborar, yuzida azobli ifoda paydo bo'lib, ko'zidan yosh chiiib ketardi, ammo qisib olgan lablariga baayni zulmat ichida yonib turgan shamdek bir zaif tabassum qalqib chiardi, og'riq kuchaygan sayin bu tabassum butun yuzni egallab

olardi. Kimning bzida azob o'rnida to'liq tabassum paydo bo'lsa, tamoshabinlar o'shani ko'rsatib, qiyqirishardi. Bu ularning olqishi edi. Mahkumlarning yuziga bulutlar ostidan chiqib kelayotgan uyosh kabi tabassum yoyila borar, bundan zavqlangan nazoratchilar ularning barmoqlarini shart-shurt sindira boshlashar edi. Garchi olomon qiyqirib turgan bo'lsa hamki, barmoqlarning sinishi butun maydonga eshitar edi. Yuzida tabassum balqigan mahkum shu holda ko'zini yumgancha uzoq jilmayib yotardi - ayni shu soniya uning mastu mustarlik pallasi edi. Unga hech narsa og'riq lazzatchalik farog'at baxsh eta olmasdi; yoyilib ketgan lablarini, milkalaridan oqib tushayotgan yoshlarni, isqirt, yuviqsiz va qarovsiz yuziga istara baxsh etgan tabassumni va uning jangda g'olib chiqib, uxlab yotgan qadim pahlavondek baxtiyor qiyofasini ko'rib u aynan shu lahzani hech qaysi jannatga almashtirmaydi uni hech qaysi payg'ambar, hech qaysi muqaddas kitob bu lazzatdan mahrum etolmaydi deb o'ylaringiz, zero, uning ayni shu lahzadagi saodatmand qiyofasini hech narsa bilan ifodalab ham bo'lmasdi. Shu sababli ular atrofida hamisha tomoshabinlar qiyqirib turishar, mahkumlar esa, bir--biridan o'tkazib o'z san'atlarini namoyish etish uchun nazoratchilarni o'zlariga ko'proq azob berishga chorlashardi. Nazoratchi endi uning tizzasi ustida sakrar va yuzi aralash qamchi tushirardi. Suyak qarsillab ketardi; mahkum esa saodatnavish jilmayar, yorilib ketgan lab va burundan oqayotgan qon uning tabassumiga zarracha bo'lsin gard yuqtira olmas, aksincha, mahkum azobu og'riqdan farog'atlanib turgan shu soniyada yana ham salobatli va ilohiy tuyulardi.

- San'at, bu san'at, - deb baqirishardi olomon mahkumning yuzini ko'rsatib.

- Qoyil qilishayapti, - chiyillardi orqadagilar ham. - Bunaqasi kamdan--kam uchraydi.

Og'riq san'ati ham san'atga xos barcha sifatlarga ega edi, hatto ulardan mukammalroq ham edi; uning har bir harakati, holati, ovozi, ijrosi, manzarasi shunday izchil tartibga ega ediki, biri ikkinchisiz sodir bo'lmasdi va eng ulkan rassomlar ham eng ulug' asari ustida mahkumlar kabi zavqlangan, lazzatlangan emas va ular ham bu manzarani chizishga ojiz qolardilar. Og'riq va og'riq paydo qilishning turi, usullari shunchalik xilma-xil ediki, bu sohada har qanday san'at turi bilan bahs boylasha olardi, binobarin, bu san'atdan ham boshqa san'at turlari kabi mahkumlik mavjud va buning ham o'z tomoshabinlari bor edi. «Og'riq lazzati - eng oliy lazzat, - deb yozishardi mahkumlar bilan qilgan suhbatlarda, - bu lazzatni faqat og'riqqa mahkum bo'lgach sezish mumkin». Bu san'atning boshqa san'atlardan farqi shuki, unga mahkum etilgan umr bo'yi uning shaydosi bo'lib qolar, undan hech qachon qutilib keta olmasdi. Tashlab ketganlar saldan so'ng yana aytib kelishardi. Chunki og'riq lazzatidan ta'tigan, ko'chasi bir marta o'tgan kishi usiz yashay olmasligini anglardi. Og'riq mahkumlar uchun saodat edi. Mahkumlar qanchalik azob chekishsa, shunchalik zavqlanishar va og'riq lazzatiga har mahal tashna turishar, og'riq humor qilib, tanalarini o'zlari ham yulib--yalqab tashlashardi. Ular og'riq uchun tug'ilgan, og'riq va azobning oliy maqomiga etishgan edilar - ularni og'riq va azobdan boshqa holatda tasavvur qilib bo'lmasdi. Azob san'at asari yaratishning eng qulay vositasi ekanligini mahkumlar ham, nazoratchilar ham his qilishar, shu sababli nazoratchilar og'riq va azob berishni o'zlarining burchlari deya hisoblardilar.

Gazetalar har kuni mahkumlarning yangi-yangi muvaffaqiyatlar to'g'risida sahifa-sahifa maqola, xabarlar berishar, tomoshabinlar esa ertaga mahkumlar bilan bo'ladigan yangi tomoshani orziqib kutgancha tong ottirishar, sal bo'sh vaqt topilsa, maydonga qarab

chopishardi. Ular san'at shaydolariga, san'atdan zavq olishning xumorparastlariga aylangandilar. San'at va san'atkorlarga bunday sadoqatli ixlosmandlikni boshqa joyda topish mushkul edi. Shu sababli nazoratchilar ham maydondagilarni o'z muxlislari bilan behad fahrlanishar, maydonda odam qancha ko'p bo'lsa, ularning harakatlari ham, nag'malari ham shuncha san'atkorona tus olardi. Og'riq tufayli keladigan lazzatdan o'zga oliyroq farog'at yo'q edi; yara-chaqa toshgan tanalar, isqirt va uvada kiyimlar ham bu manzarani xiralashtirilmay, azob-uqubat chekaverib, murdaniki kabi qonsiz va ifodasiz yuzlar naq xulyo oftobi yoritib turgan, faqat taxayulgina yaratish mumkin bo'lgan xayoliy qiyofalarga o'xshab ketardi. Faqat san'at asari yaratayotgandagina yuz shunday ulug'vor holatga kirishi mumkin.

Biz shaharning qaysi burchagiga bormaylik, mo''jizaviy san'atkorlikka va uni olqishlayotgan muxlislar olomoniga duch kelardik. Ayrim muxlislar o'zlarining san'at fidoyisi ekanligini ko'rsati uchun nazoratchilar safiga kelib qo'shilar va ulug' san'at namunasi yaratishda o'z hissalarini qo'shishni istashardi; ular san'atga fidoyiliklari tufayli ham mahkumlarni ko'proq azoblash kerak, shunda ular yana ulug'roq asarlar yaratadilar deyishar va nazoratchi sifatida mahkumga tashlanib, uni bir pasda og'iz-burnini qonga bo'yar, tuzni shusiz ham halvirab qolgan yaralar ustiga separd. Fidoyilar gazetlarda bu san'atning ravnaq topishi haqida bahs, munozaralar uyushtirishardi. «Insonni xo'rlash mumkin emas, - deb yozishardi ular munozaralarda, - inson faqat ulug'lanishi kerak. Chunki u ulug' narsalar yaratishga qodirdir». Keyingi oylarda og'riq san'ati bilan shuullanuvchi tadqiqotchilar ham paydo bo'lgandi. Ular bu san'at inson yaratgan eng ulug' san'atlardan biri ekanligini e'tirof etishar, ammo bu san'at tafakkur mahsulimi yoki tana degan masala yuzasidan hech kelisha olmasdilar. Har birining o'ziga xos dalil va isbotlari bor edi. Bu munozaraga shahar ahli ham qo'shilgach, taraflar janjali yana ham avj oldi. «Bu tafakkur masuli, yo'qsa, ular tananing bu qadar azobiga dosh berolmasdi. Faqat tafakkur shunday ulug' san'at yarata oladi», - deya bahslashardilar tafakkurchilar. «YO', bu san'at faqat tananiki. Uning yangiligi ham shunda. Insonning jismoniy imkoniyati cheksizdir», deb ularning fikrini rad qilardi boshqalari. Bahs--munozaralar shunchalik vaj oldiki, oqibat sal bo'lmasa, ikki o'rtada janjal chiqib ketayozdi. Shahar rahbarlari aralashuvi bilan ikki tomon yarashdi va endi ular «Bu insondagi jismoniy va tafakkur quvvatining mahsuli», degan yakdil to'xtamga keldilar. Shunday kunlarda gazetlarda To'rtinchi mahkum haqida shov-shuv boshlandi. Uning azob-uqubatga benihoya qobiliyatli ekanligi, san'ati ham o'zining nafis va go'zalligi bilan ajralib turishi haqida yozishardi, darvoqe, uni nafosat olamining so'nmas guliga qiyoslashar edi. To'rtinchi mahkum - u markaziy maydondagi mahkumlar ichida edi - qotmadan kelgan, uzunbo'y, qiltiriq va yuzida doim tabassum balqib turadigan yigit edi. U mahkumlar ichida o'zining dardga chidamliligi bilan ajralib turar, barmoqlari sindirilayotganda yoki og'riq butun tanasini qaltiratib yuborganda u xuddi ma'shuqasiga tabassum qilayotganday jilmayib qo'yar, so'ng yana ham nazokatliroq qilib nazoratchiga minnaddorona bosh iringardi. Nazoratchilar ham unga shunday munosabatda bo'lishga intilishar, uchi o'tkir, maxsus sanchqisini go'yo tosh yo'nayotgan haykaltaroshday tanaga ishtiyoq bilan sanchar, so'ng o'sha toshga bu go'zal san'atning namunasi bo'lgan o'ziga xos naqsh solib chiqishardi. Nazoratchilarning to'rtinchiga e'tibor va hurmati zo'rligidan hafsa bilan azob berishayotgani ko'rinib turardi. Vaholanki, ularga og'riq qo'zg'atish uchun xohlaganicha qo'pollik qilish huquqi berilgandi. To'rtinchi oyoqlarining suyagi sindirilayotganda ham tabassum qilishni tark etmadi: go'yo u bu og'riqlarni nazariga ilmayotganday edi; og'riq yuzini bir zum ko'kartirib yuborsa ham u bir necha soniyada o'zini tutib olar va xumor qilib tamaki

tutatayotganday og'riqning tanasiga singayotganidan lazzatlanib, labining bir chetida jilmaygancha mag'rur va sharafli alfozda turardi. Uning shu turishiyoq o'zi bir san'at asari edi; uning yuzida behad azob-uqubat aks etgan, qiyofasi yaqinda irg'in-barot tugagan va hamma narsa vayron qilingan maydonni eslatardi. Bu yuzida haqorat va xo'rlikdan, musibat va alamdand asar ham yo'q, labining chetidagi tabassum esa, hayotining qorong'u ko'chalarida qolib ketgan, o'sha olis dorilamon kunlarning bir siniq parchasi, o'zini tomosha qilayotgan, olqishlayotgan olamon oldiga kiyib chiqqan niqobi edi, ana shu tabassumgina uni maydondagilar ichida ulug'vor va mag'rur ko'rsatib turardi.

U o'zining ozurdaligi bilan menga juda yoqib qolgandi, darvoqe, biz maydonma-maydon yugurishni bas qilib, endi faqat to'rtinchi turgan maydonga borar, kechgacha o'sha erda qolib ketardik; to'rtinchining xuddi may to'latilgan qadah kabi og'riq to'la yuzini ko'rganda kunlar qanday kech bo'lganini ham bilmay qolardik. To'rtinchi g'aroyib sabr-toqati va nazokati bilan hammani hayratga solgan edi. Uning g'olib tabassumini ko'rganda azbaroyi zavqlanganimizdan uni g'ajib tashlagudek qudrat sezardik o'zimizda. Uni g'ajiganda ham shunday g'ajish kerakki, u tilka-pora etilayotgandagi og'riqdan yana ham buyuklashsin va bu buyuk og'riq insoniyatning abadul-abad turadigan san'at asariga aylansin, zero, to'rtinchi abadiylik qadar buyuk asar yaratishga qodirdir, derdim do'stimga. Men aynan shu to'rtinchi mahkum tufayli do'stim bilan qattiq tortishib qolgandim.- U bir olifta - derdi u, - o'zi hozir to'kilib tushaman deyapdiyu dag'dag'asini qarang, nuqul madorsiz qomatini tutaman deb chiranadi. Undan ko'ra menga narigi maydondagi burniga xalqa o'rnatilgani ko'proq yoqadi. Xalqaga qo'shib burnini qancha burasang ham jilmayib turaveradi.

Men to'rtinchini qanchalik maqtamayin do'stim o'z so'zida turib oldi. Biz garchi o'zimizni fidoyi deb hisoblamasak ham talabalik davrimizda ko'proq narsalarni ko'rib qolaylik deb, maydonga har kuni kelardik va ularning mahorati ko'rib biz ham olomon ichida turib olqishlardik. Keyingi kunlarda sinov boshlanib, biz maydonga borolmay qolgan bo'lsak-da, do'stim bilan butun sinov muddati tugaguncha - uch haftacha to'rtinchi haqida tortishib yurdik. Biz to'g'ri kelgan erda - xoh dahliz, xoh xonada bo'lsin bahsga kirishib ketardik.

- Uning ichkarisi mustahkam, - derdim men, - gap tanada emas, u o'zini mustahkam ushlab turishga qudratni o'sha ichkaridan olayпти.

Do'stim uni nuqul olifta derdi. Unga to'rtinchining tabassumi yoqmasdi. - Hammasi zo'raki, - derdi u, - kulgusi masxara qilaytganga o'xshab chiqadi. Bir fikrga kelolmasak ham biz sinov tugashi bilan maydonga qarab yugurdik. U erda olomon yana ham gavjumlashgandi. San'at asariga shunchalik ixlosmand odamlar ko'pligidan biz faxrlanib qo'yardik. Do'stim san'atni sevgan xalq - buyuk xalq deb isbotlashga harakat qilardi va shu sababli maydondagi muxlislarni ko'rganda behad quvonib ketardi.

Shahar to'rtinchining yangi mo''jizalarini hazm qilib ulgurmasdi. U keyingi kunlarning shubhasiz, yagona qahramoniga aylandi. Maydonga borganimizda biz yana bir yangi gap eshitdik: to'rtinchi o'zining yuragini sug'urib olishga ruxsat beribdi. Bunday g'aroyib tomosha hali mahkumlar ichida sodir bo'lmagandi. Men biroz engil tortdim. Do'stim bilan bahsimiz shu bilan nihoyasiga etgandi. Bu gapni eshitgach, do'stim biroz ishonqiramay



turdiyu, so'ng indamay qo'ya qoldi. Sukuti mening g'alabamdan darak berardi. Shu sababli biz to'rtinchining yangi-yangi mo''jizalarini ko'rish uchun maydonga qarab yo'l olardik. To'rtinchining yuragi kesib olinadigan kuni maydon tomoshabinlarga to'lib ketdi. Ular to'rtinchiga o'z muhabbatlarini izhor qilgani kelgandilar. O'rtada singan oyoqlari va barmoqlari shishib kketgan to'rtinchi o'sha alfozda - mag'rur o'tirardi. Endi uning yuzi ham gezara boshlagan, og'riq sillasini quritgan edi, ammo u hali o'zini tetik va bardam tutib turar, og'riq hali uni butkul engolmagandi. Tanadagi yaralariga yopishib qolavergach, uning ust-boshini echib tashlashgan, yalong'och payti u yana ham ozg'in bo'lib ko'rinardi. Muxlislar uni tinmay olqishlashardi - ular hozir eng ulug' san'atga voqif bo'lajaklaridan hayajonga tushgandilar; ularning ko'pchiligi o'zlari bilan shiorlar yozilgan lavhalar, endigina uzilgan gullar ko'tarib olishgan, lavhalarda «Biz sen bilan faxrlanamiz», «Senga omad tilaymiz» degan yozuvlar ko'zga tashlanardi; gullar esa bir-biridan chiroyli edi - maydonda turfa rangdagi qo'lbola gulzor paydo bo'lgandi.

Maydonga to'rtta nazoratchi kirib kelgach, gazetchilar shaqirlatib suratga tushira boshlashdi. Nazoratchilar tomoshabinlar hayqirig'i ostida ishga kirishdilar: ular makumning yuzi maydonga yaxshiroq ko'rinib turishi uchun yurakni orqa tomondan chiqarib olishga qaror qildilar. Bittasi mahkumning qo'lidan ushlab turg'izdi va uni tomoshabinlarga qaratdi. Qolgan ikkitasi umurtqa suyakni arralay boshlashdi. Mahkum g'oz qotib o'tirar, arra suyaklarini kesib o'tayotgandagina ko'zlarini yumib olar, yuzi qopqora ter aralash burishib ketar, biroq tezda ko'zini ochar va o'sha siniq tabassum bilan olomonga qarab jilmayib qo'yardi. U xuddi shu lahzada og'riqdan behad lazzatlanayotganligi ko'rinib turardi - ko'zlari xushnudlikdan yiltillab ketgandi. Og'riq uni nihoyat lazzatning oliy maqomiga olib chiqqandi - nazoratchilar yurakka tutash tomirlarni qaychilashar ekan, mahkumning yuzidagi tabassum yana ham ulug'vorlashdi - shu soniyadagi lazzatni u qachondan beri kutgan, mushtoq bo'lgan edi. U farog'atning oliy cho'qqisida turib o'zini tomosha qilayotganlarni bepisand kuzatib turar, o'zi esa hamon lazzat diyorida parvoz qilardi. Boshqa mahkumlar ham oh-voh qilishni bas qilib, unga hasad bilan boqib turishar, tomoshabinlar esa «Ofarin», «Qoyil», «Juda boplayapti», deya hayqirishar, gazetchilar mahkumning yuzida paydo bo'lgan lazzat ifodasini tezroq suratga olish uchun bir-biriga bir nimalar deb baqirishardi. Orqada turgan nazoratchilardan bittasi bulkillab turgan yurakni qo'lga olib, maydondagilarga ko'rsatganda olomon guvurlab yubordi. Eng so'nggi nafasgacha mahkumning yuzidagi tabassum yo'qolmadi, u qaltirayotgan, yuraksiz tanasini tik tutganicha hamon tabassum qilib turardi, to'g'rirog'i, uning jonsiz yuzida tabassum qotib qolgan edi - u farog'at quchog'ida hamon parvoz qilar, o'z san'atining aql bovar qilmas ulug'vorligini ko'rsatish uchun uchishga chog'langan burgutdek shiddatli qiyofaga kirgandi. Uning tabassumi sekin-asta so'na boshladi. Tabassum so'nishi bilan tana ham gupillab erga quladi. Bir dam sukut cho'kdi. So'ng birdan muxlislar tana ustiga yashnab turgan gullarini irg'itdilar va ulug' san'atga guvoh bo'lganlaridan quvonchlari ichiga sig'may bir-birini quchoqlab ketdilar. Men ham g'olib alfozda do'stimni quchib oldim. Tana gullar ichida ko'rinmay qoldi. Qo'lida yurak bulkillayotgan nazoratchi bu ulug' san'atkor oldida avval tiz cho'kdi, so'ng yurakni ohista uning ko'kragi ustiga qo'ydi. Shundagina biz og'riq-farog'atidan so'ng ham, o'zimiz turgan zaminga tushmaganini angladik - u narigi yoqda, lazzat yurtida qolgan edi - uning jonsiz tanasi ham san'at asariga aylangan va yashnoq gullarga ko'milib yotardi.

## O'LIK MAVSUM

Biz o'qituvchimizni juda sevardik. Unga bo'lgan muhabbatimiz beg'araz va pok ekanligiga sira shubha qilmasdik. Uning ovozini eshitish va so'zlari changalida yana bir bor ezg'ılanish, tafakkur va xayolot gumbazlari qad kerib turgan saltanatlarini sayr etish uchun ertalablari daftarlarimizni qo'litiqlab, nonushta ham qilmasdan saboqqa yugurar; adashgan va toliqqan karvonni olislardan kelayotgan sahro uzra jaranglagan bong sadolari o'ziga chorlagani kabi bu muhabbat ham bizni tinmay chorlar, o'qituvchimiz bilan bizni ko'rinmas, ammo mustahkam rishtalar bilan bog'lab tashlagan, biz har kuni mana shu rishtalarga qalbimiz va shuurimizni osgancha go'yo uzoq ko'rishmagan oshiq-ma'shuqlar yanglig' o'qituvchimiz diydoriga to'yish, so'ng u bilan ikki yoki to'rt soat mobaynida tiriklik va abadiyatning azob-uqubat to'la ulkan qo'ng'irog'ini chalish, insoniyatga xayoldan kelajak sari xaloskorlik kemalari yasab berish uchun birin-ketin, biroq bir paytning o'zida saboqxonaga yig'ilardik. Men hech qachon birontamiz ham vaqt masalasida adashmasligimizni bilardim va shuningdek dars boshlangandan so'ng biror talabani saboqxonaga kechikib kirib kelganini ham eslay olmayman. Biz biron nojo'ya qilg'imiz yoki xatti-harakatimiz bilan o'qituvchimiz gapiga tegishdan, to'g'ri-rog'i, uni bezovta qilishdan juda cho'chir, shu sababli saboq payti har bir fikrni tafakkurimiz va xotiramiz minoralariga og'ir jangdan so'ng erishilgan zafar yalovlari kabi bir-bir ilib qo'yishga harakat qilardik, zero, bizning saboqxonaga ulug' hamda qudratli sarkardaning bir hamlasidayoq, tor-mor bo'lgan va sukunatga cho'mgan maydonni eslatardi. O'qituvchimiz chindan ham g'olib sarkardaga o'xshab so'zlardi. U hech narsa haqida hech narsasiz gapirayotganday taassurot qoldirar, aslida ham uning gaplari qanaqadir xayolot va ro'yodan iboratday edi. Ozg'in va qiltiriqligidan uni hozir yiqilib tushadi deb o'ylardik, ammo u hech qachon yiqilib tushmas, bizni hayratga soluvchi chaqqonligi bilan bir daf'adan so'ng to'kilib tushadi deb o'ylaydigan holatdan tik va qahrli alfozga qaytardi: u gapirar ekan, biz mana shu tushuniksiz va uzun jumlar ortida uning hayotini, faqat unikini emas, o'zimizning hayrat va umidga to'la hayotimizni ham sug'orib turadigan qudrat qad kerib turganday tuyular, bizga uning gaplari, ixrashlari, ma'ruzalarini ta'sirli qilish uchun ataylab qilinadigan sukutlari, qiroatlari, tashbeh va timsollarigina emas, xaroba uyning vayron va puturdan ketgan derzasiga yoqib qo'yilgan xira sham yanglig' pirqirab turuvchi ko'zlari va hatto butun vujudi ham qandaydir cheksiz, bizning aqlimiz bovar qilmas qudratdan iboratday tuyulardi. Balki bunchalik emasdir, balki undan anqib turuvchi bo'g'iq va badbo'y hid ham qudrat va ilohiyat darakchisi emasdir, biroq shunday sirli va salobatli tuyu ediki, biz bu tuyuni har soniya his qilib turardik. Bularning barchasi unga bo'lgan muhabbatimizni yana ham oshirar, uni ko'z oldimizda buyuklikning eng oliy va mukarram cho'qqisiga olib chiqar, shubhasiz, u betakror buyuklik va karam sohibi edi.

Biz kunlar o'tgan sayin boshqa kurslar, boshqa talabalar evaziga ham safimiz kengayib borayotganini sezib qolardik. Mabodo kimning darsiga ko'p talaba ishtirok etadi, kimning shogirdlari ko'p degan savol paydo bo'lgan taqdirda ham boshqa o'qituvchilar hech munozarasiz hasad va alam bilan uni eslashlariga ishonchimiz komil edi, zero, hech qaysi o'qituvchiga bunchalik talabalarning ommaviy sadoqati ato etmagan desak hech xato qilmasligimizni bilardik. Boshqa o'qituvchilar darsga kirganda esnab o'tirgan ikki--uch talabadan o'zga biron talabani uchrata olmagan holda uning ma'ruzasini eshitish uchun qo'shni, hatto ixtisosliklari to'g'ri kelmaydigan talabalar ham yig'ilib kelar, kursi yoki biron suyanib tursa bo'ladigan joy izlab talabalar dahlizda zir yugurib yurishardi: uning ma'ruzasi arafasida dahlizlar, xonalar naq to'polon ichida qolar, talabalarni

tartibga chaqirish uchun o'qituvchilar o'sha kunlari tinimsiz navbatchilik qilishardi. Men bu kunlar ular uchun nihoyatda mashaqqatli bo'lishini anglardim; talabalar deyarli ularni tinglashmas, e'tibor bermas, baqirib-chaqirib, hozir boshlanadigan ma'ruzani muhokama qilishardi. Ma'ruza boshlangach, birdan sukut cho'kar, hamma sevimli o'qituvchilarining og'zidan chiqayotgan gaplarni qog'ozga tushirishga shoshar, so'ng bo'sh vaqtlarida ba'zilar bu uzun ma'ruzalarni yodlab ham yurardi.

Kursilar, stollar sinib qolavergach, rahbarlar o'qituvchimizning ma'ruzasi uchun chekkadagi, faqat bayramlar va tantanalarda ochiladigan zalni bo'shatib berdilar, doimiy to's-to'polon, shovqin-suron va talabalar beboshliklaridan qutildilar. Bu zal ham keyingi paytlarda torlik qilib qolayotgan bo'lsa ham bemalol o'tirib, ma'ruzani ko'chirib olishga imkon bor edi. O'qituvchimizning kundan-kun shuhrati oshib borar, biz saboqqa kirganda yangi-yangi begona talabalarga duch kelardik. Saboqdoshlarimizdan biri xazil aralash: «Yaqinda o'qituvchimiz butun shaharni boshqaradi», derdi. Aslida bu hazilda hech bir mubolag'a yo'q edi. Ustozni har ko'rganda yoki uning ma'ruzalarini loluhayron va oshufta bo'lib tinglab o'tirgan lahzalarda nafaqat shahar, balki qalbimiz ham allaqachon zabt etilganini his etardik. O'qituvchimiz nazarimizda, qo'l etmas yuksaklikda turar, uni zabt etish va mayda, ba'zan haddan ortiq bachkana tashvishlarga o'ralashib yashayotgan bizning ikir-chikirlarga, g'iybatu fisqO'fasodlarga, jo'n, o'tkinchi umidlarga o'ralashib yashash mumkin emasday tuyular edi; u o'zi turgan yuksaklikdan biz tomonga boqmas, faqat uning qiyofasida balqigan hidoyat va shams nurlari muzlab yotgan va necha yillardan buyon oftob tegmagan ko'nglimiz kirlarini ilitar ekan, bu shams hayot taftini xuddi afsonaviy Hotam boyliklarini qashshog'u muhtojlarga bir-bir ulashganday shunchaki sadaqa qilib ketar va u oliy himmat, betakror sahovat xojasi edi. Biz vayron bo'lgan va zalolatga yuz tutgan dillarimizni bu oftobga tutib ilitar ekanmiz, har birimiz bu oftobni kutib jon berishga tayyor va mushtoq edik. U o'zining himmati va sahovati bilan nestu zabun qilib bo'lgach, bizni zoriqtirish va o'rtash uchun yana o'sha yuksaklikka qaytib ketardi. Biz sezib-sezdirmay gapirishda, so'zlashda, kiyinishda o'qituvchimizga taqlid qilayotganimizni anglab qolardik, hatto gapirayotganda qalamni qo'l uchida o'ynatishgacha o'qituvchimizniki edi. Sochni uzun qilib o'stirishni quyib turaylik, ko'zimizni ham o'qituvchimizniki kabi piri-piratishga intildik. Men saboqdoshlarimning tushlarini ham o'qituvchimizga ajratishganiga shubha qilmasdim, zero men ham bu yolg'iz o'zim podshoh bo'lgan mamlakatni o'qituvchimiz ixtiyoriga topshirganimga ancha bo'lgandi. Biz go'yo jodulangan va afsun qilinganlarga o'xshardik. O'qituvchimizning bizni o'ziga tortadigan darajada istarasi issiq ham emasdi, aksincha, biologik xonalarda ko'rgazmaga quilgan ustixon kabi qoq suyakdan iborat, agar ustida egni boshi bo'lmasa uning o'sha ustixonlardan fari yo'q, sochiga hech qachon taroq tegmagan, patila va a'zoi-badanidan qandaydir zaifgina qo'lansa hid anqir, ovozi qabrdan chiqayotgan va olislardan kelayotgan o'tmish sadolaridek qarimsiq va zardali edi. Biz ko'pincha shunday ko'rimsiz va hatto vampirlardek badbashara odamga bunchalar oshufta bo'lib qolganimizga hayron qolardik. Uning o'zini tutishi, qaddi-qomati va qurib qolgan kuldek ko'zlari johillik va kibr aks etgan yuzi Erlikxonningx badjahl haykalini eslatar, biz esa ana shu aql va fikr mash'ali bilan bizni nodonlik sahrosidan tafakkur qo'rg'onining yuksak va mashaqqatli so'qmog'iga olib kiruvchi, izidan maftun va shaydo, jodu va sehr etarak ergashtirib boruvchi, har kun tong saharda qo'yoshdan ham oldin avvalo ustozga ehtiromlar va muabbat uyg'otuvchi, peshvomiz va haloskorimiz, aqlu idrokning betakror timsoli vahili va qahrli ma'budning sig'indi va arjumandlari edik; uning shuuri bizning shuur, uning xayoli bizning xayol, uning dardi bizning dard, uning

shiddati bizning shiddat edi va biz faqat maftunkorlari emas, uning qudrat va karam aks etib turgan tanasining bir qismi edik, u biz edi, biz esa u edik.

Bizning o'zaro bahslarimiz uning ma'ruzalariga bir taqlid edi, xolos. Bir marta biz saboqdoshlarimiz bilan g'oya va inson haqida bahslashib qoldik. Men g'oya o'tkinchi, inson abadiy degan anchayin jo'n fikrimda turib oldim. Biz bahsimizni o'zaro hal qilolmagach, ustozga murojaat qildik. U ma'ruzalarini xuddi ko'ksingizga tuyqusdan xanjar urgandek, to'satdan biz kutmagan, sezmagani fikr bilan boshlar va izidan quyilib kelayotgan, bizning aqlimiz bovar qilmas vahmli va zarbali mantiqlarini bizning lolu hayron qolgan tasavvur dashtimizga uloqtiraverardi. U fikrimizni eshitib, kibrli jilmayib qo'ydi va qisqagina qilib: «g'oya o'lmaydi», dedi. Men esa o'z fikrimda turib oldim. «G`oyalar qurolga o'xshaydi, ishlatib bo'lingach otib yuboriladi», dedim.

- Yo'q, - dedi o'qituvchimiz biroz pisandali ohangda; u har birimizning qalbimizga o'zining haykalini yasab ulgurgan qiyofasiga zaharxanda tus berdi. - Tana o'lib ketaveradi. g'oya yangi avlod bilan birga yangidan tug'ilaveradi. Uni ko'mib bo'lmaydi - uni ko'mishgan taqdirda ham u qabrdan chiqib yana dunyoni boshqaraveradi. - U shunday deb sirli tirjaydi. Menga u o'z xulosalaridan zavq olayotganday tuyuldi. - Yaqinda T. O'ldi, - dedi u bir zumdan so'ng fikrini davom ettirib. - Buni hammalaring bilasizlar. Uning arboblik faoliyati deyarli sharmisor qilindi, uni vatan xoini deb atashgacha borishdi. Lekin yangilar ham uning g'oyasi bilan boshqarishga o'tishdi. G`oyani o'ldirib bo'lmaydi, u yangi avlod bilan birga yangi mazmun kashf etib tug'ilaveradi.

Shunday deb u shakl va mazmun haqida gapira boshladi. Tan olish kerakki, bizni unga bildiradigan e'tirozimiz nihoyatda zaif edi, shu sababli biz odatdagiday bu munozarada ham engilganimizni tan oldik. O'qituvchimiz g'olibona jilmaydi. U hamisha bizning tushunchalarimizni tor-mor qilgach, yana bir og'ir jangda zafar qozonganday mag'rur jilmayib qo'yardi, garchi jumalari uzun, tanbehu ishoralar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, u fikrlarni xuddi o'qib berayotganday ravon ifodalar, u rostdan ham bir nuqtaga-bizning ustimizdagi bo'shliqqa qarab gapirar, go'yo u erda qandaydir sirli kitob ochiq turgayday edi; Ustozning barcha harakatlari zo'rakiday tuyular, qo'llari qaltirab, hozir nimasidir fosh bo'lib qolishidan xavotirlanib turar, bizning muhabbatimizni qozonganiga ham ishonmaganday, shu sababli hamisha johil, kibrli, yolg'iz bo'lib tuyulardi. Uni doim men kasalmand va vasvasa bo'lsa kerak, shu sababli ham hech kimga o'xshamaydi, barcha daholar kabi u ulug' va betakror vasvasaga yo'liqqan deya o'ylardim, shunda men o'qituvchimizning a'zoi badaniga o'rnashib qolgan hidning nima ekanligini g'ira-shira anglaganday bo'lardim; bu nam tuproq hidi edi. Ammo bu tuyg'uni oshkor qilib, o'qituvchimizga oshiqu shaydo bo'lganlarning tanbehiga dosh berolmasligimni o'ylab, bu hidni unutishga harakat qilgandim. Ustozimizga bo'lgan ommaviy shaydolik, saboqxonalarda kursi topib o'tirish muammosi va beshafqat vaqt hammasini unutishga majbur qildi va men ham ertaga ustozning ma'ruzasini oldingi qatorlarda o'tirib eshitish uchun qandoq qilib saboqqa ertaroq borishim kerakligini o'ylab tong ottiradigan bo'ldim.

O'qituvchimizning ma'ruzalari tobora qiziq tus olayotgandi. Uning shogirdlari safi kengayotganidan uning o'zidan ko'ra biz ko'proq quvonar, ustozimizni eru ko'kka ishonmasdik. Oxir-oqibat ustozimiz barcha sohada g'alaba qildi. Uni yoqtirmaydigan fakultet boshlig'imiz o'qituvchilar ham talabalarni tartibga chaqirish uchun unga

murojaat qiladigan bo'lishdi. Bebosh talabalar ustozni ko'rib, xuddi afsun bilan seli qaytgan daryoday jimib qolishardi. Shunday paytlari u bu dunyoga yangi tartib, yangi haqiqat, yangi mantiq va yangi hidoyat yoyuvchi, insonlarga xos barcha mayda va jo'n kechinma, munosabatlardan xoli, tiriklar eta olmas darajada forig'langan, poklangan, musibat va azob uzra yuksak ko'tarilgan xilqat bo'lib tuyular edi. Saboqdoshlarim ustozimizga bag'ishlab she'r bitib yurishini bilardim. Mening she'r yozishga uncha uquvim bo'lmasa-da, ustoz haqida soatlab gaplashishga, bahslashishga tayyor edim. Biz hammamiz ustozimizga bo'lgan ehtiromimiz telbalik darajasida ekanligini sezar va mana shu telbalikning o'ziyoq qalbimizni g'urur va surguga to'ldirardi. Uning nutqida kishini jazava va vasvasaga tushiruvchi, jununini qo'zg'ovchi nimadir bor edi; u gapirar ekan, hech birimiz u gapirayotgan narsa haqida o'ylamas, xayolimizga Malmstining «Yig'i» musiqasi kabi olis shovqin aralash mubham jilvalar kelar, u hayot haqida gapirar ekan, o'z-o'zidan biz o'limning ulug'ligi va qudrati haqida o'ylandik; biz xayol va fikrlarimizni bir joyga to'plashga qanchalik harakat qilmaylik, ustozimiz ma'ruzalari bizni baribir o'sha aql--idrokdan holi olislikka etaklab chiqib ketaverar, gyo jami insoniyat intilib kelgan narsa mana shu ma'nisiz, mazmunsiz va shaklsiz olislikda deb ta'kidlayotganday edi. To'g'rirog'i, buni ustoz so'ylamas, uning so'zlari bizni mastu mustar qilardi. Biz xulosa va hukmning bunchalar beshafqatligidan, bunchalar ozurdaligidan mast bo'lardik, ustoz bizning g'urur va sha'nimizga tegib, qalbimizni uqubat selida oqizib mast qilardi. Biz o'z muhabbatimizni boshqalarga tez va osonyuqtira olardik. Buning uchun ustozni zo'r berib maqtash bizga xech shart emas, biz muhabbat va hayrat yoyish uchun ustozning ikki--uch fikrini keltirar va bu fikrlardagi adadsizlik va hududsizlikdan suhbatdoshimiz bir soniya ichida xuddi uyatli joyi ochilib turganiga birdan ko'zi tushib qolganday avval lol qolar, so'ng ustozimizning g'oyibona muxlisi va muhibiga aylanardi. O'shanda muabbat ham yuqumli kasallik kabi tez va havfli tarzda yoyilishining guvohi bo'lardik. Biz qanchadan-qancha dillarga, aqllarga bu yuqumli kasalni yuqtirmadik, qanchadan-qancha qalblarga hayrat va ulug'likdan lol qolish chirog'ini yoqmadik: go'yo biz shahar va odamlar oralab yuqumli kasal tashuvchilariga o'xshar, qaerga borsak, o'sha yerni o'zimizning tanimizni va shuurimizni qaqshatib yotgan kasallik bilan zaharlab chiqardik. Bir marta saboqdoshlarimizning birining olis qishloqdan kelgan otasi ustozga bo'lgan ehtiromimizni ko'rib, ho'ngrab yig'lab yuborgani - ustoz bizning sha'n--shavkatimiz va xaloskorimiz edi; xuddi bahor oftobi yangli ongimizning rutubatli va charchoq qirlarini isitar, biz shu oftobni boshimiz va shuurimizga toj qilib, fasllar yalqovlik va horg'inlik bilan almashadigan talabalik tunlarimizni shu'laga to'ldirar, o'zlarini ustozning eng sadoqatli shogirdlari deb hisoblovchilar yig'ilib qolganimizda faqat ustoz haqida gaplashar va uning jumllariga yashiringan mantiqli chiqishni, qirq chimmat ichidan yuzini bir-bir ochgan go'zal yanglig' bu fikrga shaydo bo'lib, soatlab muhokama etishni yaxshi ko'rardik. Biz shogirdlar turli yoshdagi va taqdirimiz bir-birimiznikiga sira o'xshamaydigan turli qarashga mansub yigitlar edik, ammo hammamizni ustozga bo'lgan ehtirom birlashtirib turar va haftaning ma'lum kunida yig'ilib isqirt qahvaxona burchagida faqat talabalgagina xos bo'lgan qizg'in va hayosiz suhbatlar qurar, har birimiz o'zimizcha ustoz o'gitlarini sharhlar va shahar tun choponini kiyib, sekin mudray boshlaganda ertaga tongda ustozni yana bir bor ko'rish baxti mavjudligidan masrur bo'lib, bir fikrga kelolmay tarqalishardik. Qanchalik baqirib-chaqirmaylik va bir--birimizga fikrimizni uqtirishga arakat qilmaylik, baribir har kim o'z fikrida qolardi. Biz keyingi oylar ichida qahvaxonadagi saralangan ulfatlar suhbatlari faqat ustoz haqida boshlanib, u bilan tugar, ba'zida saralangan shogirdlar suhbatiga shu atrofda yashaydigan va pivo olishga alam haqi etmaganidan bizning ermagimizga aylangan tuzikkina nom chiqargan shoir ham kelib qo'shilar va biz olib bergan pivo haqqi u ham

ustozimizni ulug'lay boshlardi. U umrida ko'rmagan bo'lsa-da, bir kuni bizga ustoz haqidagi she'rini o'qib berdi. She'r chinakkam samimiyat bilan yozilgan, ustozni sal bo'lmasa millat tarbiyachisiga aylantirib qo'ygandi: she'rdagi ustozimizga ehtirom bizga azbaroyi xush yoqqanidan shoir paydo bo'lish bilan oldiga pivo qo'yar va o'sha she'rni o'qib berishni talab qilardik. Butun hayotidan va yozgan she'ridan topolmagan ma'nini shoir ana shu isqirt qahvaxonaga kelib turuvchi almoyi-aljoyi talabalar ichidan topganday, she'rni bor ovozda o'qir, ba'zan biz ham unga jo'r bo'lib quyardik.

Shoir she'rni o'qib bo'lgach, yutoqlab pivo simirar va yaqin kunlarda ustoz haqida doston yozajagini bildirar va yana pivo simirib, kechgacha bizning davramizni o'zi kabi tushkun va aftoda hol she'rlari bilan to'ldirib o'tirardi.

Endigina boshlangan yoz taftidan qochib qahvaxonaga bekinib olgan kunlarimizning birida bizda o'kishlar tugab, ta'til boshlangach (ta'til yaqin edi) ustozning o'zini shu davraga olib kelib, u bilan yaqinroq tanishib olsak--chi, degan fikr paydo bo'ldi. Ustozni taklif qilish bizning bahslarga yakun yasadi. Shu sababli bunga hamma rozi bo'ldi. Shoir ham bu fikrni qo'llab--quvvatladi: u shu bahonada zarur narsalarni yig'ib olmoqchi hamda «ul ulug' ustoz» bilan yaqindan tanishmoqchi edi. Tekin pivo sababmi yoki bizning suhbatlardagi ustozga bo'lgan ehtirommi u ham o'qituvchimizni ustoz deb atay boshlagan edi.

Ta'til boshlangach, talabalarga xos epchillik bilan tayyorgarlik boshlandi; qahvaxonaning burchagidagi kursi bittaga ko'paytirildi, qahvaxonadagilarning roziligi olindi. Barcha zarur narsalar hozirlab qo'yildi; biz ustozni hurmatiga yarasha biroz hasham bilan kutib olmoqchi edik. Ustozni topib kelish menga topshirildi: biz ustozning uyini bilmasligimizni va bu bilan hech achon qiziqmaganimizni shunda sezib qoldik. Ta'til bo'lgani uchun ustozni uydan boshqa joydan topib bo'lmasdi. Biz fakultet boshlig'i, o'qituvchilardan bir-bir ustozning yashash joyini so'rab chiqdik. Ular bu bilan hech qachon qiziqishmaganini va ustoz ular bilan hech qachon hamsuhbat bo'lmaganini aytishdi; biz bu holni o'zimizcha «u yolg'iz va mag'rur yashaydi» deb izohladik. Nihoyat, devonxonadagi titilib ketgan hujjatlar ichidan ustoz yashaydigan ko'cha va uyning manzilini topdik; hujjat hali shahar yangidan qurilmasdan oldin to'ldirilgan va biron marta qayta yangilanmagan edi. U shaharning shariy qismida eski ko'chalardan birida yashardi. Men ko'chada deyarli hech kimni uchratmadim. U tashlandiq kabi kimsasiz va biroz vahmli edi. Uylarining tomlari, devorlari qulab yotar, ko'chani anchalik rangdor qilib bezagan bo'lishmasin, go'yo hashamdor surat chetiga bexosdan rang chaplanib ketgani kabi men borayotgan xaroba ko'chani ikki chetini deyarli vayron qilingan uylar qurshab olgandi. Bu ko'chada ko'pdan buyon biror jinoyat yashamagani shundoq ko'rinib turardi. Ustozning uy raqamini izlab ko'chani oxiriga borib qoldim. Uylar tugagan joydan biroz vahmli, eski, har qanday tashrif bo'lsa qabul qila oladigan ulkan qabriston boshlanar va u ko'z ilg'amas masofaga cho'zilib ketgan edi. Men yana qaytadan ko'chani boshidan oxir axtarib chiqdim. Va har safar ko'cha meni qabristonga boshlab chiqardi. Men yana bir marta ko'chani tekshirib chiqmoqchi bo'ldim, biroq shunda qabriston tepasidagi raqamga birdan ko'zim tushib qoldi va ichimni bir qo'rqinchli tuyg'u kuydirib o'tdi; Qabriston tepasidagi raqam ustoz uyi ko'rsatilgan raqam edi. Avvaliga men hech narsani tushunmadim; so'ng ustozning ustixonidan iborat qaddi, badanidan anqib turuvchi zah qiyofasida aks etib turadigan hasad aralash kibr va faqat marumlarga xos sovuq ko'zlarini eslagach, nimadir butun shuurimni yorishtirib yubordi va anglagan narsamni

o'zim saldan so'ng ko'tarolmay qolishim mumkinligini sezgach, xuddi zulmat oralab yugurayotganday qulagan devorlar, xaroba uylar oralab jon holatda izimga ugurdim.

\* \* \*

Ertasiga ertalab oldimga saboqdoshlarim keldi. Mening kechadan buyon o'rnimdan turmaganimni, alahsirab chiqqanimni xonadoshimdan eshitilgan chog'i, mening qizargan ko'zlarimni, bir kechada ajin bosgan yuzimga qarashib, qattiq shamollagan deb o'ylashdi, aftidan, mehribonlik qila boshlashdi. Men esa kechadan buyon yuragimni ezg'ilab yotgan qurquv va savollarni ortiq ushlab turolmadim va gapirar ekanman, tovushim xuddi o'qituvchimizning tovushiga o'xshab ketganini sezib cho'chib tushdim;

Bizga o'lik ustozlik qilibdi. Biz o'likka muhabbat qo'yibmiz...

## QAYTISH

...Sen uyg'onganingda quyosh allaqachon hovli adog'idagi tutning shoxlari orasidan mo'ralab turar, faraxbaxsh, osuda yoz tongining musaffo havosi daraxtlar soyasini hali ham tark etmagan; sen kecha qanday etgan bo'lsang so'rida o'sha holatda yuz tuban tushib uxlab qolgan eding; sening butun vujuding kechagi ichkilikning asoratidan qaqshab og'rirdi, ko'ngling aynib, tomog'ing quruqshib qolgandi - sen kecha uyga qay holatda kelganingni ham yaxshi eslolmading, ulfatlaring seni mashinaga o'tirg'izib yuborishgandi. Esingda, faqat mashinaning tez yurganidan guvillagan tovushi hamda senga noma'lum bo'lgan qandaydir loysuvoq uylar va jinko'chalargina saqlanib qolgandi. Boshqasini eslolmasding. To'shak boitb ketib, elkalarining uyushib qolgandi. O'rningdan turib, xotining uch kuncha burun hali otasinikiga ketmasdan olib kelgan bir shisha qatiqni muzxona burchagidan topib olib ichganingdan keyin ko'ngling aynigani bir oz bosildi, o'zingni bardam seza boshlading.

Karaxtligingni yozish uchun yuvinib olmoqchi bo'lding, yarim echinib jo'mrakni buraganingda er ostidan uzoq guvillagan tovush eshitildi va bugun ham suv yo'qligini bilib asabiylashib tupurding. Aksiga olib paqirlar ham bo'm-bo'sh edi. So'rining bir chetiga o'tirib, quyosh nurlariga cho'milib yotgan osmonga qarading, osmon go'zal va sening xayollaring kabi bepoyon, xayol kabi jozibali edi; tut shoxlari orasidan osmon parcha-parchalarga bo'linib ko'rinaridi; tut shoxida ikkita chumchuq o'ynab yurar, bir-biriga qarab hadeb chirqillashardi. Shunda birdan senga qo'shni hovlilarni ham, mashinalar tinimsiz o'tib turadigan ko'chani ham qandaydir g'alati osoyishtalik qoplaganday tuyuldi. Sen birdan xushyor tortib, atrofga yaxshilab quloq solding, yo'q, rostdan ham atrofga g'ayritabiiy osoyishtalik cho'kkan edi. Bunday bo'lishi sira kutilmagan hol edi, chunki bugun dam olish kuni, qolaversa, shundoq eshikning tagidan o'tgan ko'cha shaharning eng gavjum ko'chalaridan biri edi. Sen so'rining chetiga suyanib, oraliq devordan boshchiqarib qo'shningning keng hovlsiga qarading, qo'shningning keng hovlisida hech kim yo'q, lekin oynavand ayvonning eshigi lang ochiq turardi - hovli o'rtasidagi torda choyshablar va kir-chir osilgan, so'riga xuddi mehmon kutishayotgandek atlas ko'rpachalarda joy solib, dasturxon tuzab qo'yilgan edi, biroq na qo'shningning o'zi, na hovlini har doim boshiga ko'tarib o'ynashadigan bolalarning birontasi ko'rinmasdi.

- Xey, Rashid og'a, - sen iloji boricha qo'shningga yoqadigan ohangda ismiga «og'a»

so'zini qo'shib chaqirding. Tamog'ing quruqshib qolganidan tovushing bo'g'ilib chiqdi - hovli etagidagi o'zini oftobga toblab yotgan it boshini ko'tarib, senga bir nazar tashladida, hech qanday havf sezmagach, yana o'sha holatda cho'zilib oldi. Hovlida hech kim yo'q edi - balki ichkarida kino-pino ko'rayotgandir, deb o'ylading hovlingga qaytib tusharkansan.

Sen boshqa iloji yo'qligidan paqirni olib, ko'cha boshidagi vodaprovodga qarab jo'nading, u erda hamisha suva bo'lardi, - suvni vaqti-vaqti bilan iqtisod qilishni o'ylovchilar negadir bu nuqtani unitib qo'yishgandi. Sen ko'chaga chiqib biroz engil tortding - har qalay, ko'chada mashinalar o'tib turardi, faqat ulardan chiqayotgan tovush odatdagidan pastroqdek edi, - balkim qulog'ing shang'illayotgani uchun tovushlar zo'rg'a eshitilayotgandir. Vodoprovodgacha ikki yuz qadamcha kelardi - hovliga qaraganda ko'cha issiq va havo birdan dim bo'la boshlagandi; yo'ldan hovur ko'tarilib, gup etib dumoqqa urar, yo'lka chetidagi ariqchadan balchiq xidi anqirdi - yoz quyoshi esa tobora jazava bilan shundoq shahar ustida issiqlik nog'orasini qoqib turardi; balkim shuning uchundir, ko'chada yo'lovchilar kam edi.

Dam olish kunlari aksariyat yo'l va yo'lak gavjum, sershovqin bo'lardi. Biroq bu narsalar sening diqqatingni unchalik tortmadi, boshing og'rib turganidan sen tezroq yuvinib olishni o'ylading.

Sen o'zingga qarab kelayotgan ikki yo'lovchi bilan vodaprovod oldida uchrashding; ular nimadir to'g'risida bahslashib kelishar, senga deyarli e'tibor berishmasdi va sen ham ularni odatdagi yo'lovchilar deb o'ylaganing uchun aqilli ko'z qiringni ham tashlamading, vodaprovodning to'g'risiga kelib, ular seni ko'rib qolishdi-yu, taqqa to'xtab, bir zum bezrayib qarab turidi. Sen oldiniga ularga qaramading ikkalasi o'zingga tikilib turganini sezgach, shunchaki nigoh tashlading, nigoh tashladinggu yuraging shuv etib ketdi - senga qarab turgan ikki yo'lovchining ham hozir to'kilib tushadigandek ko'zlari bejo va o'ta qiltiriq edilar - agar yurib kelayotganini ko'rmaganingda edi, bolalar ustixonga hazillashib shim-ko'ylak kiygizib, ko'chaga chiqarib qo'ygan deb o'ylashing mumkin edi, - ikkalasining yuzida ham xech qanday ifoda yo'q, bu yuzlar yozuvi o'chib ketgan qog'ozga yoki sovuq urgan anorga o'xshar, ko'zlari biroz cho'chib lekin hadiksirab boqib turardi; ular bir zum kalovlanib turgach, sening oldingdan tisarilibroq o'tib ketishdi; - ularning ikkalasi ham bir xil jigarrang ko'kragiga qandaydir raqam bosilgan yo'l-yo'l pijamalar kiyib olishgandi oldingdan o'tib ketisharkan, hovlida ulardan aynigan go'shtning hididay zax aralash qo'lansa murda xidi keldi-sen yo'lovchilarning izidan qaramoqchi eding, biroq negadir yuraging dov bermadi, seni qandaydir qurquv hissi qoplab olgan va bu qo'rquv tong shafag'iday yuragingning bir chetida sekin to'gilib kelardi jo'mrakni ochib, yuzingni suvga bosarkansan, oyoqlaring orasidjan birrov orqaga ko'z tashlashga ulgurding ikki yo'lovchi ham orqalariga qarab-qarab tez-tez ketib borishar va bir-biriga nimadir deb imo-ishora qilishardi.

Sen yo'lovchilarga boshqa qaramaslikka ahd qilding, paqir to'lgach izingga burilarkansan yo'lovchilarning muyulishdan burilib, chap ko'chaga kirib ketganini ko'rding... «Bular kim bo'ldi? - o'ylading sen ichingda, - nega bunday shubha bilan qarashdi».

Sen negadir, ikkalasining ham yuzini eslab qololmaganding. Asli ularning eslab qoladigan qiyofalari yo'q edi. Sen xayoling band etgan savollarni miyangdan bir silkib to'kib tashlaganday og'riyotgan karaxt boshingni sarak-sarak qilib qayta-qayta silkitding. Yuzingni yuvgach karaxtliging biroz tarqagan, o'zingni engil va sog'lom his eta boshlagan eding; ko'cha qiziyotgan bo'lsa ham, daraxtzor hovlilardan tong salqini ufurardi.

Sen xuddi boyagi yo'lovchilarga o'xshagan uchinchi yo'lovchi bilan qoq ostonada - boya «Rashid og'a» deb chaqirgan hovlidan chiqib kelayotganda duch kelding; bunisining ham



ko'zlari sovuq, yuzi ko'ngilni sust qiladigan darajada ko'kazak, kiyimi ham xuddi oldingi yo'lovchilarnikiday edi. U ham dastavval shoshib qoldi, senga bosh oyoq razm solib chiqqach, darrov iziga qaytib eshikni sharaqlatib yopib oldi. Bunisi yoshroq, lekin bu yo'lovchining ham eslab qoladigan qiyofasi yo'q edi, toki sen o'z hovlingga kirib ketmaguningcha, eshik qayta ochilmadi. Vodoprovod oldidagi yo'lovchilarning sen boshim shishib ketganidan menga shunday tuyulgan bo'lsa kerak, deb o'ylaganding, biroq ikkinchi bor duch kelgach, sen tashvishlana boshlading. Hovlingga kira solib, eshikni tambalab qo'yding, sen o'zing uyda bo'lganingda eshikni hech qachon tambalamasding.

Paqirni bir chetga qo'yib, so'ridan osilib, yana qo'shni hovliga sekin uzalib qarading, hovlida it hali ham o'sha erda cho'zilib yotar, sahnda daraxt barglari orasidan sirg'alib o'tgan quyosh shu'lalari o'noqlar, so'rida esa uch kishi gaplashib o'tirar va bir-biriga nelardir deb mulozamat qilishardi: sen qo'rquvdan endi batamom serrayib qolding; so'ridagi uchalasi ham bir xil kiyinishgan edi, uchalasining ham yuzi sovuq, ifodasiz, go'yo yuzlari o'rnida bir parcha ko'kish yalov xilpirab turganday edi. qoshsiz ko'zlari bir-biriga chaqchayib tikilardi.

Oyoqlaring bo'shashib, turgan joyingga o'tirib olding. «Bakim menga shunday tuyulayotgandir? - o'ylading sen sarosima aralash. Yo ichimlikning ta'sirimikan?!» Sening karaxtliging birdan tarqadi-ortiq boshing ham og'rimay qo'ydi. Boshing-ko'zingni yaxshilab yuvib olgach artindingda, qaznoqdan narvon keltirib, yana qo'shni hovliga qo'rqa-pisa ko'z tashlading yo'q rostdan ham uch kishi so'rida hamon gaplashib o'tirar, to'g'rirog'i, ko'm-ko'k qonsiz lablarini ochib yumishardi, - lablari ochilganda qopqora g'orday tishsiz og'izlari ko'rinib ketardi. Endi hech qanday shbhaga o'rin yo'q edi: yo senga, yoki ko'zlaringga bir gap bo'lgandi. Shunda xotining va bolalaringni otasinikiga yuborganingdan beri birinchi marta xayxotday kimsasiz hovlida yolg'iz ekaningni anglading va bundan birinchi marta vahimaga tushding. Xotiningni balkim otasinikiga yuborish kerakmasmidi? Balkim tabiblar ogoh etganiday seni ichimlik shu holga solgan va ko'z oldingga shuning uchun allambalolar ko'rinayotgandir?! Karaxtlikdan asar ham qolmagan, kechadan buyon shuuringni qoplab turgan xiragina tuman ham tarqab ketgandi. Ozqozoningni bo'm-bo'sh bo'lishiga qaramasdan hech narsa tortinging kelmadi. Sen uyga kirib, o'zingni to'shakka tashlading va o'zingga yo'ldosh bo'lib turish uchun radioning tugmachasini bosding, undan yaqin o'tmishda qatlaom etilgan odamlarning oqlangani va ularning o'limi to'g'risida eshittirish borardi, biroq sen maxsus xabarni oxirigacha eshitging kelmadi. Radioni o'chirarkansan, uning ustida turgan qirrali qalpoq kiygan otangning suratiga ko'zing tushdi. Sen hech qachon otangni ko'rmaganding. Lekin otangni olib ketgan kechasidan buyon baribir qaytadi deb eshikni doim ochiq qo'yadigan onang hatto so'nggi pallada ham «U qaytadi... Men kutolmadim» degandi. Suratdan ko'zingni olib derazaga qarading. Shu zahoti o'rningdan o'qdek irg'ib turding - nazaringda derazadan kimdir seni kuzatib turganga o'xshardi, va kuzatayotgan, shubhasiz, boyagi qoshsiz odamlardan biri edi. Sen derazaga tikilgansa bir muddat qotib qolding; yo'q, derazada oftobning qiyo nurlaridan hosil bo'lgan rang-barang jilvalar akslanardi, so'ng ichkariga tirqirab to'kilardi. Sen bir ichki sezgi bilan yugurib hovliga chiqding; nazaringda kimdir eshikdan sirg'alib chiqib ketganga o'xshadi. Bu holdan qaltirab ketding; eshik tambalanganicha turar, lekin u xuddi sim-simday ochilib yopilganini sen aniq ko'rgan eding. Sen madorsizlanib qolgan oyoqlaringni zo'rg'a ko'tarib hovli eshigigacha bording - temir surguch har qanday zarbaga dosh beroladigan kelbatda sodiq qulday sal egilib turardi. Eshik ochilgan bo'lishi sira mumkin emas edi. Tashqaridan esa vizillab o'tayotgan mashinalarning tovushi elas-elas eshitalardi. Temir surguchni ochib tashqariga qarash-qaramaslikni bilolmay taraddudlanib qolding va

tavakkal qilib ko'chaga qulfnig tirqishidan mo'ralading va ranging oqarib kketib, devorga suyanib qolding, eshikdan o'n besh qadamcha narida boya sen ko'chada ko'rgan ikki yo'lovchi turar, ularning kiyimidan va sumbatidan tanib qolgan eding va ular egniga jigarrang kostyum kiygan, kiygan qirrador qalpog'iga qizil bog'ich tikilgan xuddi o'zlaridek qoshsiz, yuzi surp kamarli kishiga sening uyingni ko'rsatib nimadir deyishar va qo'llarini silkib-silkib qo'yishardi; kamarli kishining quroli borligi aniq edi - ikki yo'lovchi nimanidir havoda chizib, sening hovlingga ishora qilgach, u quroli osilgan g'ilofni ushlab-ushtab qo'yardi - endi hech qanday shubhaga o'rin qolmagandi; Sen kechasi uxlaganda shaharda nimadir sodir bo'lgan, sen esa g'aflatda qolgan eding. Ko'z oldingda sodir bo'layotgan bu voqealar yurakni siqadigan darajada g'ayritabiiy edi - na o'ng, na so'l tarafdagi qo'shnilarning hatto hamisha baqirib-chaqirishadigan bolalarning ham tovushi eshitilmasdi - Nega sen ilgariroq buni sezmaganingga hayron qolding - aloha, daraxtma-daraxt uchib yurgan chumchuqlar ham ehtiyotkorlik bilan chug'urlashardi.

Daf'atan nima qilish kerakligini bilolmay kalovlanib turding; tashqaridagilar nimagadir tayoyrlanishar, kamarli kishining yonida miltiq tutgan uchta askar ham paydo bo'lgan kamarli kishi ularga hovlini ko'rsatib nimadir buyurardi.

Nahotki ular sening hovlingni ko'rsatishayotgan bo'lsa?! Hozir, shu daqiqadayoq nimadir qaror qilishing kerak; balkim alaxsirayotgandirsan - biroq bu mumkin emas, sen xushyor va uyg'oq ekanligingni juda yaxshi anglarding; balkim maxsus xizmatdagilar shunday kiyimga o'tgandir? Har narsa bo'lishi mumkin, shu daqiqada nimadir qilishi kerak, qandaydir favqulodda chora o'ylab topishing kerak. Keyin kechikishing mumkin. Sen uyga yugurib kirding, bu fikringdan hatto quvonib ham ketding - nega oldinroq shu narsa xayolingga kelmadiykin?! Sen dahlizga kirib, boshini qorniga qo'yib yotgan mushukday mung'ayib turgan telefonga yopishding va uyi o'zingdan bir ko'cha narida bo'lgan hamda yordamga etib kelishiga ko'zing etgan barvasta sinfdoshingning raqamini terding. Shoshib qolganingdan ikki-uch marta chalkashib ketding, yo oxirgi, yoki o'rtadagi raqamni tashlab ketib terarding; nihoyat tushdi, shekilli, narigi tomondan, albatta sinfdoshingning dahlizida telefon jiringlayotganini bildiruvchi muddat-muddati bilan bo'g'iq g'o'ng'illash eshitilib, engil nafas olding. Telefon uzoq jiringladi - sen suyagi og'ir sinfdoshing, ataylab uzoq maxtal qilib so'ng olishini va keyin «birinchi qo'ng'iroqdayoq oldim» deb turib olishini, o'zi esa kulib yubormaslik uchun tishini-tishiga bosib tirjayib turishini xayolingga keltirib, ko'ngling xufton bo'lib turganiga qaramay tirjayib qo'yding. Bu dunyoni suv bossa to'pig'iga kelmaydigan sinfdoshing senga boshqalardan ko'ra ko'proq yoqar va senga o'zini yaqin tutardi; garchi u biroz tanbal bo'lsayam zarur paytda do'sti uchun o'zini tomdan tashlashga tayyor edi. Balkim shuning uchun aynan unga telefon qilgandirsan? Telefon uzoq g'o'ng'illashdan so'ng sharaqlab ko'tarildi va do'stingnikiga mutlaqo o'xshamagan ancha qo'pol va bo'g'iq ovoz eshitildi. «Tergovchi eshitadi...» Sen quloqlaringga ishonmayotgandek avval telefon dastasiga tikilib qo'yding, so'ng xuddi ovoz egasini quloqlaring bilan ko'rmoqchidek butun vujudingni diqqatga aylantirib, bu quruq va dag'al ovozga quloq solding.

- Kim?! Bu kim?! - so'rading sen g'alati bir hisdan qaltirab ketib.

- «Tergovchi, nima gapingiz bor, gaping»». Buyrug'omuz ohangda sim tizimchalari orqali oqib kelgan tovush sening butun tanangni nimtalab tashladi, go'yo o'sha narigi uchdan bir tomchi zahar oqib kelib, qon tomirlaringga tushgan-u, hamma narsani alg'ov-darg'ov qilib yuborganday edi - yuraging shuv etib ketdi - bu hozirgina ko'zlaring bilan ko'rgan manzaradan ko'ra dahshatliroq edi va sen endi tush ko'rmayotganingga, uyg'oq ekanligingga mutlaqo ishongan, ko'rganlaring eshitganlaring boshingdan kechirayotgan voqealar ekanligiga endi zarracha shubha qilmasding. Biroq nahotki kechagina quyosh botishidan sal burun ulfatlaring bilan mayxo'rlik uchun xiyobonning xilvat burchagiga

kirmaslaringdan oldin boshqacha bo'lgan dunyo bir kechada shunchalar o'zgargan bo'lsa?!

Sen endi xayolingga kelgan yaqinlaring va tanishlaringning raqamlarini terar va o'sha bir xil bo'g'liq sur tovushda «Tergovchi eshitadi», «Tergovchi eshitadi», «Tergovchi eshitadi» degan bir xil javobni olarding. Sen endi dahshatga tushding - yuz bergan hodisa shunday edi: yo biron ruhiy kasalga yo'liqqan, yo dunyo rostdan ham bir kechada boshqa, vahimali, sarta'qib, g'ayrioddiy qiyofaga kirgan va sen bilgan, sen ko'rgan dunyoning ismi o'zgargan, yoki qandaydir qiyomavt bo'lganu sen qaysidir hikoyada o'qiganingdek o'zga dunyoga tushib qolgansan... O, qandayin o'yin bu? O qandayin mash'um o'yin bu? Sen boshingni changallab o'tirib qolding. Nima bo'ldi unga, u kim? Kim edi? qani u bilan bo'lgan, sevgan odamlar? U sevgan ovozlari qani? U qaysi gunohi uchun bu jazoga mustahih etildi?

Hovlida ba'zi-ba'zida shitir-shitir qadam tovushlari eshitalayotganday bo'lardi - uyda ham qandaydir sharpalar seni ta'qib qilayotganga o'xshardi. Endi telefonda ham, qo'shnilardan ham, umid yo'q edi; Nima yuz berdi?! Nega dunyo shunchalik o'zgaribdi-yu sen bexabar qolibsang? Nega yangi dunyo bu qadar alog'-chalog', xatarli, qandaydir mashxar dunyosida yurganga o'xshaydi odam? Yoki narigi dunyoga borib qoldimi? Kim uning bu savollariga javob bera oladi? Hech kim! Yolg'iz umid o'zidan! O'zinggina bu mudhish manzaralarning tagiga etishing mumkin; boshqa xech kim! Hech kim! Sen «nima qilish kerakligini o'ylay boshlading, yuraging xuddi sehrlangan daraxtday lahza sayin xavotir va gumon mevalari tugar, bu mevalar butun vujudingga yopishib olgandi, birdan hayolingga kelgan fikrdan shuuring yarq etib yorishib ketdi. Kechagi xiyobonga boradi, balkim, dam olish kuni bo'lgani uchun bugun do'stlaringni ko'pi o'sha erdadir? Ular bilan kengashib o'ziga nima bo'lganini maslahatlashib oladi. Bu fikr senga biroz taskin berdi, sen go'yo bu uyga qaytib kirmaydigandek eshiklarni qulflading; Soqolingni olib o'tirmading - bu ko'ngilga sig'mas, bundan tashqari sening yuraging xapriqar, vujudingga qandaydir qo'rqinchli hayvonlar ichida yolg'iz qolganday bir zaqqum vahima o'rmalab kirgandi. Hovli eshigingni oldiga borgach, har ehtimolga qarshi tirqishdan tashqariga yana ko'z yugurtirding: uch askar bilan qamarli kishi - ularda ham deyarli qiyofa yo'q edi - to'g'ri sening eshigingga qarab kelishar, ikki yo'lovchi qaygadir g'oyib bo'lgan edi. Sen bir muddat taysallanding, agar eshikdan chiqsang shartta ushlab olishadi, ular vazohatlaridan aynan shuning uchun kelishayotgan, agar yana bir necha daqiqa hovlida qolsang qo'lga tushirishlari aniq!

Balkim qo'shnilaringni shu tariqa imi-jimida olib ketishgandir? O'ylab o'tirmay orqa devorga qarab yugurding, eshik uch marta qattiq urilganda sen devordan oshib tushayotgan eding. Hovlining bu tomoni serdaraxt jin ko'cha edi. Ko'chada hech kim yo'q, daraxtlar qilt etmas, boshqa joylarga qaraganda bu er salqinroq va xilvatroq edi. Sen daraxtlar oralab narigi boshidagi ochiq maydonga qarab yo'l olding - u er hamisha gavjum bo'lar, ayniqsa, dam olish kunlari yosh yalangga to'lib ketar, u erda odamlar orasida bo'lish xavfsizroq va xatarsizroq edi. Sen maydon tomon yugurib borarding. Yoningdan zuvillab izma-iz ikkita mashina o'tib ketdi, lekin mashinalarning haydovchilarini ko'rishga ulgurmading lip etib o'tib ketdi - agar yaxshilab razm solganingda, unda mashinalarni ham qoshsiz odamlar boshqarib borayotganini ko'rarding, va bundan yuz chandon vahimaga tusharding, ehtimol.

Sen ochiq maydonga chiqqaningda, rostdan ham bu er gavjum, odamlar bu salqin maskanda shunchaki kezib yurishar, favvora atrofidagi o'rindiqda yastanib o'tirishar, daraxtlar tagida guruh-guruh bo'lib suhbat qurishar, muzqaymoq va ichimliklar do'konida oldida uzun bo'lib navbatda turishar, maydonning qoq o'rtasida jangovor orkestr jaranglardi; u qandaydir tantanali kuy chalardi; bu kuy odamning ham g'ashiga tegar,

ham negadir kishini jiddiy qilib qo'yardi, to'g'rirog'i trubalar va nog'oralar sasi odam eshitib yurmagan bu kuydagi tajovuzkorona ohangdan esankirab qolishi mumkin edi. Sen daraxtlar ichidan oralab, ichimliklar do'koni tarafga o'tmoqchi eding, tez yurganingdan va kechagi mayxo'rlikning ta'sirida juda chanqab ketganding, baxtga qarshi kun ham tobora qizib borardi; qo'rquvdan va shoshib yurganingdan ko'ylaging badaningga chippa yopishib qolgandi, - lekin shu daf'a maydonda o'zingga qarab kelayotgan yigit bilan qizni ko'rib, shamday qotib qolding, so'ng shamday eriy boshlading; ular senga yaqin kelib qolgan, bir-birini yalab yulqishayotganidan atroflariga deyarli qarashmasdi ham. qiz yo'l-yo'l erkakcha ko'ylak kiyib olgandi u haddan tashari go'zalga o'xshar, lekin qoshsiz yuzi kishini vahimaga soladigan darajada oppoq, deyarli yuz emas, bosh o'rnida rangsiz tug' xilpirab turgandek edi. Yigit ham juda yosh, ko'kragiga yaltiroq nishona qadalgan, lekin arvohdan sharpasiz va yuzi o'ta taftsiz edi. Sen shundan so'nggiga maydondagilarning yuziga va kiyimlariga tez-tez razm solib chiqding - go'yo bir bichimdan chiqishganday, suvning tagida yotishgandek ko'kazak yuzlar bir-biriga o'xshar, hammasi qoshsiz va baliqday chaqchaygan odamlar edi. Boya hovli yonida ko'rgan ikki yo'lovchi ham maydonda kezib yurishar, sen ularni jussalari va kiyimidan tanib olganding, yuzlariga qarab, maydondagilarni bir-biridan ajratish qiyin edi.

Ular senga orqa o'girib turgan qandaydir ayolga xushomad qilishardi, aftidan, ha deb kulishardi.

O'zingni daraxtlar panasiga olarkansan seni haddan tashqari vahima qoplab oldi. Bu nima o'zi? Ro'yomi? Tushmi? Ertakmi? Yo qandaydir qo'rqinchli suratmi? Nima bo'ldi unga? Nega bu holatga tushdi? Anovilar kim? Bu savollarning har biri seni och bo'riday kemirardi. Nahotki go'yo vaqt ham, shamol ham, va yuraging ham to'xtab qolganday edi.

Nahotki butun shaharni badanidan zax va o'lik hidi kelayotgan odamlar zabt etib olgan bo'lsa? Nahotki shahar shu arvoq sifat odamlar tasarrufiga o'tgan bo'lsa?

Maydon chetidagi bayroq osilgan muxtasam binoda tenglik va insonparvarlik hamda fan taraqqiyot to'g'risida qandaydir dav'atkor shoirlar osilgandi, go'yo bu shiordagi suvlarga yomg'irning ham g'ashi kelganday qizil alvonni oqqa bo'yab tashlagandi. Maydondagi odamlarning kiyimi ham allanechuk g'alati edi - ko'pining egnida eskirib ketgan nimdosh mundir osilgan, ayollar esa bundan qirq-ellik yil burungi andozada odmigina kiyinishgan, lekin hammasining ko'zlarida sarosima, tahlika va gumon aralash bir qo'rquv qotib qolgan, go'yo bu qo'rquv ularning butun badanidan ufurayotganday edi.

Balkim unga shunday tuyulgandir? Balkim o'zi vahimaga tushgani uchun maydondagilar ham qo'rqayotgandek bo'lib ko'ringandir. Bu g'aroyib va yolg'onchi dunyoda har narsa bo'lishi mumkin. Sen daraxtzorning quyuroq joyiga kirib, o'zingni biroz bosib olmoqchi, maydondagilarni yaxshilab zimdan kuzatmoqchi eding, biroq shundoq orqangdan, daraxtlar ichidan mozoriston qarg'asining qag'illashiga o'xshash g'o'ng'illash eshitildi, sen o'zingni daraxt shoxlari orasiga olib, darrov tovush kelgan tarafga o'girilding. Sen kuo'may qolganding, sen kirib o'tirmoqchi bo'lgan daraxtzor chetiga keng suyanchiqli o'tirg'ich qo'yilgan va u erda maydondagilarga qaraganda biroz zamonaviyroq kiyingan, biri oliftalarcha hasa tutgan ikki kishi gaplashib o'tirishar. Senga tomon orqa o'girib o'tirganlari uchun seni ko'rishmagan edi, vaholanki, oralaring ikki qadam ham chiqmasdi. Ular qandaydir she'riy unsurlar haqida gaplashayotgan edi. Goh-gohida kimlarnidir g'azab bilan so'kishar, qoralashardi; Sen ikkala suhbatdoshning achchiqlanganini quloqlari dildirab ketganidan bilib qolarding.

Bu ikkala g'alati odamning gap so'zidan so'ng sen nimanidir g'ira-shira anglayotganga

o'xsharding. Anglagan narsalaringdan shunchalar qo'rqib ketdingki, bo'g'zingdan nimadir o'tib ketdi-da, butun ichingni uydiring o'tib, oyog'ingdan chiqib ketdi.

Nahotki, butun shaharni o'liklar bosib olgan bo'lsa?! Bu yuzsizlar guruhi nega buncha shovqin-suron qilishayotgani, telefon, qo'shni hovlidagi sharpalarning sababi buyoqda ekanda? Sen nimanidir anglaganla o'xsharding va endi maydondagilarning kiyimidan, yuzidan, badanlaridan ufurayotgan hiddan hech bir ajablanmasding ham.

Bu erdan tezroq ketish kerak, hozir seni shu qiziqtirardi, xolos. Bu erda - o'lik mahbuslar saltanatida qolib bo'lmasligini yaxshi anglarding; shaharda qolish lahza sayin xatarlashib borardi. Ketish, xotiningni va bolalaringni bu havfdan ogoh qilishing kerak edi. Toki ular bu dahshatni ko'rmasin.

Maydonda orkestrning jangovor kuyi jaranglar, qandaydir harbiy qism tantana bilan o'tib borar, ular saf tortib yurishlariga qarab, odamning eti jimirlashib ketardi. Go'yo ular biron harbiy maqsadda emas, aynan, odamlarni vahimaga solish uchun saf tortib o'tishayotgandek edi, atrofdagi gulzorlarda, soya salqin joylarda yuzida qoni yo'q, ko'zlari o't bo'lib chaqnagan, bo'yinlari darroz odamlar butun maydon bo'ylab kezib yurishardi. Ularning ko'zlarida umrlari kabi shubha va nafrat yonib turar, hech narsadan ajablanmay qo'ygan qorachiqlarida boshqa bir ifodani qish qiyin edi. Ularning o'zlarini tutishlari avaxtati-harakatlari osmonda biron o'laksa izlab aylanib yurgan och quzg'unga o'xshar, faqat ularning qanotlari yo'q edi. Ba'zan bu ko'zlarda hayotning chigal kalavalari sochilib yotganini, go'yo odam na tuproqdan, na suvdan emas, faqat g'azab va nafratdan yaralganday, ularning butun vujudida alamzadalik aralash xudbinlik va johillik furib turganini, sinchiklab qaragan odam qorachiqlarining to'rida shamlari uchib yotgan abadiyat mehrobini ko'rish mumkin edi va bular hammasi ularga nisbatan kishida hayrixohlikni emas, qandaydir qo'rquv va vahimani uyg'otar, ularning ko'zlaridagi ana shu osoyishtalik va maxtallikka o'xshash ko'nikma ularni qanday qilib bu aql va tafakkurning xarobasi kabi na biron reja, na biron maqsad bilan emas, balki pala-partish qurib tashlangan, binolari qadim davrlardagi - darvoqe unchalik ham qadim ham emas - avaxtalardan andoza olib qurilgan shaharga nega to'satdan bildirmasdan bostirib kelishganini va hech bir qarshiliksiz butun shaharni egallashganini fosh qilib turar, ana shu fosh qilishning o'ziyoq vahimali va dahshat edi - axir ularning zahil, chandiqli yuzlari odamni bir zum esankiratib qo'yar, va e'tiqod, sadoqat, ezgulik degan, odam bir umr sig'inib kelgan o'tishga arziydigan tuyg'ular aslida puch narsadan iborat ekanliklarini ular o'zlarining qismatlarida va maydonda, shahar ko'chalarida besaru-poy izg'ib yurishlari bilan isbotlab turganday bo'lishardi; ularning barini sen daraxt tagiga cho'kkan ko'yi maydondagilarni kuzatib turib o'ylagan eding va yaqinginada sen o'zing ishlaydigan ro'znomada bu o'lik mahbuslar haqida shunday fikrlarni yozgan va maqolang shovshuvlarga sabab bo'lgandi. O'sha kuni ularga qarab turib yana nelarni o'ylaganding? Sening qalbingda qanday gumon ayiqlari o'kirdi, bu menga qarong'u. Menga ayoni faqat huki, qiyofasiz, va o'liknusxa odamlar shaharni o'zlariniki qilib olganlariga hech qanday shubha yo'q edi. qachon?! qay mahalda?! Faqat mana shu narsa jumboq. Nahotki, bir kechada shunchalik o'zgarsa?? Yoki sen gemeolitlarday oylab uxlab qoldingmikan?! Bo'lishi mumkin. Unda xotini bir haftadan so'ng qaytib kelaman degandi, nega ular yo'q? Yoxut bu o'lik shotirlar qo'shnilari kabi bolalari va xotinini olib ketishdimikan? qayga? Nega?

Sen yana savollar tig'i parroni ostida qolganding, nima qilib bo'lsa ham bu erdan ketish kerakligi damo-dam butun hayolingni band etib olardi. Biroq qaerga?! Balkim bular butun dunyoni egallashgandir?

Sening ko'zing tinib, boshing aylana boshlagandi, sen hatto o'rningdan irg'ib turganingni, daraxt shohi chap yuzingni tilib o'tganini ham bilmay qolding,

extiyotkorlikni ham unutib qo'yganding. Xayoling parishonligidan yuraging g'azab o'chog'iga aylangandi. Ko'nglingni qoplagan mash'um fikrlar, vasvasalar og'ushida yo'lakni telba kabi kesib o'tayotganingni ancha kech - yoningdan o'ngingdan so'ngingdan qonsiz, sovuq yuzlar qahr bilan eb qo'yguday tikilayotganini aloxa sezgach anglading, yuzlari rangsiz, tug' kabi xilpiragan odamlar o'zlarini chetga olishar, izingdan baloni ko'rganday tikilib qolishar, qiy-chuv ko'tarib, kimlarnidir yordamga chaqirishardi; Xushing o'ziga kelganida maydonning o'rtasiga borib qolganding - endi orqaga qaytib bo'lmasdi; orqada senga chaqchaygan ko'zlarini tikib turgan bir to'p olomon turardi, oldinda ham bir guruh qiyofasiz odamlar senga serrayib qarab turishardi, faqat o'ng tarafdagi anhora qurilgan yolg'izoyoq ko'prikkina bo'sh edi; Sen bularning hammasini juda tezlikda hisob-kitob qilib chiqding, o'zingga qarab turganlarni hurkitgancha, oldinga qarab intilmoqda eding, buraqam - odamlar qurozsiz bo'lsalar o'zingdan cho'chishini bilib qolgan eding: Biroq shu payt butun maydonni larzaga solgan buyruq yangradi.

- Ushlanglar! Tiriklay ushlanglar.

Sen tovush kelgan tomonga qaradinggu old tarafdin o'zingga qarab yugurib kelayotgan uchta askarni va boya uying oldida ko'rgan kamarli kishini ko'rding. Orqada ham seni qurolli kishilar qurshab olgandi - faqat bitta yo'l, ko'prik ochiq edi; Sen ko'prikdan o'tsang bo'ldi, naryog'i qarovsiz, serdaraxt xiyobonga chiqib olishingni bilarding, balki qutulib ham ketarsan? Sen ko'prikkina qarab yugurding. Oyoqlaring shu darajada chaqqon bo'lib qoldiki, o'zingda qo'rquv aralash ellik gazcha keladigan anhordan ham sakrab o'ta oladigan kuch sezding. Ko'prik zinalaridan ikki sakrab chiqib olding va ichki sezgi bilan ovchilar orasiga tushib qolgan o'ng kabi birdan o'zingni maydondagi olomon quvlab jo'naganini bilding, orqangdan minglab otlar quvlab kelayotgandek quloqni qomatga keltiradigan dupur-dupur va ayolu-erkaklarning chinqiriqlari eshitila boshladi - agar izingdagilar ta'qibni shu tariqa davom ettirsa tezda ko'prikkina kelib tiqilib qolishlari va bir-birini bosib yanchib tashlashlarini bilarding, bu senga juda qo'l kelardi - toki ta'qibchilar o'zlarini o'nglab olgunlaricha tashlandiq xiyobonga borib qolishing, undan soylik bo'ylab yashirib shahardan chiqib ketishing mumkin edi - biroq birdan orqangdagi shovqin bir zum tingandek bo'ldi va naq oyog'ing ostida nimadir portlaganday gumburladi, vizillab kelib chap soningga nimadir jozillab yopishdi va suyaging bo'lak-bo'lak bo'lib sharaqlab to'kilib tushganday ko'z olding tinib ketdi, sen so'nggi pillapoyaga qoqilib ag'nab tushding, ag'narkansan izingdan quvlab kelayotgan johil, g'azabnok olomonni va qo'lida qurol ushlagan, hozirgina senga o'q uzgan odamni ko'rishga ulgurding, u odam qirrador qalpoq kiygan va sening uyingda turgan otangning suratidagi qiyofaga juda o'xshardi, ehtimol o'shadir, ehtimol qaytgandir?» deb o'ylading, ammo boshqasini anglay olmading va chakkang zarb bilan ko'prik panjarasiga urildi; So'ng hammasi tinib qaergadir g'oyib bo'lgandek tuyuldi, toshib ko'pirib chiqqan suv sehrlil kuch ta'sirida yana o'z o'rasiga qaytib singib ketgani kabi, sen bilgan osmon, er, daraxtlar, ranglar va butun dunyo bir-biriga aralashib ketib, kichik bir qizg'ish, ushlab bo'lmaydigan xira nuqtaga aylandi - sen hushingdan ketarkansan ustingga etib kelgan qo'shsiz va yuzsiz chaqchaygan odamlarni, ularning jahldan o'zlarini yo'qotib qo'ygandek shovqin suron qilishayotganini, seni ko'rsatib nelardir deb kulishayotganini, kamarli kishining baqirganini, olomonni bir chetga haydayotganini, zambilga solib qaygadir ko'tarib borishayotganini, atrofingda arvo'h sifat olomon tantanavor va zafarli qiyqirishayotganini, kimnidir tinmay olqishlayotganini, va maydonda orkestr hamon tajovuzkor va jangovor kuy chalayotganini olomonning shovqin-suroni va qiyqirig'i tobora kuchayib borayotganini, go'yo qachonlardir qo'rganu, endi esingdan chiqib ketgan va xotirlash mushkul bo'lgan manzaraday elas-elas ilg'ab qolding.

So'ng hayolingning bir chetida serfayz yoz oqshomidagi to'lin oy paydo bo'ldi va bir

necha daqiqa shuuringni yoritib yubordi, sen bu oy qurmagur bunchalar chiroyli, orombaxsh nur taratmasa deb o'ylading, so'nggi daqiqalarda esa ko'ksingga javonda turgan kostyumimni aqalli bir marta ham kiyishga ulgurmadima, degan bir josusona afsus oralab o'tdi va sen boshqa bu narsalar haqida o'ylamaslik uchun osmon aks etib turgan ko'zlaringni yumib olding.

Olomon shodon qiyqirgancha seni qaygadir ko'tarib borishardi, qaerdadir radio karnaydan fanning so'nggi yutuqlari va bayram oldi chaqiriqlari o'qilardi, maydonda esa orkestr safga chorlab hamon tantanavor kuy chalardi...

## TOBUT

Noma'lum sabablarga ko'ra o'lim ko'paygan chekka muzofotdagi olis shaharga ketayotgan tekshiruv guruhiga nega aynan meni qo'shib qo'yishdi, me'morchilikning o'latga qanday aloqasi bor (bizga hali sira aniqlanmagan o'lat deb tushuntirishdi) to'g'risi, hozirgacha aqlim etmaydi. Vaholanki, me'morchilikda ham shunchaki havaskor darajasida edim, bu sohada ishlay boshlaganimga uch yildan oshgan bo'lsa-da, hali bironta loyihamni qabul qilishmagandi, kun uzog'i ishimizga hech bir bog'liq bo'lmagan chizmalar bilan mashg'ul bo'lardik, biz chizayotgan loyihalarning hech kimga kerakgi yo'qligini o'zimiz ham bilar, biroq boshliqlar tegirmonida aylanib, tushib keladigan va tez muddat ichida bajarishimiz zarurligi ta'kidlangan, bir chekkada pora-pora qilingan yalovday ilova turgan qog'ozlarni izma-iz qabul qilaverar, talabalik yillarimning orzusi bo'lgan shaharga ko'rk va ulug'vorlik bag'ishlaydigan jimjimador va serhasham binoning loyihasini men faqat hayoldagina chizib yurardim. Avvaliga guruhga tasodifan qo'shishayapti, bu erda qandaydir anglashilmovchilik bor, deb o'yladim, ijroqo'mda o'lim sabablari har tomonlama o'rganishga muhtoj, xususan, binolarning jug'rofiy joylashishidan, ob-havoga chidamliligigacha yaxshilab tekshirib ko'rish zarurligini aytishganda ham men bu erda bizning sohaga bog'liq biron narsani ko'rmagandim. «Tajribali me'morlardan jo'nating» degan taklifga, xo'jako'rsinga meni jo'natishayotganini sezib turdim. Buyruqni tutqazishgandan so'ng noiloj jo'nashga majbur bo'ldim.

- Shahar qurilganiga unchalik ko'p bo'lgani yo'q. Uning o'rnida oldin yovvoyi sahro bor edi, biz uni bo'ysundirdik. Va boshqa shaharlar bilan raqobat qila oladigan go'zal makon qurdik. Matbuotda o'qigan bo'lsalaringiz kerak, biz haqimizda rosa yozishdi, - dedi bizni kutib olgan shahar boshlig'i. - Odamlarimiz to'q va farovon yashayotgandi; hatto sayyohlar xorijdan ataylab binolarimizni tamosha qilish uchun kelishardi. Ularni ham shahrimiz lol qoldirganiga shubham yo'q. Hamma balo besh oycha burun boshlandi. Odamlar ishlab turgan yoki uxlab yotgan joylarida, ba'zan suhbatlashib turib to'satdan jon taslim qilishayapti. Avvaliga biz bular hammasi shunchaki tasodifiy deb o'ylagandik. Biroq o'lim tobora ko'payavergach, tashvishga tushib qoldik. Maxsus emlash o'tkazdik, voqeaning tagiga etish uchun barcha kasalxonalarimizni nazorat ostiga oldik, bir necha marta uylarni yoppasiga ko'rikdan o'tkazdik, ammo natija bo'lmadi - o'lim to'xtamadi. Aksincha, uylar asta-sekin bo'shab qolayapti. Odamlarni vahimaga tushirmaslik uchun bo'shagan uylarga yangi odamlarni ko'chirib olib keldik, baribir foydasi bo'lmadi. O'lim yangi ko'chib kelganlarni ham ayamayapti. Markazdan ham, muzofotdan ham maslahatchilar chaqirib bir necha marta tibbiyot kengashlari o'tkazdik. Biroq ular ham elka qisishdan nariga o'tishmadi. Hozir o'lim deyarli har bir binoda o'zining asoratini

qoldirgan. O'zimizning vrachlar hech qanday xulosaga kelishgani yo'q, ular yuqumli kasallikdan darak beradigan biron alomat topishmadi. Butun umid hozircha sizlardan...

- Bunday hodisa Faranglarda ham bir paytlar bo'lgan, - dedi guruh rahbari qilib jo'natilgan professor shahar boshlig'ining tuguntirishidan ensasi qotgandek, - hamma balo tibbiyotimizni savodsiz va qobiliyatsiz odamlar bosib ketganida. Boshqa sabab yo'q...

- Markazdan kelganlar ham «Bundayini birinchi uchratishimiz», deb hayron bo'lganicha qaytib ketishayapti, - uning gapining oxirigacha eshitmay, o'z qo'l ostidagi hakimlarning sha'nini himoya qildi shahar boshlig'i. U bizga o'xshash tekshirish guruhlarini ko'raverib, toza pishib ketgan edi, chog'i, o'zini juda erkin tutar va erkin gaplashardi, shuningdek, professorga o'xshash dimog'i baland olimlarni ham ko'p ko'rgan, gaplarida xufyona osilgan qilich kabi «jo'jani kuzda sanaysiz», degan pisanda bor edi.

- Masalaga chuqurroq qarash zarur. Professor indamay boshini tuynukka burdi - u erdan pastda yastanib yotgan qip-qizil sahro ko'rinardi va biz bir paytlar qush uchib o'tolmas sahro ustidan qushday uchib o'tayotganimizni sezib turardik: professor boshliqning gaplarini shunchaki vahima deb o'ylaytgani va uni e'tiborsizlik bilan tinglayotgani ko'zlaridan ko'rinib turardi. Odatda butun umri ilmi-urfon bilan o'tgan odamlar amaldorlar bilan burnini jiyirib gaplashishadi, xususan, chekka muzofotdagilar bilan. Shundan so'ng boshliq jim ketdi. U juda orasta kiyingan edi. «Men uning kiyim-kechagi-yu a'zo-yu badanidan nafasni bo'g'ib qo'yadigan achimsiq hid anqiyotganini yo'lning yarmini bosib o'tganimizdan so'ng sezdim, fahmimcha, bu hid go'yo ichida kimdir o'lib qolgandan uning ichak-chavag'idan chiqayotganday edi: gapirganda og'zidan gup etib atrofga kishini loxas qiluvchi hid tarqalardi. Hidni professor ham sezgan bo'lsa kerak, bir-ikki marta boshliqning qonsiz yuzini va qirrador yoqali ust-boshini jirkangandek ko'zdan kechirdi.

Biz tushgan vertolyot shahar chekkasiga borib qo'ndi: bizni har ehtimolga qarshi emlash zarur edi. Shahar chetiga tikilgan tibbiyot chodirlariga bir-bir kirib chiqqach, nariroqda darvozasi ko'rinib turgan shaharga qarab yo'l oldik. Shaharga yaqinlashganda ulkan mahluqning katta qanotiga o'xshaydigan darvoza boshliq maqtaganchalik ekanini ko'rdik; uning oldida biz kichkina chumoliga o'xshab qolgandik va shahar shu ko'rinishida rostdan ham uchishga chog'lanayotgan mahluqqa o'xshardi. Darvoza oldida turgan soqchilar boshliqni ko'rib g'oz qotishdi. U erda bizni boshliq nazorat boshlig'i va tibbiyot mudiri deb tanishtirgan ikki kishi kutib turardi; ikkalasi ham boshliqqa taqlid qilib, soqol qo'yishgan va ikkalasi ham tepakal edi.

- Xayriyat etib keldilaringiz, - dedi nazorat boshlig'i biz bilan ko'rishar ekan. - Bu falokat bizni adoi tamom qildi. - Shunday deya u pildirab oldinga tushdi. Men uning qisiq ko'zlarida tahlika va vahm to'lib turganini ko'rdim. Balkim har qadamda paydo bo'layotgan o'lim uni shu holatga solgandir. Tibbiyot mudirining ko'zlarida ko'proq quvlik hukmron bo'lsa-da tag-tagida xuddi shunday tahlika to'kilib yotganini sezish mumkin edi. Devor baland bo'lsa ham to'zon shahar ko'chalarigacha bostirib kirgan, binolar qanchalar muhtasham bo'lmasin, shahar fayzsiz va hatto andak xaroba tus olgandek ko'rindi menga, ehtimol, odamlarning yuzlarida to'nib qolgan umidsizlikni ko'rib, bizda shunday his paydo bo'lgandir? Hammasidan ham shaharga kirishimiz bilan dimog'imizga xuddi boshliqning nafasidan anqigan hidga o'xshash ufunat urilgani bizni biroz shoshirib qo'ydi: «chirkinlik, xazonrezgilik va badan hidi qorishib ketgan shaharda ufunat xuddi bu manzilga tashrif buyurganlarning burnini kuydirib tashlash uchun ataylab tarqatilayotganday edi: faqat lahaddagina shunday hid anqishi mumkin deb o'yladim men. Ehtimol, o'liklar ko'paygani sayin shahar shu turishicha ochiq lahadga aylangandir?! Sababini so'raganimda shahar boshlig'i elka qisdi.



- Hayratomuz, - dedi u, - biron joyda o'lik qolganmi deb butun shaharni qadamba-qadam tekshirib chiqdik, hech narsa topolmadik. Endi esa ko'nikib ketdik.

Haqiqatan ham shaharda bu hid biron odamni ajablantirmayotgan edi. Balkim, o'latni xuddi mana shu ufunatdan izlash kerakdir?!

- E, yo'q, - dedi shahar boshlig'i gapimni eshitib bosh chayqarkan, - hid shahar qurilgandan beri bor. O'lim esa besh oy oldin paydo bo'ldi.

Uning gapi meni yana ko'proq hayratga soldi. Balkim tavqi la'natga yo'liqqan odamzotga tangri do'zax qanday bishini mana shahar orqali bir

ko'rsatib qo'yimoqchi bo'lgandir? Rostdan ham shahar jazira va qum to'zoni ostida qolgan serhasham do'zax ostonasiga o'xshardi - bir vaqtlar gurillab ko'kargan daraxtlar ham quyosh favvorasi ostida hayot uchun kurasha-kurasha so'lgandilar. Biz darvozadan to ma'muriy binoga borguncha havosi so'rib olingan lahmni kezib chiqqanday o'pkamiz shishib, holdan toyib qoldik.

- Shaharda yana ikki kun tursak bo'g'ilib o'lishimiz aniqqa o'xshaydi, - dedi biz bilan kelgan ximik tomog'ini qirib yo'talar ekan.

Professor dam olmay o'likxonaga ketdi - unga ximik ham ergashdi. Tushdan so'ng men nazorat boshlig'i hamrohligida (shahar boglig'i uni mening adashib ketmasligim uchun qo'shib qo'ygandi), garchi o'latni kasbinga aloqasi yo'q hisoblasam ham, o'lim og'ushiga olgan, to'zib yotgan binolarni shunchaki nomiga ko'rib qo'yish uchun aylanishga chiqdik:

- Sizga hech bir yordam berolmaymiz, - dedi shahar boshlig'i uzrxohlik bilan elkasini qisar ekan. - Shahrimizning bosh me'mori kasal bo'lib olgan, o'rniga biron tuzuk odam chiqmayapti. Endi faqat ko'z bilan kuzatishga majbursiz.

Men uning hijolat chekmasligini va shahar loyihasini ko'rish uchun umuman zarurat yo'qligini bildirdim.

Shunday deb ertalab bir necha odamning o'ligi chiqqan, bir-biriga qo'uib qo'yganday o'xshash yaqin oradagi ko'p qavatli imoratlarga yo'l oldim. Bir qarashda uylar g'oyat did bilan qurilgandek ko'rinar, boshqa tomondan esa xuddi ulkan-ulkan qoyalar oyog'ingiz ostiga to'satdan qo'porilib tusha boshlagandek ularga qaragan sayin ichingizda nimadir qulab ketayotganini sezardingiz. Nim qorong'u zinada shahar ko'chalarida kezib urgan ufunat yana ham badbylashgan edi, balkim bu erda havo o'tirib qolgani uchun shundaydir, zinadan chiqquncha nafasim tiqilib dimog'im achisha boshladi. Hid odamni behol qilib qo'yadigan darajada o'tkir va zaqqum edi. Xonadonlarda bizni indamay kutib olishar va ichkariga boshlashar, hujralarga olib kirishar, darvozalarni, devorlarni ko'rsatishar, so'ng yana biron so'z aytmay kuzatib qo'yishardi.

Uylar ataylab ichkarini salqin saqlash uchun ufqqa teskari qurilgan: derazalardan tushayotgan xira shu'la hujralarni yoritishga qurbi etmay, O'lmas Dev bilan olishaverib, holdan toygan Botir misoli bir burchakda xolsiz to'shalib yotardi. Men o'lim sabablari aynan nurni xo'plab yutib yuborgan mana shu zahlik va zulmatda bo'lsa kerak deb o'yladimu, ammo tezda bu o'yim haqiqatga hech bir to'g'ri kelmasligini angladim: «O'lim to'rt muchasi but, baquvvat, sog'lom kishilarni nam komiga tortayapti», degan edi shahar boshlig'i. O'lating bu uylarga hech bir aloqasi yo'qligini tushungach, hafsalam pir bo'lib izimga qaytdim.

Bir haftaga qolmay o'lim elchisi kezib yurgan barcha binolarni deyarli bir-bir aylanib chiqdim - hamma o'sha hid, hamma hujrada o'sha zulmat, hamma xonadonda yurakni seskantiradigan sukunat hukmron edi. Bu sukunat ko'chalarda odamlarning yuzlarida ham kezib yurardi - ularning ko'zlari-yu yuzlarida shuncha musibatdan so'ng ham qilt etgan ifodani ko'rmadim, aravalarga yoki zambillarga solingan o'liklarni olib o'tishar ekan, ular arava yoki zambilga ho'mrayib ko'z tashlab qo'yishar va indamay yo'llarida davom etishardi.

Serajin yuzlarini bosib ketgan va yonib bo'lgan o'rmonga o'xshab qolgan mo'ylar aro barqib turgan soliq qiyofalar menga ming yillardan buyon odam qadami etmagan tashlandiq imoratlarni eslatgan, bu qiyofalardan ayovsiz yog'ayotgan jaladek, hasrat va mung yog'ilib turardi: bu yuzlardan atrofga bir qahrli sovuqlik taralar, men hali shu yoshimgacha bundayin soliq qiyofalarni ko'rmagandim, shaharga kelgandan beri o'zimni qop-qora bulutlar ostida qolgandek his etar, bu suvi qurigan ko'lga yohud so'nib bo'lgan shamga o'xshab qolgan ko'zlarga qarab turib, ularda sekin-asta sassiz, sadosiz bstirib kelayotgan o'limga nisbatan ko'nikma paydo bo'lganini va bu ko'nikmani endi hech narsa bilan: hatto eng qudratli hisoblangan sehru-jodular bilan ham qo'porib tashlash mumkin emasligini anglagandim; o'shanda shahar odamlari menga qulashini bilgan holda jarga qarab yugurib ketayotgan telbaday taassurot qoldirgandi. Ularning yuzlarida hayot xurshidi allaqachon so'nib bo'lgan; endi bu yuzlarni ajinlar bilan birga tushkunlik, horg'inlik chakalalari qoplab olgan, butun chehralarni umidsizlik tumani bosib ketgandi. Muz yo'lakda qanday yiqilib tushsangiz, bu sovu chehralarda ham nigohingiz shunday qulab tushar, ho'mraygan ko'zlar qopog'on it kabi sizni hech qachon o'ziga yainlashtirmasdi.

O'zimni keyingi kunlarda ro'yo hukmron bo'lgan shaharga kelib qolganday his etar va har bir ko'rgan manzaram aql bovar qilmas narsalar bo'lib tuyula boshlagandi; ehtimol, bular sahroda ro'yo saltanatini qurishgandir?! Nima bo'lganda ham ko'rganlarim - shahar, o'lar, ho'mraygan odamlar, tepakal boshliqlar, mahobatli binolar, hammasi jodu bo'lsa-chi va biz sarobni izlab yurganday ro'yoni kezib yurgan bo'rsak-chi, degan shubha kuch to'plab, qayta-qayta jangga kirayotgan lashkardek xayolimga bot-bot bostirib kirar va butun tanamni behol qilib qo'yardi, aloha, bu erga kelib ko'rgan-kechirganlarimning hammasi g'ayri tabiiy va g'ayriodatiy tus olgandi, zero, kezib chiqqan binolarda kasallikdan darak beruvchi hid vva sukunatdan boshqa hech qandayzohirot uchratmadim, o'limning mening kasbimga yoki mana bu mahobatli binolarga zarracha aloqasi yo'qligiga ko'proq ishonib borar, shahar ko'chalarida qora devning arvochday kezib yurgan changu to'zonni qancha ko'p ko'rsam, meni bu yovvoyi sahroga jo'natgan oromparast boshliqlarimga g'azabim shunchalik toshib borardi. O'sha sahrodayoq g'azab va to'zon bir-biriga naqadar o'xshashini his qilgandim: aslida g'azab ham vujudning junbushidan larzaga kelgan alb to'zonidir; qanchalik hashamatli va ulug'vor bo'lmasin, o'zining zahmkor siru asrori bilan zabt etib bo'lmas qal'ani qanchalar eslatmasin, ko'chalarida faqat jannatliy manzillargagina xos surur va shukuh to'shalib yotmasin, kishandan ozod bo'lgan sherdek ajal hayqirib yurgan shaharga nisbatan g'azab meni tez-tez junbushga solardi.

Bir kuni quyi ko'chalarning birida (darvoqe, shahardagi ko'chalar quyi va yuqori ko'chalarga bo'linardi, kiyimlari uvada, qaddi bukik, hashamdor va viqorli, shaharni ataylab masxara qilayotganday dog'-dug'ga belangan uzun hirqa kiygan, yuzidagi shish va ajinlar qishki qabristonni eslatadigan, sochi kal peshonasi uzra osilib tushgan, barvasta kishini uchratdim; gumbaz shaklida qurilgan emakxonaning o'rtasida turgan u og'zidan ko'pik sachratib odamlarga qo'lini bigiz qilib o'shqirar, cho'g'i so'nayotgan o'choqday taftsiz bo'lib qolgan ko'zlarini dalani bosib ketgan kuzgi qarg'alar misoli jazava va junun qoplab olgan edi.

- Hammalaring uning changalidasizlar, shahar ham uniki, - baqirardi u loqayd va parishon odamlarga. - U menga aytib turdi, men qurib berdim.

Birdan ishtaham bo'g'ildi va nazorat boshlig'idan bu barvastaning kimligini so'radim.

- Shu ko'chani jinnisi, - dedi nazorat boshlig'i yuziga g'amgin tus berib. So'ng men kutmagan jiddiylilik bilan hikoya qila boshladi. - Asli sizga kasbdosh. Boshliq aytgan

me'mor shu kishi bo'ladilar. Shahrimiz uning loyihasi asosida qurilgan. U bosh me'mor, men esa unga yordamchi edim. O'zi juda g'ayratli, savodli va tinib-tinchimas odam edi. Shaharda biron g'isht ham uning ko'rsatmasisiz quyilmagan. U men bilgan me'morlarning eng ulug'i edi. Klassik va zamonaviy me'morchilik sohasida unga teng keladigan bilimdonni topish qiyin edi. U Lotin Amerikasi, Singapurdagi binolar qurilishini ham tinimsiz kuzatib borar, o'sha yurtlardan unga qalin-qalin xatlar kelib turardi. U «dunyoga eng ulkan va odamzot hali xayoliga keltirmagan shahar quramiz», deb xitob qilar, qachon qaramay chizmalar ichida o'ralashib o'tirardi. Rostdan ham aql bovar qilmas shahar qurildi. Hozir o'lat chiqqandan beri shahrimiz fayzsiz bo'lib qoldi, u paytlar esa shaharni naq xayolning jilvalari deb o'ylardingiz: nafis gumbazlar, serjilo bo'yoqlar, nozik va ehtirosli qalbning parchalari kabi marmarlar, abadiyatni suyar tura oladigan ustunlar, qiz bolaning ko'z yoshiday favvoralar - hammasi go'zal bir tarzda uyg'unlashib ketgandi. Bularning hammasi hali qurilib bo'lmasdanoq go'zal san'at asariga aylanib ulgurgandi. Shahar qurilib bo'lish arafasida boshimizga katta kulfat tushdi: me'mor tushida alahsirab chiqadigan odat chiqardi. Keyin alahsirash o'ngiga ko'chdi. U hamma narsadan shubhalanardi. Unga vasvos kasali yuqqan edi. Biz avvaliga e'tibor bermadik, bularni buyuk odamlarga xos parishonlik va injiqlik deb o'yladik. Ammo bir kuni u o'z ustaxonasini yoqib yuborgach, uning telba bo'lib qolganini angladik. U «butun shaharga o't qo'yaman», deb baqirardi. Shaharni yoqib ulgurmay uni telbaxonaga jo'shatishga to'g'ri keldi. Telbaxonadan u mutlaqo jinni bo'lib chiqdi. Shundan beri u shaharni yoqib yuboraman deb o'dag'aylagani o'dag'aylagan. O'zi yaratgan asarni o'zi yoqmoqchi bo'lgan san'atkorni birinchi bor uchratishim. Shundan beri uni ma'muriy binoga kiritmaymiz. Gapi va vasvasasi demasa, o'zi beozor jinni, - nazorat boshlig'ining ko'zlarida telbaga nisbatan ehtirom zuhur etdi.

Nazoratchi «kasbdoshingiz» degandan so'ng telbaga tuzukroq razm soldim: deyarli adoyi tamom bo'lgan, kam uxlaganidan qovoqlari osilib qolgan, na kiyinishida, na chehrasida, na gap-so'zlarida avvalgi kasbidan darak beruvchi biron alomat qolmagan, faqat olis-olislardan eshitilayotgan musiqa yoxud vayron qilingan shahar o'rtasida xarobaga shukuh va shavkat bag'ishlab hilpirab turgan harir tug' kabi shuncha junbush va xayol to'zonidan so'ng ham nozikligicha qolgan qo'llarigina o'sha xushvaqt va dorilomon davrlarni eslatib turar, ko'zlari botib bo'lgan quyoshning shafag'iday qizarib ketgan, chuqur lahmga o'xshash qora cho'g'larida yillar davomida zanglagan qilich kabi bir telba istehzo qotib qolgan, igohida olis o'tmishning ko'lankalari burdalangan sher kabi parcha-parcha bo'lib yotardi: o'tmish zulmatini yoritilmagan birpaslik alanga yanglig' bu yuzni, bu vujudni yoritishga qurbi etmay sassiz-sadosiz bo'lgan edilar. Xoholar ekan, o'ziga qarab tobora bostirib kelatyogan shaharni emas, bunda istiqomat qiluvchi barcha yuraklarni ham allaqachon ishg'ol qilib olgan sukunat va qurquvni shu kulgusi bilan tor-mor qilib tashlayotgandek edi va garchi telba bo'lsa-da, shaharda men uchratgan qiyofalar ichida faqat uning yuzidagina cho'g'day tabassum yonib turardi, ammo bu tabassum ham masxaraomuz tirjayishga o'xshab ketar, o'limlarini jimgina kutib turgan ojiz va mahkum odamlarning, o'lat kezib yurgan shaharning, qurib-qovjirab, arvohtay so'ppayib qolgan daraxtlarning, sirli o'lim sababini aniqlash va shaharga shifo baxsh etish uchun kelgan va hech narsaning uddasidan chiqmay, hech bir sirni echolmay, sharmandayu sharmisor bo'lib jimgina jo'nab qolayotgan biz kabi olifta va dag'dag'aboz tekshiruvchilarning va o'zini o'rab turgan hamda o'zining bir telba makriga dosh berolmay lolu hayron qotgan bani basharning ustidan istehzo aralash kulib turganday edi. Uchib yurgan o'qdek ko'zlari tagidan qo'rqa-pisa o'qrayib tikilishlariga qaraganda, telbani xo'randalar haddan tashqari yomon ko'rishar, chog'i, u gapirar ekan, ijirg'anib qo'yishardi. Bu meni g'oyat ajablantirdi. Telbani odatda hech kim yaxshi

ko'rmagani kabi hech kim yomon ham ko'rmaydi. Sababini nazorat boshlig'i ham izohlab berolmadi:

- To'g'risini aytsam, - dedi u, - bu odamlar menga sira ham yoqmaydi. Hamisha nimadandir norozi, hamisha tng'illashgani, to'ng'illashgan. Axir shunday jannatmakon va go'zal shahar qurib berdik, yana nima kerak ekan bularga, hech tushunmayman. Nazorat boshlig'ining mushti g'azabdan siqilib kketganini ko'rib qoldim, hozir qo'yib bersa quturgan ayiqday butun shaharni vayron qilib tashlaydigan vajohati bor edi yuzida. Telba esa nimadir esiga tushib qolganday, shartta iziga burildi va deyarli yugurib emakxonadan chiqib ketdi; ketib borar ekan, u menga dengizda tobora uzoqlashib borayotgan va so'nggi safarga jo'nab ketayotgan xaroba kemani eslatgan va izidan uzoq qarab qolgan edim. Uning telba nigohi va jazavasli qiyofasi xotiram taroqlarida uzoq vaqt ilashib yurdi: shunday holatga tushdimki, binolarni ham yig'ishtirib qo'yib, kasbdoshimizning qismati bilan tanisha boshladim; uning taqdiri yotgan hujraga kirib borgan sari shahardagi palapartish hashamatning siri ham oydinlasha bordi; nazarimda, shahar binolari xam junun va jazavaning hosilasi edi, go'yo butun shahar telbavor mahobat kasb etgandi. Ammo telbaning shov-shuhrat shohsupasiga chiqish arafasida aqlidan ozib qolgani haqidagi ma'lumotdan boshqa hech qanday yangi gap ololmadim; ko'plar unga ochiq hasad qilib «Avvaldan telbaroq edi» deyishdan nariga o'tmadi; boshqa birlari esa «Shahar shu darajada go'zal va muvaffaqiyatli quriddi-ku, u buni kutmagandi, birdan aqli shoshib qoldi», deyishdib biroq shu narsa ayon edi-ki, u ko'plarning xotirasidan butkul o'chib ketgandi. Keyinchalik ham telbani o'sha ko'yi ko'chada ikki-uch marta ko'rdim: u xuddi o'zidan qolgan xotira shamlarini qaytadan yoqmoqchiday o'tgan odamga tirjayib tikilar, o'sha bir xil gapni takrorlardi. Boshqa kuni ko'rganimda go'yo o'z aqlining suratiga boqib lol turganday binolarga tikilganча g'oz qotib turgandi.

U menga qarab javramoqchi edi, biroq oldidan tez yurib o'tib ketdim - to'g'risi, uning almayi-aljayi gaplari jonimga tekkan, bu so'zlar men uchun ma'nisini yo'qotgan edi Bu gal u ancha cho'kib qolganday, shahar oralab yurgan o'lim uning noqiso aqlida ham nihoyat yuz ko'rsatganday, javrashlari ham oldingiday g'azabnok emas, balki mungli va hasratli ohang kasb etganday edi; uning javrashlari menga tavba-tazarru qilayotgan gunohi azimkorning ming'irlashiday eshutilgandi. Balkim u mutlaqo telba emasdir, balkim telbalikning ko'chasidan ham o'tmagandir, balki bu xayol junbushidir, ehtimol, undagi junun o'zi qurgan shahar va binolarga qarshi aql qo'zg'olonidir?! Nima bo'lgan taqdirda ham telba vahm, qo'rquv, to'zon va o'lat hukmron shaharning uyqus iqroriga o'xshardi. Men xuddi onasiga o'chakishib, erga o'tirganча big'illayotgan go'dakdek nuqul taqiqlangan ishlarni qilgim va odamlarning jig'iga tegib, taqdir bilan o'ynashgim kelavergandi. Ikki tomoniga turli shakldagi binolar qurib tashlangan, har muyulishga rangi ketib qolgan bayroqlar ilingan, go'yo o'tmas shamshirning tig'iday shaharning qoq o'rtasida to'shalib yotgan ko'chalardan yayov ketib borarkanman, meni har xir tuyg'ular chulg'ab olardi - hozir er yorilib tortib kketadiganday har qadamda yuragim bir hapriqib tushar - bularning hammasi shaharga kelib orttirgan vasvasalarim edi - shuningdek, qancha yurmayin yo'l hech qachon tugamaydigandek, butun umrim changu-to'zon qoplagan besamar hayotga o'xshaydigan mana shu yo'lga izsiz-sadosiz sochilib ketadiganday tuyulavergandi.

Bir kuni ximik xonamga kirib keldi-da, ko'zlarini yumganча, «O'lay agar hech narsa tushunmayapman, dedi va so'ng xona bo'ylab yura boshladi, «qaerga kelib qoldim o'zi?! Xuddi ertakka yoki qo'rqinchli tushga o'xshaydi. Kuniga qancha odam o'lib borayapti-yu, lekin o'limning sababi nimaligi hanuzgacha topilmayapti. Har kuni murda qiyofasidagi navbatdagi mag'lubiyatni uchratish jonimga tegdi, o'zimiz ham murdaga aylanmasdan

bu erdan ketish kerak».

U to'g'ri aytayotgan edi. Uning ham xuddi o'zim kabi holdan toyganini, umidsizlik uni ham beshafqatlarcha chopib tashlaganini sezdim. Biz shaharda hech bir ishni oxiriga etkazish mumkin emasligini, hamma ishimiz, tekshirishimiz oxir-oqibat natijasizlik bilan tugashini, shahardagi har bir ko'chada, muyulishda, uyda o'limga mahkumlik, noma'lumlik poylab turishini nihoyat tushunib etgandik. Juda ishonch bilan kelgan keksa professor ham keyingi kunlarda suvga bo'ktirilgan tovuqday birdan tushkun bo'lib qolgandi; o'ziga, qudratiga ishongan odamning tushkunlikka tushishi juda og'ir kechadi, u bizni tez-tez jerkib tashlar, o'liklarga hafsalasiz ko'z yugurtirar, endi oldingi kunlardagiday shaharning u chetidan bu chetiga elib-yugurmasdi.

Ammo hammamiz tuni bilan o'larning sababi nima bo'lishi mumkin, deya bahslashib chiqar, professor endi munozaralarga ham qatnashmas, savollarimizga qo'l silki qo'ya qolar, men uning yuzini quyuc o'rmonning ichiga kirib qolib, endi undan qanday chiqishini bilmay yotgan kishining yuziga o'xshatardim; darvoqe, bu sirli o'lim bosh-boshdoqsiz oqib borayotgan jilg'a kabi bizni aqlimiz ham, shuurimiz ham etmaydigan noma'lum tomonlarga boshlab ketgandi. Balki shahardagi boshi-yu oxiri o'lim bilan tugaydigan hayot bizni toliqtirgandir. Balki, qo'rqinchli va serg'ulu kunlarimizdan bir ma'no, bir mazmun izlab, tunning sirli va bepoyon mamlakatini xayol va savol tulporida kezib yurgandirmiz. O'sha paytlarda shunday holatda edikki, odam bo'lib uxlab, ertalab sherga aylanib uyg'onsak ham unchalik ajablanmasdik: shahar hayoti tasavvurimiz qal'alarini butkul vayron qilib tashlagan, u erda na chegara, na hudud qolgan, u erdagi devorlar kuchli zilzila ostida qolgandek bir-bir qulab tushgandi, ba'zan ko'ksimizda yurak emas, qatl nog'oralari gursillab urilayotgandek, bir-birimizga qo'rquv va hasrat bilan tikilib qolardik.

Ertalab meni ximik uyg'otdi:

- Ey, Mikilanjelo turing, professor sizga mana bu narsani berib yubordi.

O'rnimdan turib kerishdim, quyosh chiqib, ko'chalarda tonggi salqinni haydab bo'lgan, hamma ish-ishiga ketgan edi. Nima u?

- Kecha bir telba o'lgan ekan. Professor buni o'shaning cho'ntagidan topib olibdi.

Shaharga taalluqli bo'lsa kerak deb jo'natibdi.

Men o'zimga kasbdosh bo'lgan telbani darrov esladim.

- qanday telba?! quyi ko'chadagi telba emasmi?

- O'sha, - dedi ximik qo'l siltab. - Bechora tik turgancha qotib qolibdi. Professor hozir murdaning yonida. O'ziyam cho'ntagida bir umr olib yurgan, chog'i, - u sumkasidan ezilib, sarg'ayib ketgan xarita nusxa qog'oz chiqarib uzatdi. - Bu shaharning telbalari ham olim bo'ladi, shekilli.

Men shoshib qog'ozni ochdim: avvaliga hech narsa tushunmadim. U cho'zinchoq, yassi shaklda chizilgan, bir necha joyi doira ichiga olib qo'yilgandi. Uni uch-to'rt marta aylantirib, ko'zlarim o'zim kezib chiqqan ko'chalarning belgilariga tushgach, hayrat va dahshatdan nafasim ichimga tushib ketdi; avval ko'zlarimga ishonmadim; boshimni silkib-silkib yana qaradim; yo'q, ko'zlarim aldamagan edi va mana shu bir necha soniya ichida shaharda paydo bo'lgan o'latning tub sababini anglab qolgan edim; titrab ketganimdan qo'limdan chizma tushib ketdi va shu turishda uzoq vaqt dong qotib turdim. Shu kuni qaerlarda bo'lganim esimda yo'q, aftidan, chizmadagi ko'chalarni o'z ko'zim bilan ko'rish uchun shahar aylangan bo'lsam kerak - chizma aynan shu shaharning loyihasi edi. Yana shu esimda-ki, men tekshiruv guruhidan ertagayoq qaytib ketamiz deb qat'iy talab qildim. Endi tajribalaridan natija chiqishdan umid uzgan

professor ham gapimni ma'qulladi:

-Baribir bu erda hech narsa qila olmaymiz. Ketganimiz tuzuk.

Sha har boshlig'i ahdimizdan qaytara olmadi, uning yuzida g'olib qo'shinning yaloviday zafarli istehzo paydo bo'lgan, professorning jig'iga tegish uchun ataylab bizni yana bir necha kun qolishga undar, faranglarnikiga o'xshash bu o'latning sababini topish unchalik qiyin emas, deb tovush chiqarib ming'illardir. U professor ustidan g'alaba qilganidan xursand edi. Ammo professor unga ortiqcha e'tibor bermadi: mening ham, fahmimcha butun guruhning ham. Bu o'laksa anqib yotgan shaharda bir kun ham turgimiz kelmayotgandi. Biz shu paytgacha o'lim kabi buyuk va o'lim kabi yovuz iqtidorning ko'chalarini kezib yurgan edik.

Ertasiga shaharning ulkan darvozasidan chiqib ketar ekanmiz, men bu manzilning mangu o'limga yuz tutganini, uni endi hech kim qutqarib qololmasligini, xuddi quyosh botgandan so'ng tu kelishi muqarrarday, tiriklik quyoshi botgan, ko'chalarida o'lim va telbalik kezib yurgan bu shaharga vayronalik tashrif buyurajagi, uzoq yillar hukm surgan e'tiqod birdan xarobaga yuz tutgani kabi bu shahar ham endi tanazzul tomon og'ishmay ketajagi haqida vahm va qo'rquv bilan o'yladim.

\* \* \*

U xonamga kechqurun kirib ketdi: juda horg'in edi, ko'zlarida dahshat aralash junun o'ynardi.

Bir necha kun ichida u mushtday bo'lib qolibdi. Men uni kasal yuqtirgan chog'i deb o'yladim va uyga taklif qildim. U xonam to'riga qo'yilgan kursiga o'zini tashladi va yuzini qo'llari orasiga ancha vaqt yashirib o'tirdi, so'ng xuddi hamma narsani bosib yanchib o'tayotgan bo'ron kabi bir telbavor ohangda pichirladi:

- Butun shahar tobut shaklida qurilgandi. Men buni loyihada ko'rdim. Biz shuncha kun tobutni kezib yurgan ekanmiz...

## XAROBA SHAHAR SURATI

Bu surat xonamda qachon paydo bo'ldi, qaydan kelib qoldi, to'g'risi, hozir aniq eslayolmayman, lekin men bu suratni ko'chadan, xiyobon burchagiga o'tirib olib, o'tgan-ketgandan sadaqa so'rayotgandek o'zining chizganlarini arzon garovga sotib o'tiradigan arvohday ozg'in va sersoqol qandaydir qashshoq rassomdan sotib olgan bo'lsam kerak deb o'zimni ovuntiraman; unga aynan qashshoq, sersoqol, to'g'risi, buni ham bilmayman, balkim qachonlardir soqol qo'yishni orzu qilganim uchundir! Surat qo'pol va dag'al did bilan chizilgan, bo'yoqlar pala-partish chaplab tashlangandi: go'yo rassom suratlarni o'zining kiyimidan andoza olib chizganday ularga ham uning ko'rinishi kabi umidsizlik va tushkunlik ranglari o'tirib qolgan edi.

Suratda hali me'yoriga etmagan xira bo'yoqlar fonida vayronaga aylangan shahar burdalangan jasaddek bo'rttirib tasvirlangandi. Suratdagi birdan-bir menga yoqadigan manzara ham aslida mana shu xaroba edi: bu shaharni kim vayronaga aylantirgan, kim uni yoqib kul qilgan, men buni ham bilmadim, ehtimol, rassomning o'zi ham bilmagandir. U bozorbp va odamlarning e'tiborini tortish uchun shunchaki xayoliga

kelgan xarobani chizib tashlagan, ta'sir hamda vahm bag'ishlash uchun manzaraga qo'ng'ir va sariq bo'yoqlarni rosa chaplagandir. Shaharning ko'chalari rostdan ham shunchalik tahlikali tasvirlangandiki, suratga qarab turib, hozir men turgan xonaga xam shaharni vayron etgan bosqinchilar bostirib kelsa-chi, degan xavotirga tushib qolardingiz: Suratga qaragan sayin sizni boshingizga tushib kelayotgan qilichdek bir vahima chulg'ar, xuddi qish bo'yi och qolgan sayoq itlar kabi pala--partish manzaralarni ko'tarib turgan qo'ng'ir bo'yoqlar to'satdan yuzingizdan qopib olardi. Dud burkagan ko'chalarni vayrona binolar bosib qolgan, u er, bu erda ali o'chmagan alanganing tutuni osmonu falakka o'rlardi. Ko'ngilni g'ash qiladigan bu tahlika va tanazzul bilan birga yurakni orziqtiradigan, qaragan sayin yana qaraveradigan qandaydir mavhum mahliyolik sizning qalbingizning eshigini tinmay qoqib turardi. Men xona bo'ylab kezarkanman, ba'zan mana shu xaroba shahar ko'chalarida kezib yurganday his etardim o'zimni. Rostdan ham o'sha paytdagi ahvolu ruhiyam bilan bu xaroba shahar o'rtasida qanday o'xshashlik borligini hi etardim, faqat bu qandaydir o'xshashlik ekanligini to'g'risi, bilmasdim. Men suratdagi vayrona shaharga o'zimcha Tursoriya deb nom qo'yib olgandim; nega aynan Tursoriya, buni ham hozir izohlashim qiyin, ehtimol, bu nomda hech qanday ma'no yo'qtir va bu nom xotirjamning qaysidir burchagida tun qo'ynida lip etib yongan alanga kabi o'z-o'zidan tug'ilgandir.

Tursoriyani qay maqsadda xarobaga aylantirishgan, nega unda tiriklikdan darak beruvchi biron giyoh ham qoldirishmagan, buni ham bilmasdim. Men faqat shaharning aynan Tursoriya deb atalishini juda ham istardim. Qachonlardir go'zal va ulug'vor bo'lgan bu shahar ataylab xarobaga aylantirilgan degan shubha boyo'g'lisi damo-dam mening yuragimga kelib qo'nardi. Asta-sekin bu shahar meni butkul lol qilib oldi. Men endi ertayu kech faqat shahar haqida o'ylardim va tushlarimga kirib chiqardi bu shahar.

Suratga qarab turib doimo dud va dan hidini tuyardim: balkim, menga shunday tuyulgandir, ammo bu oddiy tutunning hidi emasdi, men bunday achimsiq hidni ko'p yillar avval qishlog'imizga yovvoyi ayiq quvlab yurib kelib qolgan bir guruh ovchilarning qurum bosgan miltig'ida his etgan edim va suratdagi hid haqiqatan ham xozirgina ortlagan uyqum hidiga o'xshardi: ehtimol bu hid mening dimog'imda shahar aql bovar qilmas xiyonat va sotqinlikdan so'ng vayron etilgan, deb o'ylay boshlagach paydo bo'lgandir?

Nima bo'lganda ham Tursoriya bir qarashda ko'ngilga g'ulu solib qo'yardi, biroq bo'yoqlar oqimiga tikilib qarasangiz, shaharning tosh devorlari borib tutashgan tepalik uzra qorachiqday qizg'ish shu'lani ko'rishingiz mumkin edi: balki, rassom ehtiyotsizlik qilib bu qoramtir ranglar ora bir tomchi qizil rangni bilmasdan to'kib yuborgandir, lekin suratni ilk bor ko'rganimda menga bu rang endi otayotgan tongning ilk shu'lasi bo'lib tuyulgandi. Xarobaga qarab qanchalik tahlikaga tushsangiz va o'zingizni o'pirilib tushayotgan g'or ichida qolgandek his etsangiz-da, biroq baribir ko'nglingizning bir chetida boyagi qizil rangdan paydo bo'lgan bir totli his sizni bir muddat xushbaxt qilib quyardi. Suratda meni yana bir narsa hayratga solgandi - xarobalar ichra qurumga botgan uvada xarsanglar ortida ko'zga zo'rg'a tashlanar-tashlanmas bo'lib shuncha yong'inu alg'ov-dalg'ovdan so'ng ham hali bus-butligicha to'xtab qolgan tegirmon parpari ko'rinar: parrak hali mustahkam edi va bu o'lik shaharga faqat shu parrakkina umid bag'ishlab turganday edi. Tegirmonning eshigi, yon devori qulab tushgandi. Men xona bo'ylab kezarkanman, daf'atan surat qarshisida to'xtar va birdan tegirmon

parragini aylantirib yuborishni, shaharga oz bo'lsa-da hayot bag'ishlashni juda ham istab qolardim.

Shaharning keng tosh ko'chasida esa ranglar to'poloni ora qorishib qandaydir g'alati, tahdidli ulkan oyoq izlari qolgan edi. Suratga qarab turgan odam izdagi tajovuzkorlikdan seskanib ketardi, go'yo qandaydir, nozik hislarga to'la qalbni bir betayin gap yoki oshkora haqorat bilan toptab, yanchib o'tganidek, bu izlar ham shaharni boshdan oxir atayin toptab o'tgandi: to'g'rirog'i, xuddi yarador sherni kishanlab qo'ygandek asorat yoki

istibdodning izlari kabi ko'ngilga talvasa soladigan bu izlar shaharni boshdan-oyoq zanjirlab qo'ygandi. Bu kimning oyog'ini izlari, qandayin yuragi tosh odam qoldirgan bu izlarni, ko'zi tushganlarning ko'ngillarida bir umr hilpirab tursin deya kim bu o'lik shaharning ko'chalariga vahm va qo'rquv yalovlarini ilib chiqdi, buni ham men bilmasdim, lekin achon izlarga ko'zim tushsa etim jimirlab junjikib ketardi va shaharni orat qilgani kabi bu oyoq har qanday qalbni o'ylamay-netmay toptab tashlashi mumkinligini his etardim.

Bu ishlar shu darajada dag'al hamda qo'pol ediki, oyoqlarning egasi qanchalar surbet va johil ekanligini bilish uchun izlarga bir qarab qo'yishning o'zi kifoya edi - go'yo bu oyoq izlari emas, shaharga rahna solgan yovuz kuchning zuum va tanazzuldan darak beruvchi dag'dag'ali muhri edi. Bu izlar o'lim va o'lim istab izg'ib yurgan qo'shindek vayrona uzra namoyishkorona cho'zilib yotardi. Bu oyoqlar bir silkishda minglab odamlarni yanchib tashlashga, o'nlab shaharlarni vayron qilishga qodir ekanligi shundoq botiq va zardali izlardan ko'rinib turardi. Ko'chaning chetidagi qizg'ish ko'lmakda esa xiyla katta, chorsiday bayroq to'shalib yotavrди, bu - bayroqdan ko'ra ko'proq fohishaning naxs bosgan isqirt to'shagiga o'xshardi: bayroqni ham ehtimol, bu erlarga izning egasi ko'tarib kkelgandir? Balkim Tursoriyani aynan mana shu oyoq izlari vayron etgandir? Darvoqe, Tursoriya orzuim va xayolimning olis, maftunkor manziliga aylangan, men kun-tun Tursoriya degan yurtning ko'chalarini sarosar kezish bilan ovora edim.

Tursoriya meni qanchalik qiziqtirsa, boshqalarni shunchalik ajablantirardi. Ular tayinsiz bir rassomning fazlu irodasi bilan vayron etilgan qandaydir Tursoriyani deb tashvish chekib yurishim sababini tushunmasdilar va buni shunchaki oliftagarchilik deb o'ylashar yoxud g'irt safsataga yo'yishardi. Men ularga Tursoriya haqida, uning yashil bog'lari, zangor osmoni, tuman qoplagan tosh ko'chalari, odamzotning qudratini namoyish etish uchun qurilgan minoralari, shahardan uzoqlarda ham hidi ufurib turadigan xuddi qizlari kabi durkun va nafis gullari, qirmizi tulporlar minib yuradigan yigitlari, xayoldan ko'ylak qilib kiygan qizlari, hilol bilan birga hilpiraydigan tug'lari, sahar chog'lari xo'rozlardan ham oldin odamlarni uyg'otadigan azonlari hamda bolaning ko'zlari kabi tiniq va ma'sum daryolari haqida gapirib berar va bularni Tursoriya boshqalarning ham e'tiborini tortsin deya ko'pincha o'zim to'qirdim. Biroq mening bu tajribasiz va tarqoq qo'shinim - bolalarcha cho'pchaklarim bilan odamlarning befahmlik va loqaydlik devorlari o'rab olgan, hech narsa bilan zabt etib bo'lmas, toshdek qotib qolgan qalb qo'rg'onlarini hech qachon zabt etolmasdim, aksincha, mening yuragimdan so'zlarga qo'shilib chopib chiqqan hayajon va umid ohulari ularning befarqlik ko'pchigan ko'zlarining toyg'oq qoyalaridan sakrab o'tolmay bir-bir qulab tushardi. Hamisha gaplarim ularning ensasini qotirardi. Men tanishlarimni hech qachon Tursoriyaga qiziqtira olmadim: biri ishi ko'pligini, biri bunday jumboqlarni izlaydigan yoshdan o'tganini, biri Tursoriyadan ham muhimroq tashvishlari borligini aytib jo'nab qolar yoki meni hafa qilmaslik uchungina



bosh silkib, beparvo tinglashar va nomiga luj shishirib qo'yishardi. Ularning hammasi menda Tursoriyani bilmay o'tayotganliklari uchun ham butunr umr g'aflat o'rmonini sargashta kezib yurgan sarson odamlardek taassurot qoldirardi. Men ularning ko'zlarida, yuzlarida g'ofil va tushkun yashashga mahkum etilganlarni ko'rardim. Ular tiriklikning mangu va abadiy qaroqchilaridan qocha-qocha mana shu loqaydlik va tanballik saltanatidan panoh topgandilar va ular qochib kirgan boshpanalardan ham o'zlari kabi omonotlik va xarobalik ufunoti anqirdi. Odamlarning Tursoriyani bilmasligi meni ko'pincha g'azabga solardi. Shunday paytlarda men umidsizlikka g'arq bo'lganicha ichkilikka ruju qo'yardim - ko'chada yarim mast holda kkezib yurarkanman hayotning tashvishlari parchinlab tashlagan bu odamlar ko'zimga yana ham ayanchliroq, g'aribroq ko'rinib ketardi, nega ular o'zlaridan qolayotgan, yuzlarida lov-lov yonib turgan xarobani ko'rmayptilar deb hayqirgim kelardi.

Juda katta shov-shuv bilan boshlangan saylov oldi uchrashuvlarining birida munosib nomzod sanalgan taniqli va kekxa shoirdan ham to'satdanTursoriya haqida so'rab qolgandim. Savolim shu darajada g'ayritabiiy chiqdiki, butun zal bir zum suvga cho'kkanday jimib qoldi, so'ngra o'zaro shivir-shivir boshlandi. Hay'atda o'tirgan ishonchli vakillar menga g'azab bilan tikilib turishardi, ularning yuzlarida sarosimalik kemalari suza boshlagan edi, yig'ilganlar meni nomzodni ataylab obro'sizlantirish uchun shunday bema'ni savol berdi deb o'ylashayotgandi. Biroq shoir sarosimaga tushmadi, u menga tik boqqancha biroz nopisandlik bilan:- Men, tarix bilan etarli darajada shug'ullangan odam, sizni bemalol ishontirib aytishim mumkinki, hech qaerda hech qachon Tursoriya degan yurt bo'lmagan va u vayron ham etilmagan. Bu cho'pchak va uydirmadir, - dedi.

Zal gulduros qarsak ichida qoldi: mening noo'rin savolimga juda munosib javob berilgandi, ya'ni zaldagilarning nazarida shoir meni jangga kirmasdanoq tor-mor qilib qo'ya qolgandi. Ammo zalda o'tirganlarning ichida faqat mengina o'zimni mag'lubiyatga uchragan deb hisoblay olmasdim va keyingi paytda men qaylardadir Tursoriya degan yurt borligiga zarracha shubha qilmay qo'ygandim. Bo'ron kutilayotgan dengiz ustida uchib yurgan oq charloq kabi men ham vaqt qushi bilan mavjlanayotgan xayollarim dengizi ustida sargashta uchib yurardim, gohi qaysidir tomonlardan yovuz shamollardan qochib kelgan mushtipargina yoz yomg'iri mening xayolparast kunlarimning ustidan tomchilab o'tib, ularni abadiyat sari etaklab ketardi.Ittifoqo, u ham garchi tushunmaydi deb o'ylasam-da, tavakkal qilib, Tursoriya haqida ilmiy rahbarim bo'lmish professorga gapirib bergandim. Biroq professor hech bir ajablanmadi, hatto menga boshqalardek sinovchan tikilib ham qo'ymadi, yumshoq oromkursiga cho'kkancha qon ko'pchiy boshlagan horg'in ko'zlarini tikdi.- Ha, - dedi u biroz jimlikdan so'ng mutlaqo men kutmagan xayrixoh ohangda. - Mening ham qachonlardir shunday suratga ko'zim tushgandi, meni ham shunga o'xshash surat o'ziga rom etib olgandi, - u xuddi alvasti xotinga o'xshaydi, seni maftun qilib qo'yadi-yu, o'zini ko'rsatmay ustingdan kulib yuraveradi. Lekin men tezda bu kasaldan qutilib oldim va shundan so'ng hayotimda biron marta ham kerak bo'lganini eslay olmayman, sizga ham shuni aytmoqchimanki, o'z ishingiz bilan shug'ullaning, bu suratni unuting, qasam ichib aytamanki, Tursoriya sizga hayotingizda hecham kerak bo'lmaydi, aksincha tursoriya-pursoriyalarsiz yashash oson va qulay.

Professorning ham qachonlardir meni qiynagan savollar qiynagani va u ham Tursoriya kabi unut shaharni izlagani men uchun yangilik edi, biroq men uning xulosalaridan

dahshatga tushdim; nahotki Tursoriyasiz yashash mumkin bo'lsa? Professor shuncha vaqtdan beri Tursoriyasiz qanday yashab yuribdi? Men uning yuziga yalt etib qaradim va professorning yuzida ham xonamdagi suratda his etgan xaroba shaharning aksini ko'rib bir zum toshday qotib qoldim. Yo'q, bu erda hech qanday ro'yo yo'q edi, professorning qisilgan nursiz ko'zlarida, ajin bosgan qarimsiq yuzida, alamzadalik va izzatparastlik aks etgan lablarida men bu xarobani aniq ko'rgandek bo'ldim.

Uning hayoti davomida erishgan barcha muvaffaqiyati, jild-jild kitoblari, mukofotu yorliqlari, shuhrati-yu, shavkati - har biri bu xarobani tasdiqlovchi rad etib bo'lmas dalolatlar edi. U hayoti davomida orqa-oldiga qaramay ko'rib ketavergan va bir kuni o'zi yaratgan shaharni ko'rish, u erda birpas tin olish uchun iziga burilsa, faqat vamli mung'ayib turgan xarobalarnigina ko'rgan. Mening nazarimda, u asli o'z umr shahrini qurmagan, akyoyoyoyosincha vayronaga aylantirgan edi, bu naqadar dahshat deb o'ylagandim men professorning olovi o'chgan o'choqdek taftsiz ko'zlariga qarab turib.

Izlagan narsasini topolmagan, deya oxiri asli men hech narsa izlamaganman, deya o'ziga-o'zi tasalli bera boshlagan, biroq bu tasallidan ko'nglining juda katta qirlari va qo'rg'onlari o'pirilib tushayotganini bilgan, umri xazonlik sari yuz tutgan odamning yuzigina ana shunday ko'kazak va jizzaki bo'ladi. Uning qat'iy va sovuq xulosasi meni bir zum sarxush qilib qo'ydi, go'yo bu xulosaga o'tkir afyun navi singdrilganu u meni karaxt qilib tashlagan edi. Professor menga ilmiy ishimga oid ko'pgina yo'l-yo'riqlar va yangi chiqqan adabiyotlar ro'yxatini berdi hamda meni har doimgiday bekatgacha kuzatib qo'ydi. U seriltifot, muloyim, quvnoq edi va mening Tursoriyani unutilib yuborishimga, bu shunchaki yoshlikda bo'ladigan qizamiqday o'tkinchi kasallik ekanligiga, hamma narsani unutilib, shu oy ichida ilmiy ishimni taxt qilib, qo'lga topshirishimga zarracha shubha qilmasdi. Biroq men uning gap-so'zlariga va xatti-harakatlariga qarab turib, yana bir narsani anglagan edim: u o'zining boy berilgan umri bilan meni Tursoriya sari chorlardi. Uning nursiz ko'zlarida va qorachug'larida o'zi borolmagan, yiroq safarga jo'nab ketayotgan o'g'lining izidan tikilib qolgan otaning nigohi yoki yangi sarguzashtlar izlab olis sayohatga jo'nayotgan kemanding endi hilpiray boshlagan elkani yanglig' bir umidbaxsh chorlov aks etgan edi: u menga saf-saf qo'shin bilan dunyoni zabt etaman deb ketib, oradan yillar o'tgach yolg'iz o'zi tushkun va umidsiz qaytib kelgan mag'lub qo'mondonni eslatgandi. Xonamga kelib xaroba shahar surati bilan professorning umrini qiyoslagach, men bunga yana ham ko'prokq amin bo'ldim va hamma narsani - professorning o'gitini ham, o'zini ham unutildim. Go'yo suratdan qandaydir dovul ko'tarilib chiqqandiyu, professor mening miyamdagi torlarga ishonch bilan ilib qo'ygan, g'ozi ketgan ko'ylakdek yaroqsiz bo'lib qolgan o'gitlar va nasihatlarini qaylargadir uchirib ketgandi.

Shundan so'ng men professor bilan boshqa ko'rishmaslikka, uning yuzidagi xarobalikni ko'rib ko'nglimni yana buzmaslikka ahd qildim. Men endi faqat surat va o'zimning Tursoriya haqidagi xayollarim bilan yolg'iz qolgan edim. Bu surat nima o'zi, nega u mening aqlu shuurimni band etib oldi? Ehtimol, bu surat buzilgan va yovuzlashgan dunyodan men kabi bir mazmun, bir ma'no izlab o'tgan odamning samarasiz umr haqidagi o'kinchlaridir? Ehtimol, umr qal'asining buzilgan devorlari ichra tutab yotgan yurakning alamnok dudlaridir?! Kim biladi, shunday ham bo'lishi mumkin-ku! Suratga qarab turar ekanman meni daf'atan bir his qoplab oldi: rostdan ham bu suratni qandaydir yot bir rassom chizganmidi yoki uni mening o'zim chizib, o'zim sig'inib, o'zim vahimaga tushib yurdimmi: Va suratdagi shaharni ham mening o'zim vayron

etdimmi?! Bu shubhani menda birinchi marta ro'znomachi do'stim uyg'otgandi. U bilan kechki payt uchrashib qolib, biznikiga kelgan vva har xil narsalar haqida gapira turib, uning ko'zlari birdan suratga tushib qolgandi. Suratni ko'chadan sotib olganimni aytdim. U menga bir zum sinovchan tikilib turdi. - Yashirmay qo'ya qol, bu suratni sening o'zing chizgansan, tasvirda sening uslubing ko'rinib turibdi, - dedi. - Chunki faqat sening dunyoni mana shunday ayancli manzaralar ichida ko'rasan. Odam qanday o'ylasa, shunday yozadi, aslida ham har bir odam o'z umrining rassomidir. Bu suratda sening umring aks etib turibdi. Uning gap ohangida biroz masxara bor edi, u hamisha men bilan bir pog'ona yuqori turib gaplashardi. U mening o'ttiz yoshga kirib ham biron ishning boshidan tutmaganimga, ko'proq omadsizligimga ishora qilayotgan edi: o'zi hech qachon omadsizlik ko'chasidan o'tmagandi - yozganlari uzluksiz bosilib turar, ba'zan unga mukofot ham berib qolishar, ro'znomachilar uni eng qobiliyatli va jasoratli yoshlardan deb hisoblardilar. U bilan tortishib o'tirmadim va unga Tursoriya haqida gapirib berdim. - Nega boshqalar bu narsaga e'tibor berishmaydi, hayronman, - dedim gapimning oxirida. - Aslida bu hammaga ko'rinib turgan haqiqat. Kimga Tursoriya haqida gapirsam, elka qisib menga nasihat qilib jo'naydi. - Bu ham manovi suratga o'xshagan narsa, - dedi do'stim yana shartta gapimni bo'lib, menga achingan ko'zlarini tikib borishi chayqab qo'yarkan. - Sen xonangdan manavi buzunchi suratni chiqarib tashla. Shu surat ta'sirida hamma narsani kimdir va nimalardir vayron etgan degan xayolga boradigan bo'lib qolibsang. Men juda katta tarixchi olimlar bilan tanishman, lekin ular og'zidan biron marta ham Tursoriya haqida eshitmaganman. Aslida ham Tursoriya sening xayolingdan boshqa hech joyda yo'q bo'lsa kerak. Sen keyingi paytlarda vasvasachi bo'lib qolibsang. Yaxshisi, mening oldimga ko'chib o't, har qalay, ikki kishi bo'lib yashasa ko'ngil yoziladi.

Men g'azabdan unga baqi....yuborishdan o'zimni zo'rg'a ushlab qoldim. Uni bekatgacha kuzatib qo'ydim. O'sha kechasi Tursoriyani izlab topmasam bo'lmasligini angladim. Uni mana bularga, mening ustimdan kulganlarga, taniqli shoirga, mashhur professorga olamda Tursoriya degan yurt borligini bilmay yashab kelayotganlarga o'chma-o'ch izlab topishim kerak, deb o'yladim. Men Tursoriyasiz yashayotgan professorga ham, ro'znomachi yigitga ham achinib ketdim: nazarimda, osmon quyoshsiz yashay olmagan kabi odam Tursoriyasiz yashashi mumkin emas edi.

Tursoriya meni yana ham ko'proq qiziqтира boshladi va men jild-jild kitoblar yozgan, lekin kmri bir varaq qog'ozga jo bo'ladigan professorning o'gitlari, gazetasini yolg'on-yashiq uydirmalar bilan to'ldirib yuradigan ro'znomachi do'stimning ta'nalaridan so'ng Tursoriyani qaerdan izlashni bilardim: aftidan, Tursoriya professor umri davomida chetlab o'tgan sohilda qolib ketgandi va mening bundan buyongi hayotim Tursoriyani izlab topishimga bog'liq edi. Yana bir narsani bilardimki, Tursoriya men hali dunyoga kelmasdan burun vayron etilgan va men bu dunyoga tashrif buyurgan kunimdan boshlab mana shu xaroba shaharda yashashga, uning vayrona ko'chalarida sarsonu sargardon kezishga majbur bo'lgandim. Tursoriya menga hech tinchlik bermay qo'ydi; dengizda adashib yurgan kemani olis-olislarda ko'ringan mayoq o'ziga chorlagani kabi u ham meni o'ziga chorlardi.

Go'yo umrimning muqaddas tig'iday u har tong va har kech boshim uzra hilpirab turar, kitoblar, odamlar, shubalar, gumonlar, ta'nalar, o'gitlar, umidsizlik, tushkunlik bilan bo'lgan hamda bo'lajak janglarda meni ruhlantirar, uzoq ayriliqdan so'ng sizni kutib olish uchun yo'lga chiqqan va sizni uzoqdan ko'rib durrachasini silkitayotgan qiz kabi xarobalar orasidan menga qarab qo'llarini silkitardi.

Bir vaqtlar baxt va istiqbol yo'lida hijrat etishlaridek men ham ragimning ruhsiz sanamlari, ma'budlari qalashib yotgan vodiysidan uvillab yotgan, xuddi aqlu idrokning vayronasidek yuragim devorida osig'liq turgan bu xaroba shaharni ertangi kunimni yaratganim kabi qayta tiklashim, to'xtab qolgan tegirmon parragini yurdirib yuborishim kerak edi. Kechqurun menga tanish professor qo'ng'iroq qildi: - Menga qarang uka, siz X.ni tanir edingiz. Ehtimol, turar joyini ham bilarsiz? Ikki oydan beri hech bir xabar yo'q. Iltimos nima gapligini aniqlab kelsangiz. Agar shu erda bo'lsa, menga zudlik bilan uchrashsin... Gap ohangidan uning juda xavotirlanayotgani sezilib turardi. Men uni yupatdim: «O'zi qaroq yigit edi. Yurgan bo'lsa kerak. Unaqalarni jin ham urmaydi». U mendan rozilik olgach, dushanba kuni uchrashadigan bo'ldik. Ertasiga men qachonlardir - uch-to'rt yillar chamasi oldin borgan uyni zo'rg'a topib bordim. Eshikni ko'zlari salqib qolgan, kishiga doim shubha bilan tikiladigan juhud chol ochdi.

-

Nihoyat, - dedi u istehzoli tovushda boshini chayqar ekan, - ketganiga qirq kundan oshdi, endi yo'qlayapsizlarmi:! Zap odamlar borda dunyoda, to'satdan o'lib qolsang, suyaging chirib bo'lgach yo'qlab kelishadi! Ha, aytganday, kim kelsa, mana shu xatni berib qo'yinglar deb aytgandi.

Xat bir parcha sarg'ish tusli qog'ozga aji-buji qilib, shoshib yozilgandi: «Men Tursoriyani izlab ketdim. Meni axtarib o'tirmanglar...» Men birdan dahshatga tushdim: yaqinda bir shoir ham devorga «Men so'z izlab ketdim» deb yozib, aqldan ozib qolgandi. - Nima gap ekan? - so'radi uy egasi mening yuzim oqarib ketganini ko'rib. - Hech gap yo'q. U o'zini izlab ketibdi, - dedim izimga qaytarkanman.

## **YALPIZ HIDI**

### **I. SARATON**

Dam olish kuni xonasida kitob o'qib yotgan Samandarning dimog'iga birdan yalpiz solingan sho'rva hidi urildi va sakkiz yasharlik payti bahor kunlarining birida hayotlarining burchagidan otasining bir quchoq yalpiz terib kelgani va onasi kechqurun yalpiz sho'rva qilgani esiga tushdi-yu, kitobni yopib, havoni burniga torta boshladi. So'ng o'rnidan turib, deraza pardasini surdi va u erdan ko'rinib turgan, hali to'la sarg'aymagan daraxtlarni ko'rib, ko'ngli cho'kdi. Bog'ga hafsalasizlik bilan ko'z yugurtirdi. Bog'dagi daraxtlar siyrak, lekin sershox edi; qarovsiz qolganidan bog'ni chirigan chakalakar bosgan, ayni saratonda bu manzara noxush taassurot qoldirar, ko'p yillardan beri quyosh ko'rmas kasal bo'lib yotgan shol kampirning qo'ldek quruq va ko'rimsiz edi. Samandar ulardan nigohini darrov olib qochdi. Shoxlarning sinib, sarg'ayib, mung'ayib yotishini ortiq ko'rgisi kelmadi. Negadir yuragi g'ash bo'ldi. Derazaga yaqin ikkita daraxt uzun marjon shaklida meva qilgan, mevasi hali g'o'r va daraxt tusiga nisbatan yashilroq va yaltiroq edi. Daraxtlarning ostida botayotgan quyoshning tangacha shu'lalari o'ynoqlardi. Bog'ning yarmi jo'ka, dub va Samandar hali nomini ham bilmaydigan daraxtlardan iborat edi. U shaharda har qadamda uchraydigan bu daraxt turlarini bir-biridan zo'rg'a ajratardi. Jo'ka daraxtini uzoq yili ozg'ingina bog'bondan bilib olgandi. Bog'bon ham bog'dagi daraxtlarning ko'pchilligining nomini bilmasdi. U faqat sharqona daraxtlarigina qiynalmay sanay olardi. Samandar esa yoshligidan tanish bo'lib qolgan olcha, olma, shaftoli va yong'oq laraxtlarigina tanalariga qarab ajratib berardi. Biroq

bog'ga daraxtlar aralash-quralash ekib tashlangan va u bog'dan ko'ra allanechuk qarovsiz xiyobonga o'xshab ketar, mevali daraxtlar deyarli yo'q edi. Samandar derazaga yaqin, hali mevasi qizarar-qizarmas bog' ichidan o'tayotgan maktab bolalari talab ketadigan olcha daraxtini va panjara to'siqqa qavatma-qavat ekilgan, lekin hech qachon yolchitib meva qilmaydigan jiyda daraxtini yoqtirardi. Olcha daraxtining tanasi keksalarga xos g'adir-budir, sershox, sermeva edi.

Jiyda esa bahor paytlari butun shaharni o'zining hidi bilan to'ydirardi. Samandar derazadan ko'rinayotgan olcha daraxtining narigi betdagi osmonga tutashib ketgan yuqori qismidagi barglarining sarg'aya boshlaganini ko'rди. Shohda barglar qator tizilgandi va Samandarga yaqin bo'lgani uchun osmonni tilimlab turgan dastasiz xanjarga, barglari esa osmon sahnida ulkan moviy ko'lga bir-birining tumshug'idan bog'lab, qator terib qo'yilgan kichkina qayiqchalarga o'xshardi. Bu hozir Samandarga boshi og'rib turgani uchun yoqimli manzaradek bo'lib tuyuldi. Hatto barglarning qayiqchalarga o'xshashini kashf etganidan xursand bo'lib ketdi. Barglarning xuddi dengiz to'lqinida sollarib turgan qayiqlardek tebranib turganini va osmonning juda ham moviy, bog'ning bo'm-bo'sh, daraxtlarning sukutda ekani bir zum juda noyob go'zallikday bo'lib tuyuldi. Hozir Samandarning qulog'iga nariroqdagi katta yo'ldan tramvay va trolleybuslarning taqa-tuqlab yoki guvillagancha o'tib borayotgani ham, mashinalarning signali ham, bolalar bog'chasidan kelayotgan shovqini ham kirmasdi: u hozir mana shu noyob go'zallikni butun ongiga, shuuriga singdirmoqchidek, faqat bog' ichida daraxtlar va barglar shitirigagina butun e'tiborini jalb etgandi. Jo'ka daraxtining quyosh tegib turgan qismi sarg'ish tusda, boshqa qismlari qoramtir-pistoqi tusga kirganini anglab qoldi. Jo'ka daraxtining serbarg novdalari orasida uning shoxlari deyarli ko'zga tashlanmas, daraxt u turgan derazadan yarmi qora, yarmi sariqqa bo'yalgan eski gumbazga o'xshab ko'rinardi. Samandar bir haftacha oldin K. maydonidagi xiyobonga borganini esladi. Xiyobonda hali hamma narsa yam-yashil, go'yo bahor hali ketmagandek, gullar ochilgan, archalar xushbo'y hid taratgan, maysalarda namchil taft bor edi. Xiyobon shu darajada go'zal, rutubatli, har xil rangga belangan ajib bir manzaraga ega ediki, ayniqsa, quyosh botgan mahali bu manzara yana ham go'zallashar, ko'zlarini yashnatib, yurakni qitiqlardi. Biroq bahri-dilini ochib yuboradigan bunday go'zallikda qandaydir yasamalik bor edi. Samandar bu go'zallik o'ziga yuqmaganini sezdi. Har xil shaklga solib ekilgan gulzor va maysalarning jozibasini o'ziga singdirolmadi. U maysalar ichida yoki archalarning doimo soya tushganidan zax bo'lib qolgan joylarida bironta ham begona, yovvoyi, o'z xolicha o'sib yotgan o'tlarni ko'rmadi. Hatto ko'm-ko'k bo'lib oqayotgan xiyobon ichidagi kichkina jilg'achaning atrofi ham juda e'tibor bilan tozalangan va tartibga keltirilgan edi. To'rt burchak shaklidagi maydonda maysalar qulf urib yashnab yotardi. Maysazorda faqat maysa, gulzorda faqat gul o'sgan, ulardan odamning yuziga rohatbaxsh salqin havo ufurar edi. O'sha kuni Samandar xuddi hozirgiday qishlog'ining chekkasidagi doimo suv sizib yotganidan naq changalzorga aylangan va yovvoyi gullarga burkangan to'qayni eslagandi. To'qayda maysalar tovon urar, har xil gullar aralash dastalari suvga qoniqib, butun bir to'qayni hidi bilan mast qilib turgan, tarsillagan yovvoyi yalpizlarni, pechakgul va shamakgullarni, to'qaydagi yulg'un, zirak va xarsanglar soyasida oftob tegmaganidan sarg'ish tusga kirgan qoqigullarni eslagandi. Negadir bolaligida unga qadrli bo'lmagan to'qaydagi o'sha anvoyi gullar, endi hatto o'simliklari, gullari ham tartib bilan o'sadigan shaharda unga allanechuk ardoqli bo'lib tuyulardi.

U balkim bir hafta oldin qishlog'ining chetidagi to'qayda o'sadigan bo'liq yalpizlarni eslagan va so'ng unutgani uchun o'sha kuni yuzaga chiqar-chiqmas, yana yashiringan - hali o'zi ham nima deb atashni bilmagan botiniy tuyg'ulari va xotiralar bugun kitob o'qib yotganida o'z-o'zidan shuurini band etib, bir zum suvga yashiringan po'kakdek xayoliga lip etib qalqib chiqqanu, unga yalpiz solingan sho'rva hidini eslatgandir? Har qalay, Samandar yalpiz solingan sho'rva hidini qo'msardi. Shu sababli bo'lsa kerak, uying orqasidagi bolalar bog'chasiga qarashli qarovsiz bog' uning ko'ngliga yaqinroq edi. Yo'q, u qariyb sakkiz yildan beri shu erda yashayotgani uchun bu bog' qadrdon emasdi, balki, o'sha, hatto odam tushuntirib bera olmaydigan, maysalar bilan gullar o'rtasidagi hali butkul chegara o'rnatilmagan, o'simliklar o'z erkicha o'sib yotgan, ba'zi kunlari derazani ochib, ishlab o'tirganida yalpiz hidi kelib qolgani uchun mana shu qarovsiz bog' Samandarning ko'ngli va xotiralariga yaqin edi.

O'shanda u birinchi sinfni tugatayotgandi. Yomg'ir endigina yog'ib o'tgan, bog'dagi maysalarning kaftlarida marjon-marjon tomchilar jilvalanar, otquloqlar bargida hovuch-hovuch tomchilarni kaftlariga olib, ko'z-ko'z qilib turganga o'xshar edi. Otasi bilan hayotning otxona joylashgan qismiga borguncha kichkina etigi xuddi yap-yangiday yaltirab qolgan, bundan suyunib ketgan Samandar hayotdagi o'tlarga etigini tobora ko'proq ishqab yaltiragan, uzun choponining jiqqa ho'l bo'lguncha o'tlar ichida mastona-mastona ag'nagandi. O'shanda otasi otxona devori ostidan bir quchoq yalpiz terib olgan va onasi kechqurun yalpiz barglarini solib sho'rva qilgandi. Yalpizlarning dastasi bo'liq va sersuv edi. Samandar o'sha kungi sho'rva ta'mini boshqa hech qaerda tuymadi va juda ko'p qo'msadi. Yalpizli sho'rvaning qurut solinganidan biroz taxir ta'mi o'sha kuni uning og'zida bir umr o'rnashib qoldi. Onasi keyinchalik ham yalpiz solingan sho'rva qilib bergan, lekin hech qaysisi o'sha kundagiday Samandarga xushta'm tuyulmagan va darrov esidan chiqib ketgandi.

Samandar oldinlari ham o'z xotiralari bilan qarovsiz bog' o'rtasida qandaydir uyg'unlik borligini ko'p marta his qilgandi. Lekin bu qanday uyg'unlik vav qanday o'xshashlik ekanligini o'zi ham bilmasdi. Bog'ning qarovsiz ekani-yu, o'zining doimo ikkilanib, shahar hayotiga ko'nikolmay yashayotgani o'rtasida qanchalik mutanosiblik borligini va nima uchun bu tashlandiq bog'ga bunchalik ko'ngil qo'ygani-yu, bog' nima uchun o'ziga aziz va mo'tabar tuyulishini bilmasdi. Lekin keyingi oylardan bog' uning birdan-bir hamdardi, uning so'zsiz suhbatdoshiga aylandi. Ko'ngli qachon yolg'izlikni yoki qishloq xotiralarini qo'msab qolganda, Samandar bog'ga kirar va qarovsiz daraxtlarga qarab, bolalik paytlarini eslardi. Samandar daraxtlardan anqiydigan chirkin hidni tuyar ekan, novdalarga, shox-shabbalarga, xazon uyumlariga to'lib yotgan, daraxtlari bo'talab ketgan bu bog' unga har qanday so'lim va bejirim xiyobonlardan go'zalroq tuyulardi. Kuz yoki bahor paytlari shaharga adashib kirib qolgan dovullar, bog'dagi keksa daraxtlarning shoxlarini, qasir-qusur sindirar ekan, Samandarning ko'nglida ham nimalardir qasi-qisirlab ketardi. Shunday paytlari uyqusi uchib, tuni bilan bezovta bo'lib chiqar va ertalab bekatga chiqa turib, dovulga dosh berolmagan shoxlarning mag'lub botirning singan nayzasiday erga osilib turganini ko'rardi; shunday lahzalarda daraxtlarga azbaroyi rahmi kelganidan, bu yildan boshlab bog'ga bog'bon tayinlashlarini so'rayman, deb ahd qilardi.

Jikkakkina bog'bon esa uch yil oldin qazo qilgandi. Undan keyin bog' o'z xarajatini qoplolmagani uchun tashlandiq bo'lib qoldi. Lekin bahor kelishi bilan bog' yovvoyi gullarning va yam-yashil daraxtlarning nafis-muattar hidlariga to'lib ketar ekan,

Samandar hamisha o'z ahdini unutib qo'yar va bog'ning go'zalligiga maftun bo'lib qolardi. Daraxtlar shu darajada zich, tarvaqaylab ketgan ediki, singan-chirigan novdalaru yam-yashil barglar, rango-rang gullar ichida daraxtning o'zi ko'rinmay qolardi. Ba'zan bu erdan bir ikkita adashib chiqib qolgan yalpizni ham topish mumkin edi. Bog'da yovvoyi gullar ko'p edi. Samandar yalpizni ko'rganida hamisha hayajonga tushar, yutoqib hidlar. Ko'nglida jo'sh urgan xotiralar cho'g'iga shu bilan suv sepmoqchi bo'lardi. Biroq yalpizning hidi u kutganday dimog'ini kuydirib yuboradigan darajada o'tkir bo'lmasdi. Aksincha, yalpizda ko'proq zax hidi o'rnashib qolgan edi. Shunda Samandar beixtiyor otasi otxona devori ostidan terib kelgan yalpizlarni va yalpiz solingan sho'rva hidini eslardi va kechki paytlari bog'da sayr qilishni yaxshi ko'rardi. Shoxlar tarvaqaylab ketganidan bog' ichidagi yo'lkalar ham yopilib qolgan, Samandar bog'ni aylanib narigi tomonga o'tardi. U tomondan bog'ning ichiga kiradigan yo'l ochiq edi. Bog' o'z keksaligi va tashlandiq ekanligini odamlardan yashirish uchun atrofni shox-shabba bilan o'rab tashlagandek edi. Bu erda yo'lak bo'ylab, tig'iz qilib po'stlog'idan hamisha rutubat anqib turadigan teraklar ekilgan, yo'lak orqali bog' to'riga kirish va bolut daraxti ostida o'tirib bermalol xayol surish mumkin edi. Samandar o'tirg'ichda soatlab kitob o'qir ekan, goh jiyda, goh dubdan taralayotgan sokin ko'klam hidi yoki yovvoyi gullarning anvoyi hidini sezardi. Bunday paytlari chirkin shox-shabba va xazonlarning ham hidi xushbo'y bo'lib ketardi. Daraxt shoxlarida munchoqday-munchoqday yomg'ir tomchilari barglarning qorachiqi kabi o'ynab, yaltirab turardi. Ba'zan tomchilar barglariga sirg'alarday osilib olardi. Samandar bu erda o'zini erkin his qilar, har qanday xushtu-xayollariga erk bera olardi. Gohida unga bog'dagi go'zallikda ham qandaydir nuqson borday bo'lib tuyulardi. Bu qanday nuqson ekanligini uning o'zi ham bimasdi. Samandar qishloqdan shaharga kelgan paytlarini, u paytdagi tuyg'ularining naqadar pokligini va hayotga zavq-shavq, hayrat bilan qaraganini armon bilan eslardi. U ishga borar, vaqtida qaytardi, mana etti yildan beri xuddi shu ahvol edi. Ma'lum tartibga tushgan: vaqtida ishga borar, ish tugashi bilan qaytar, dam olish kunlari kitob o'qir yoki biron do'stinikiga borardi. Etti yillik tarjimai holi mana shu bitta jumladan iborat edi. Keyingi yillarda o'zidan norozi bo'la boshlagandi. U o'z hayotidan qoniqmas, umrining kun bilan tunning o'zgarishiday bir xil ekanligi uni tobora hafsalasiz qilib qo'ygan, tez-tez qishloq xotiralariga berilib ketardi. Xotiraga berilish bilan tezda gup etib yalpiz solingan sho'rva hidi dimog'iga urilar va beixtiyor hapqirib ketardi. Shunda birdan yuragida har xil tuyg'ular g'alayon qilib qolar, u erda iznsiz dovullar boshlanar, to'rt tomoni ham devor bo'lgan katalakdek uyda yuragi siqilib ketar va sekin boqqa chiqardi; oq, harir gulbarglarning xuddi qush patiday uchib tushishlarini va so'ng jajji qushlar kabi ohista erga qo'nishini ko'rib, bu bir lahzalik go'zallikdan ko'ngli zavq-shavqqa to'lib ketar, umrining behuda o'tayotgani haqidagi o'y-xayoldan asta-sekin forig'lanib borardi. Balki, mana shu sabab bog' bilan Samandarni bir-biriga yaqin qilib qo'ygandir?! Bog' ham Samandarning nazarida unga o'rganib qolganday edi. Uch yildan beri u bilan suhbatlashar va Samandar o'zi engil tortgani sayin bog' ham tashlandiqligini unutayapti, menga dardlarini aytib berayapti deb o'ylardi. Chunki u kirganda daraxtlar unga nelardir deb, shivirlay boshlardi va uning ko'ngli ham ovozsiz shitir-shitirlarga, chah-chahlarga to'lib ketardi. Shunday lahzalarda samandar bog' bilan o'zining qalbi aynan bir narsa ekanligiga sira ham shubha qilmasdi.

Samandar otasining otxona devori tagidan yalpiz terib kelganini va o'zining barra gul bedaga to'choponi ho'l bo'lguncha ag'naganini, maysa qulog'idagi yomg'ir tomchilari uning bo'ynidan ichiga tushib, qitig'i kelganini orziqib eslardi. Bedaga ag'nagani xuddi lyapiz solingan sho'rva hididay uning e'zozli xotiralaridan biri edi. U boshqa, hech qaerda, hech qachon o'sha kungiday zavq bilan, shodligidan qiyqirib, o'zini batamom

baxtli va erkin his etmadi. Talabalik yillari toqqa chiqib, maysalarni ko'rganda bolaligi tutib ketgan, maysalarga mastona-mastona ag'nagandi, lekin bu ag'nash unga bedaga ag'naganchalik zavq bermagandi. Bog'dagi maysalarning qulf urib yashnab yotganini ko'rganda Samandarning yoshlik xumori tutib ketar, lekin u endi bola emas edi, atrofdagi baland-baland binolardan ayollar va erkaklar ermak uchun shunchaki bog'ni tomosha qilib o'tirishar va esnab qo'yishardi. Mana endi bu manzaralar u odatdagiday dam olish kunlarining birida kitob o'qib yotganida, bulut ichiga yashiringan quyosh kabi xayoliga balqib chiqqan va butun xotiralarini yoritib yuborgan hamda goh bolalikka, goh otasi yalpiz terib kelgan olis oqshomga, goh qarovsiz qolgan boqqa o'xshab ketadigan ajib bir xotiraning torini chertib yuborgandi. Samandar bu torning ko'nglida borligini ilgarilari ham sezgandi. Endi esa bu o'ychan va xazin ohangga qo'shilib, o'zi ham sarkashlik va o'yinqaroqlik bilan o'tgan, lekin hozirgiga qaraganda mazmunliroq va baxtliroq bo'lgan bolalik ko'chalariga va o'sha olis oqshomga mana bu tashlandiq bog' orqali o'tib borardi. Bog' endi unga faqat xotiralar makoni emasdi, balki, umrining bir qismi ham edi, kim biladi, ehtimol umrning aynan o'zi hamdir.

## II. HAZONREZ

Kuz qanday kelganini Samandar deyarli sezmay ham qoldi. Mezon oyining boshlarida safarga ketdiyu, o'n kunlardan so'ng qaytib keldi. U qaytib kelgan kuni shaharga yomg'ir yoqqandi. Yomg'ir shu darajada engil yog'gandiki, ediki, go'yo kimdir butun shahar ustiga ho'l ro'molchasini bir silkitib olganday edi. Shahardagi daraxtlar hali o'z rangini yo'qotmagandi. U kechqurun bog' aylangani chiqdi-yu, tong qoldi: bu erda kuz allaqachon boshlangan, qurigan novdalar chirt-chirt uzilib tushardi. Endi bog' yozdagidan ham ko'ra ayanchli tusda edi. Yomg'ir tafti aralash er hidi kelayotgan bo'lsa-da, Samandar ko'proq kuyindi hidini sezardi. Bu hid farrosh ayol bolalar bog'chasi atrofini supurayotganda bog'dan uchib borgan xazonlarni yoqib yuborgan joydan - kekxa yong'oq daraxti tagidan kelayotgandi. Samandarga bu hid noxush narsadan darakchi bo'lib tuyuldi. Bir haftalardan so'ng stolida uch dona nomozshom gulining so'lib yotganini ko'rди-yu, nogahon kuz kelganini va bunga o'zining ishongisi kelmayotganini angladi. Gullarni uch kun oldin qizi bolalar bog'chasidan - gulzordan uzib kelgandi, so'ng otasiga maqtanib ko'rsatgan edi: qizi gulni hadeb iskardi. Samandar hatto aqli etmagan go'dak ham go'zallikka bunchalar shaydo bo'lishini ko'rib, hayajonlanib ketgandi. Qizining yuzi ham endigina ochilgan g'unchaday yashnab turardi; qizi uning kitoblari bilan ovora bo'lib, gulni stol ustida unutib qoldirgan, u keltirganda gullarning sarg'ish gulbarglari hali so'lim edi. Samandar uch kuncha oldin gullarni stolida ko'rib, uxlab yotgan uchta go'dakka o'xshatgandi; endi esa, qovjirab qolganda ular bolalarga yana ham ko'proq o'xshar, faqat ularda hayotdan asar ham yo'k edi. Gullar qurib, malla tusga kirgandi. Samandarning ularga ko'ngli achishdi-yu, stoli ustidan olib tashlagisi kelmadi; gullarning bironta ham bargi to'kilmagandi, ular o'lim bilan mardonavor jang qilgandi. Bu yil kuz, uning nazarida, boshqacha keldi. Endi to'kilayotgan xazonlarni u kuzning tiriklik va o'lim haqidagi qasidasi deb emas, balki harir ko'ylak kiygan, xayolidagi va bog'dagi musiqaga mos raqs tushayotgan farishtalar deb o'ylay boshladi.

Samandar kechqurunlari ishdan qaytar ekan, trolleybus derazasidan barglarning qanday to'kilayotganini ko'rib, yuragi orziqar, ularning bunchalik tez to'kilayotganidan hayratga tushardi. Avtobus va trolleybus sharpasidan yo'l bo'yidagi daraxtlarning barglari duv to'kildirdi. Kechki quyosh shu'lasida Samandar barglarning qanday yaltirab ketganini va



havoda uzoq pirpirab turganini ko'rganda, bir paytlar qandaydir kinoda ko'rgan dengiz chag'alaylari esiga tushardi. Chag'alaylar ham ko'm-ko'k dengiz ustida og'irliklarini goh u- goh bu qanotiga solib uchar va tongi quyoshda ularning oppoq qanotlari jilvalanib ketardi. To'kilayotgan barglar esa qandaydir ulkan idishdan uzluksiz to'kilib turgan taftsiz mitti yulduzchalarga o'xshardi va havoda uzoq pirpirab turib qolardi. Samandar shunda tanish yosh shoirning kuz haqidagi satrlarini eslardi va xayolan bu satrlarni takrorlar ekan, she'rdagi tashbehdan hamisha hayajonga tushardi.

Ba'zida derazadan saratonda o'zi bir-biriga tumshuqlarini tirab, bog'lab qo'yilgan qayiqlarga o'xshatgan shox endi ship-shiydam bo'lib qolganini ko'rib, qayiqlar dengiz bo'ylab qayoqqadir suzib ketgan, ko'rfaz bo'shab, endi faqat feruza dengizgina qoldi deb o'ylardi. Bu dengizda ham tez-tez bo'ronlar bo'lib turar, uni qop-qora dovullar qoplar, qiyqirganlarida to'da-to'da bulutlarni qaygadir quvib o'tib qolar, jala payti esa bog'dagi xazonlar rostdan ham qayiqchalar kabi qayoqqadir oqib jo'nardi.

Samandar ko'ngliga oqib kirayotgan shu taxlit kechinmalardan o'zini mast bo'lib qolgandek sezardi. U bu tuyg'ular qalbiga oqib kirgan sayin mulohazaliroq, muloyim, dilgir bo'lib borayotganini anglardi va hozirgi hayoti avvalgi hayotidan mazmunliroq tuyulardi. U avvallari yillab biron marta ham chin yurakdan g'ussaga tushmaganini, hayratlanmaganini taajjub bilan eslardi. Vaholanki, o'shanda ham shu bog' bor edi. Kuz o'shanda ham xuddi shunday sirli tuyulardi. Sababini o'ylardi-yu, tagiga eta olmasdi, lekin mening bunchalik xazonrishta bo'lib qolishimga o'sha saratondagi yalpiz solingan sho'rva hidini eslaganim sababchi bo'ldi, bo'lmasa, men bu olamda g'aflatda o'tib ketardim. Bu go'zalliklarni sezmay qolardim, deb o'ylay boshlardi. Ba'zida esa kuz ham, bog'dagi sukunat ham, xazonlarning raqsga tushayotgani ham, ko'nglidagi kechinmalar ham va o'zi his etayotgan botiniy go'zallik ham - hammasi ko'nglidagi o'sha tuganmas qo'shiqning davomiday bo'lib tuyular va o'sha qo'shiq ko'nglini endi tobora zabt etib olayotganini sezib qolardi. U kuzning asta-sekin uyiga ham bostirib kirayotganini daf'atan sezib qoldi. Bir oycha oldin xazon bog'ning o'zida uyilib yotganini ko'rgandi. Bir necha kundan so'ng esa xazon uy bilan bog'ni ajratib turgan panjaradan o'tib, yo'lkaga ham sirg'alib o'tganini ko'rди. Bir haftadan so'ng esa kechasi dovul bo'ldi. Ertalab u ishga o'tlanayotganida dahlizda ikkita xazon yotganini ko'rib qoldi va shunda kuz hatto uyga ham bostirib kirganidan xursand bo'lib ketdi. Xotini esa uning kechasi derazani ochiq qoldirganidan norozi bo'lib, xazonlarni supurib oldi-da, axlat chelakka tashlab yubordi, so'ng xuddi yuqumli kasallikning joyini tozalayotgandek dahlizni yaxshilab artdi. Samandar shunda bu xazonlar bog'dan mening uyimga madad izlab uchib kelgan degan o'yga bordi. Lekin bu o'yini xotinigaga aytib masxara bo'lishdan qo'rqdi.

Samandar bir kechasi deraza qattiq taqillashidan uyg'onib ketdi. U yotgan joyidan shoshib turdi-yu, garangsib derazani va yupqa yog'och to'siqni ochdi, yuziga yomg'ir hidi, so'ng tomchilar urildi. U zim-ziyo tunda derazani qoqqan kishini qidirib alangladi, lekin hech kim yo'q edi. Shunda u deraza mening xayolimda taqillagan deb o'ylab, xotirjam tortdi. Biroq ertasiga yana kimdir derazani shoshib qoqdi. Samandar derazani ochib hech kimni ko'rmadi. Yana yomg'ir aralash xazon hidini sezdi va endi o'zidan xavfsiray boshladi. Faqat uchinchi kungina «bezori»ni tutishga muvaffaq bo'ldik bu - derazasi yonida o'sgan kekxa o'rikning shoxchasi edi. Shamol turganda shoxcha silkinib derazani taqillatardi. Samandar shoxchani ushlab ko'rib, uning g'adir-budir, sovuq ekanini sezdi: shoxchada hayot asari sezilmasdi. Azbaroyi shoxchaga rahmi kelganidan uning bandini bir-ikki siladi-yu, shoxchaga teginmadi. Uning nazarida kuz o'zini bezovta

qilishga haqqi borday edi. Shoxcha o'zini eslaganidan xursand ham bo'ldi. Bir kuni ishdan qaytganida shoxchani uzib olinganini, qora chirik po'stlog'i qo'li kesib olingan engday osilib turganini ko'rdi-yu, bu xotining ishi ekanini bildi. Ertalab xotini bir haftadan beri deraza taqillashidan uxlay olmay chiqayotganidan nolingan edi. Samandar shunda xotini bilan o'zi orasida katta jar paydo bo'layotganini angladi: bu jar tobora kattalashib borardi, nazarida xotini hech qachon o'zini tushunmaganday tuyulib ketdi. "Go'zallikni bo'g'ib qo'yish ham, go'zallikka nisbatan kuch ishlatish ham er yuzidan hayot ildizlarini sug'urib tashlash bilan barobardir", - deya o'yladi Samandar qandaydir kitobdan o'qigan so'zlarini xotirlab. Samandar shu kunlarda butun vujudiga qaydandir kelayotgan xazin ohanglar singib borayotganini sezardi, bu ohanglar qarovsiz bog'dan taralayotganday edi.

Samandar vujudida qandaydir tarang tortilgan torlar boru, torlar bog'dan kelayotgan ohanglarga aks-sado berayotganday tuyulardi. Ba'zan torlar go'yo tanbur torlariday g'o'ng'illab ketardi. Ba'zida esa yomg'irning bog'ni hafসা bilan cho'miltirayotganini derazadan tomosha qilib turar ekan, yomg'ir o'zining ko'nglidagi g'uborlarni ham yuvib ketayotganini his etardi.

Oktyabrning ikkinchi haftasida kun birdan isib ketdi. Erdan, ayniqsa. bog'dan bug' va hovur ko'tarildi. Hovurdan chirik xazon hidi anqirdi. Hatto odamlar ko'ylakchan yura boshlashdi. Bu mavridsiz haroratga aldangan bog'ning chekkasidagi maysalar yana qaytadan yam-yashil bo'lib bosh ko'tardi. Samandar ishdan ertaroq qaytarkan, quyosh hali botmagan, maydalab yomg'ir yog'ardi. Butun shahar rutubat qo'ynida edi. Samandar ishxona yonidagi xiyobon oralab keta boshladi. Xiyobon o'rtasidagi favvora atrofida odamlar gavjum edi. Yomg'ir tomchilari boshqa kundagiga nisbatan bugun negadir odamlarning zavqini qo'zg'atib yuborgandi.

Tomchilar yuzlardan oqib, yoqalarining ichiga kirib ketayotgan bo'lsa ham negadir hech kim junjikmasdi. Yomg'ir tomchilari iliq va rohatbaxsh edi. Samandar favvora yonida tomchilarga kaftini tutib turgan yashil yomg'irpo'shli etti-sakkiz yashar bolaning boshida tojday porlab turgan kamalak yoyini ko'rib, hayratlanib bir zum yo'lak o'rtasida to'xtab qoldi. Kamalak bolaning boshida tojday yaraqlar va tomchilar fonida to'vus patiday jimirlab ketar edi. Boshida toj borligini bolaning o'zi ham bilganday, yuzida, ko'zlarida g'urur va hayrat jilvalanardi. Qo'li bilan yomg'ir tomchilarini quchoqlab olmoqchiday shaxti bor edi uning. Saldan keyin bola katak-katak soyabon ko'targan onasi bilan zinadan ko'tarilib ketayotganda kamalak yoyi bolaning beliga osilib qoldi. Bu go'zal manzara edi. Bola ham yomg'ir tomchilariga yuzini tutish uchun bir zum to'xtaganda kamalak bolaning yomg'irpo'shi bilan uyg'unlashib, yaxlit bir surat yasadi. Endi kamalak bolaning belida qilichday osilib turardi. Bola esa onasining tortqilashlariga qaramay hamon yuzini osmonga tutib turar, belida esa rangin shamshir o'ynoqlar, bola harakatiga mos qilich bir yo'qolib, bir paydo bo'lardi. Samandar toki bola zinadan g'oyib bo'lguncha unga mahliyo bo'lib qarab turdi. U ko'pdan beri bunday manzarani ko'rmagandi. Ko'rgan bo'lsa ham parvo qilmagandi; olti oycha oldin tabiat in'omi bo'lmish har bir manzarada insonni poklaydigan qandaydir sinoat bor deyishsa, u o'sha kishining ustidan mazax qilib kulgan bo'lardi; hozir esa tashlandiq boqqa qarab, o'zini kashf etar ekan, g'aflatda bunchalik uzoq qolib ketganiga hayron bo'lardi. Kamalak endi zinaning o'zida qolgan va engil hilpirab turardi. Samandar xiyobondagi favvoralarda paydo bo'lgan yana bir necha kamalakka ko'zi tushdi. Favvoralar yuqoriga otilar ekan, yomg'ir tomchilariga urilar, yomg'ir tomchilari esa o'zidan rang-barang kamalaklarni

taratardi. Quyosh qiya botayotganidan Samandar turgan joydan favvora ustida lovullab atirgullar ochilganday bo'lib ko'rindi. Faqat bu atirgullarning gulbarglari turli rangda edi. Favvora atirguli yomg'ir tomchilarini engib, bir yuqoriga ko'tarilar, shunda atirgulning yashil gulbarglari ko'payar, bir pasga sollanib egilar va qizil gulbarglari lovullab ketardi. Samandar bir necha soniya qotib turdi va yuragi hapqirib ketdi, nazarida favvora ustiga osmondan quchoq-quchoq atirgullar yog'ilyotganday bo'ldi. Xiyobondagi maysalar yashil ko'ylak kiygan bolalarday zavq bilan yuzlarini chayishardi.

Samandar bekat tomon borar ekan, yana ikki marta burilib favvoraga qaradi. Endi u yerda kamalak jilvalanmasdi.

Samandar keyingi kunlarda ham shu manzaralar ta'sirida yurdi. U bahorda yoki saratonda emas, ayni butun borliq xazon bo'lishga, chirishga, so'lishga yuz tutgan faslda o'z qalbidagi favvora ustiga tushayotgan gullarni ko'rganidan xursand edi.

### **III. BAHOR GULLARI**

«Buyuklik va go'zallik hamisha yonma-yon tursa kerak», deb o'ylay boshladi Samandar shaharda o'riklar gullab, yo'laklarni oq-qizg'ish gulbarglar qoplab olgan va ko'nglida o'zidan ko'ra ulug'roq bir shijoat uyg'onayotganini anglagan, har bir go'zallik butun tarovati va fusunkorligi bilan ko'ngliga oqib kirayotganini his etgan paytlar Bog' bahor kelishi bilan birdan o'zgacha yashillanib jo'nagandi. Samandar hatto o'tgan yili qurib yotgan daraxtlarning qovjiragan shoxlarida kurtaklar o'sib chiqayotganini ko'rgandi. Garchi chirkin hidi hamon taralib turgan bo'lsa ham, endi bog'dan ko'proq ko'kat hidi kelardi; bir yovvoyi g'urur bilan ochilib yashnagan anvoyi gullar ham bog'ga o'zgacha fusunkorlik bag'ishlangandi. Gullarni, ayniqsa, yalpizni ko'rganda Samandar zavqlanib ketardi. Yalpizlar ham bu yil har yilgidan ko'proq edi. Bolalar bog'chasidan oqib kelib, bog'ning etagini aylanib o'tadigan ariqcha atrofida bir qulochcha joyda yalpizlar gurillab o'sib chiqqandi. Bu joy kekxa jo'ka daraxtining orqasida, ko'zdan pana joyda bo'lgani uchun yalpizni bu yil hech kim yulib tashlamagandi. Samandar bog'dagi go'zallikdan ruhi tiniqlashib borayotganini sezardi. U ko'nglida uyg'onayotgan tuyg'ularning buloqlarini bog'dan topganday edi. Endi u har kuni bog'ga chiqar va yarim soatcha bog'ni aylanar, ko'nglida birdan hech kimga aytib bo'lmaydigan kechinmalar paydo bo'layotganini his etardi; bu kechinmalar shunchalik nafis ediki, Samandar bu nafislikni bexosdan yo'qotib qo'yishdan qo'rqqanidan ohista qadamlar bilan yurar: ko'ksida juda nozik gullardan terilgan guldastani ko'tarib yurganga o'xshardi.

Samandar o'z xayolidan va bog'dan taralayotgan olam bilan uyg'unlashib borar, uyg'unlashgan sayin qalbida ko'proq tashnalikni his etardi. Samandar bir necha oydan beri zarif tuyg'ular bilan yashardi, u bu tuyg'ularni qayta yo'qotib qo'yishdan qo'rqqar va shuning uchun har lahza qarshisidagi qarovsiz bog'ning bitta go'zal tomonini kashf etar va tobora u bilan uyg'unlashib borardi.

Bir kuni ishdan qaytib, xotiniga xonasini bog'ga qaragan derazasi oldiga joy qildirdi: stolni taxtlab bo'lgach, oromkursiga cho'kkancha, bog'ni tomosha qila boshladi.

Xotini choy olib keldi; izidan o'zi ham kursi keltirdi-da, erining yonida o'tirdi. To'siq-panjara bilan qator qilib ekilgan, lekin qarovsizligidan shoxlari panjaralardan oshib tushgan gullar ulardan atigi bir necha qadam narida yashnab yotardi.

- Gullar negadir bu yil boshqacha ochildi, - dedi xotini unga qaramay. - Negadir bu yil ko'ngilga juda yaqindek tuyulayapti.

- Har yili ham shunday ochilardi, - dedi Samandar, - faqat biz e'tibor bermasdik.  
- Bilmadim. Har qalay, bu yil juda boshqacha, - dedi xotini, - qarab tursang, har bir gul panjaralardan boshini uzatib qarayotgan qizaloqlarga o'xshab ketadi.  
- To'g'ri, ular bilan bolalar o'rtasida qandaydir o'xshashlik bor, - Samandar xotini topqirligidan zavqlanib ketib, unga kulib qarab qo'ydi. Xotini uning gapini deyarli eshitmadi ham. U o'zining taassurotlarini birdan gapirib qolishga oshiqardi, chog'i.  
- Qarab tursangiz, gullar ham bir-biri bilan juda berilib gaplashayotganga o'xshaydi; - dedi yana xotini, - qulog'ingga qiqir-qiqir kulganlari eshitilgandek bo'ladi, agar biron gul tebranib qolsa, hammasi birga qo'shilib tebranishadi.  
- Gullar ham xuddi biz kabi yashaydi. To'g'ri, bizga qaraganda qisqaroq, lekin yashaydi. Oldinlari gulni ma'shuqa qizga o'xshatishgan. Qarang, qanday go'zal. Samandar aruzdagi ikki baytni barmoq ohangiga solib o'qidi.  
- Bu kimdan? Bizda odamni gulga o'xshatmaydi, shekilli, - dedi xotini, - men odamni gulga o'xshatishni qandaydir yapon yozuvchisidan o'qiganman.  
- Boburdan. Men ham ilgari shunday o'ylardim, - dedi Samandar va xotini bir paytlari o'zi bilan adabiyotlarga munosabat masalasida hech kelisha olmaganini esladi. - Lekin to'qqiz oy oldin Navoiyni o'qiy boshlagach, bu fikrimdan qaytdim.  
- Odam gulni ko'rganda ko'nglida nimadir tug'iladi-yu, so'ng darrov yo'qoladi, aftidan, u yo'qolmasa kerak, bizning o'zimiz unutsak kerak, - dedi xotini yana gulzorga qarab. Samandar xotiniga hayratlanib qaradi.  
- Ba'zida gulni ko'rganda ko'ngling shunday yashnab ketadiki, birdan yasharib qolganday his etasan o'zingni. Shunda o'zing-o'zingga xunuk ko'rinib ketasan, birdan boshqacha yashaging kelib qoladi.

Samandar xotiniga battar hayratlanib boqdi. Chunki xotini uning ko'nglida kechayotgan, u bir necha oydan beri tushunib etolmagan narsalarni juda sodda qilib tushuntirib bergan edi. Birdan xotini bilan o'zi o'rtasida jar qurgan o'sha kuz oqshomini esladi. Balkim, o'sha jar ularni ayri-ayri qilib yaqinlashtirgandir? Jar ko'p narsalarga to'siq bo'lgan-u, lekin ularning aynan bir narsani his etishlariga, aynan bir narsa haqida bir xil fikrga kelishlariga yo'l ochib bergandir? Har qalay, Samandar hozir hijolat tortdi.  
- Rostdan ham, oq atirgul go'zal bir qizga o'xshaydi, - dedi u o'zining qizarib ketganini xotinidan yashirish uchun. - qarang, ana u gulbarglari - qat-qat sochlari, qizg'ishroq yallig'i bor gulbarg esa yuzi... Soch yuzni ohista hovuchlab turibdi... go'zal bir hikoya chiqarkan... Nima dedingiz? So'zga usta bo'lsam, o'zim yozardim.  
Xotini unga yayrab tikildi. Samandarning hayajoni unga ham ko'chgandi, yuzi qizil tuman changlanib ketgandayin, kuchsizgina qizardi.  
Qizi eshikdan yugurib kirib, o'zini onasining quchog'iga tashladi.  
- Oyijon, men olamushuk kuydim, - dedi u tilini yasab, erkananar ekan. Onasi uning boshini siladi. Lekin gulzordan ko'z uzmay:  
- Gullarning nomini juda topib qo'yishadi-da, - dedi, - tugmachagul, gulibeor, qirqog'ayni, oqqaldirg'och... rostdan ham, qaldirg'ochga o'xshaydi. Qizligimda menga nuqul oqqaldirg'och sovg'a qilishsa, deb orzu qilardim.  
- Men esa atirgul sovg'a qilganman, - eslatdi Samandar, xotini ilk bor oppoq ko'k gulli ko'ylakda uchratgani ko'z oldiga keldi. «Rostdan ham o'sha payt oq qaldirg'och ga o'xshardi», o'yladi u daf'atan.  
- To'g'ri, - dedi xotini, unga bir ko'z tashladi-yu, uyalib olib qochdi. - Karamga o'xshagan ulkan atirgul edi. Lekin hidi haligacha dimog'imdan ketmaydi, o'sha gulni eslasam, negadir anovi atirgullar ko'rimsiz bo'lib qoladi. Balkim bu yoshlik xotirasi bo'lgani uchundir?

-Anovi gullar quyoshchalarga o'xshaydi, - dedi qizchasi, deraza raxiga osilganча, qo'li bilan panjara ag'nab yotgan joydan ko'rinayotgan gullarni ko'rsatib. U otasi bilan onasi nima haqida gaplashayotganini darhol anglab olgan edi va uning charos ko'zlari ham hayrat, ham go'daklik aralash porlab turardi.

Samandar qizi ko'rsatgan tomonga qarab, sariq moychechaklarni ko'rdi.

Moychechaklar mitti quyoshchalar kabi yashnab turardi va hozir Samandarning ko'ziga bu mitti quyoshchalardan taralayotgan nurlar butun bog'ni charog'on nurlarga to'ldirib yuborganday bo'ldi.

U qizning gapidan entikib ketib, uni qattiq quchib oldi. O'zining hayajondan yoshlangan ko'zlarini xotinidan yashirish uchun ko'zlarini ohista yumdi. Birdan ko'z oldini yaltirab turgan o'rgimchak uyasidek to'r qoplab oldi; to'rning har bir katagidan yashil shu'lalar taralardi. U qobog'ini ozgina harakatga keltirishi bilan yashil shu'la alvonlashar va butun ko'z oldi qip-qizil rangga to'lib ketardi. Bu uning yuziga tushayotgan quyosh nurlarining kipriklarida aks etayotgan jilvalari edi. Xotini unga xuddi bir endi ko'rayotgandek qarab turar, quyosh nurlari erining yuzini oppoq atirguldai yashnatib yuborganidan daf'atan hayratga tushgandi. Samandar ko'zlarini ochganda xotini o'ziga tikilib turganini ko'rdi. Ko'nglini xotining ko'zlaridan taralayotgan hayrat va farog'at egalladi. O'zi ham xotiniga hayrat bilan boqdi. U hech qachon xotining ko'nglini o'ziga shu daqiqadagidek hamohang va yaqin his etmagan edi.

U deraza oldida yuzini so'nayotgan oftobga tutganча o'tirardi. Xotini bilan qizi oshxonaga o'tishdi. U erdan qizining qandaydir qo'shiqni xirgoyi qilayotgani eshitildi. U kursiga yaxshilab joylashib oldi.

Xavoda ko'kat hidi aralash gul hidi bor edi.

Quyosh ufq ortiga yashirindi. Ufq alvon rangga belandi: hozir feruza osmon fonida bu rang juda tiniq va ravshan edi. Feruza rangdan ham alvon rangdan ham musaffolik taralardi.

U ufqqa qarab o'tirgan kuyi beixtiyor bir yil muqaddam kursdoshlari bilan bir do'stining qabriga borganlarini esladi. Marhum tengdoshlari ichidagi eng yuvosh va kelishgan yigit edi. U mashinasida to'satdan fojiali halok bo'lgandi. Saboqdoshlari bilan etib borganda marhumni endi chiqarishayotgan ekan. Marhumning barvasta gavdali otasining yig'isi Samandarning yurak-bag'rini ezib yuborsa ham negadir Samandar yig'lay olmagandi. Bu xabar butun tengdoshlarini to'satdan esankiratib qo'ygandi. Ulardan hech kim yig'lamadi. Hamma boshini egib turavergandi. Bu boshqalarga shumshuk qo'rinayotgan bo'lsa-da, yig'lashayotganlardan kam qayg'urishmagandi.

Samandar marhumni ko'mishayotganda oppoq matoning ichidan uning yuzini ko'rgandek bo'lgandi: yuzi ham oppoq edi. Keyin ko'mib bo'lishgach, kimdir qabr boshiga bir tuvak sariq atirgul qo'ydi. Samandar o'sha kuni gulga unchalik e'tibor bermagan edi. Biroq ertasiga yana saboqdoshlari bilan qabrga borishganda, kechagi gullarning ichida faqat bittasigina bir kechada qovjirab qolganini ko'rdi. Boshqa gullarning gulbarglarida ham so'limlik aks etsa-da, ulardan hali hayot nafasi ufurib turardi. qurib qolgan gulning gulbarglari ham to'kilib, qabr atrofiga sochilib ketgan edi. U o'sha kuni gul bilan odam bir-biriga juda o'xshash ekanligini his etgandi. Bir kun oldin qo'yib ketgan gullardan biri qabr boshida bir kechada to'kilib bo'lgani uning xayolidan hech ketmadi. U marhumni eslagan sayin ko'z o'ngiga uning oppoq, kelishgan yuzi kelar va o'limiga ishongisi kelmadi. Lekin u marhumni eslashi bilan hayot va o'lim orasi bir qadam ekanligini his qilar, o'zini ham qovjirab borayotganday sezar va vahimaga tushardi. So'ng u bu tuyg'uga ko'nikib qoldi. Qachon gul bilan qabrni yonma-yon ko'rsa,

hayot bilan o'lim orasi bir qadam ekanligi esiga tushar, gul va qabr, marhumning yuzi hech xayolidan ketmay qolardi. Uning xayolidan asta-sekin gul, qabr va marhumning oppoq yuzi uyg'unlashib ketdi: nazarida avval marhum gulday qovjirab to'kilgan, izidan esa gul to'kilgandi. Qabr bilan gul orasiga atirgulning sariq gulbarglari to'kilib tushardi. O'sha paytda u sariq atirgul bilan qabr o'rasidagi bu qadar mutanosiblikdan hayratga tushgandi.

Bu manzaralar mana endi u xuddi ufqqa tikilib turganday, xotiralari derazasidan unga tikilib turardi.

Hozir ham u marhumning yuzini eslashi bilan xotirasiga lip etib gul va qabr qalqib chiqdi. Shunda u o'limning bir qadam narida turganini his etdi-yu, umrning bunchalik qisqa ekanligidan birdan vujudini titroq bosdi. «Bu ikkalasining orasi bunchalik yaqin, - deb o'yladi u, - odam bir marta to'yib nafas olishga ham ulgurmaydi». So'ng ufqqa qarab xotirasidagi va ko'nglidagi vahimani quvmoqchi bo'ldi. Biroq lovullab yonayotgan ufqda ham sariq atirgul va qabr paydo bo'ldi. Sariq atirgulning gulbarglari ohista to'kilar, lovullab yonayotgan ufqdan qip-qizil cho'g'ga aylanib erga uchib tushardi. U xayolidan gul va qabrni haydash uchun ko'zlarini yumdi; biroq gul va qabr ko'z oldidan ketmadi; aksincha, ufqdagi qip-qizil olov birdan asov shamol girdobiga tushgan qip-qizil lolalarga aylandi; lolalar u yoqdan bu yoqqa tebranar ekan, bir zum qoq o'rtada turgan sariq atirgul va qabrni yutib yuborar, yana gul va qabr qalqib chiqaverardi. Samandar bundan larzaga keldi: bu manzara xayolida endi uzluksiz advom etishini angladi va ko'zlarini yana qattiqroq yumib oldi; shu daqiqada bu manzarada qandaydir huzurbaxsh go'zallik taralayotganini, ko'ngli birdan hamma narsadan xoli va ayni daqiqada hamma narsaga aloqador, o'zi, vujudi bilan ko'z oldidagi manzaraning bir bo'lagi ekanligini, buni his etish qalbida tarahhum va zarif tuyg'ular uyg'otayotganini his etdi.

«Har bir inson qalbida olam bilan uyg'unlashishga tashnalik bor, - deya o'yladi Samandar, - bu tashnalik xunuklik va turmushning kundalik tumanlari ichida garchi yo'qolib ketganday tuyulsa-da, u bor, uning borligini bilish uchun inson o'z qalbini izlab ko'rishi kerak; inson umrining mazmuni aslida ana shu tashnalikdadir...».

Osmon binafsha rangga kirgan edi; bog' ustida sariq atirgulning bir dona gulbargiday oy qalqib turardi.

Samandar bularning hammasida teran bir umumiylikni angladi; u hamon qarovsiz bog'ni - ko'nglini tinmay kuzatardi.

U keyingi kunlarda o'zini ham gul deb o'ylay boshladi; buni avval u bog'dagi panjara orqasidagi qarovsizlikdan shoxlab ketgan atirgulning hidi dimog'iga urilganda, ko'nglida ham qandaydir bir narsa yashnab ochilib ketganini sezgan paytda his etgandi; keyin bu o'xshatish uning miyasida charx urib aylana boshladi va Samandar o'zining ham gul ekanligiga endi shubha qilmay qo'ydi. O'zini gul deb o'ylash endi unga bachkana ham, beo'xshov ham tuyulmasdi. Aksincha, bu o'xshatish juda tabiiyday edi. Hatto u o'zining qalbida qandaydir gul porillab ochilganini, butun tanasiga quchoq-quchoq hid taratayotganini sezganday bo'lardi. Bu gul uning nazarida lolaga o'xshardi.

Lolaning gulbarglari hovuchida bir tomchi shudring o'ynoqlardi; shudringdan tongning musaffo havosi taralar va Samandarning vujudi bu go'zallik qarshisida madorsiz bo'lib qolar, tanasi huzur qilar, gul esa tobora yashnab borar, ko'ksida pora-pora chayqalar, butun vujudi shu gulning nozik gulbarglaridek, ohista titrab ketardi.

Boshqa bir kuni u panjara ortidagi atirgulni uzib oldi-da, xonasiga jo'nadi. Qizi hali bog'chadan qaytmagan edi. Xotini uning qo'lidagi gulni ko'r-di-yu, tuvak keltirib berdi. - Umidaning xonasiga qo'ya qoling, - dedi u ko'zlari yashnab gulni hidlar ekan.

Samandar bosh chayqadi; o'zi ham gulni shuning uchun keltirgandi. Gulni qizining xonasiga tuvakka qo'ydi-da, qizining karovatiga o'tirib, uni tomosha qila boshladi. Qizining gulni ko'rib, qanchalik quvonishini o'ylab, ko'ngli yashnab ketdi.

U jilmayib qo'ydi.

Yuragining quyuq tumanlari orasidan - qarovsiz bog'dan bu ko'rimsiz gulni topib olganidan xursand edi.

Gul yolqinlanib, xonani bezab yuborganday tuyuldi.

«Qizimga bu gulni so'litma, deymen - deya o'yladi u, - va gulni qanday parvarish qilish kerakligini o'rgataman».

Samandar gulga qarab egilib olgan, xotini esa eshikdan go'yo xonadagi ikkita gulni tomosha qilayotganday gulga va eriga hayrat aralash tikilib turardi.

## UZOD QUSHLAR

Hayot mu'jizalardan iborat ekanligiga sen ham ishonarding. Sen ham bu asrdan mu'jiza kutib yasharding. Holdan toyib ishdan qaytar ekansan, kichkinagina mu'jaz uyingda to'shakka cho'zilganicha, yolg'izlik saltanatiday ko'rimsiz, huvillagan xonangda qandaydir mu'jiza ro'y berishini kutib yasharding. Bu mu'jiza bir necha daqiqadan so'ng yuz beradiganday o'z xayollaringdan o'zing lazzatlanarding. Sen mu'jizasiz ham baxtli eding. Yer yuzidagi millionlarcha odamlardek osoyishta hayot kechirarding. Har haftaning so'nggida o'rtoqlaring bilan choyxonalariga, istirohat bog'lariga borarding. U erdan kayfiyating ko'tarilib bahri-diling ochilib qaytarding. Biroq negadir o'z hayotingni o'zgartiradigan, shavq-u zavq olib keladigan mu'jiza kutib yasharding. Bu mu'jiza goh go'zal bir qiz, goh lotoreya yutug'i qiyofasida, goh qandaydir o'zing ham bilmaydigan qiyofada ko'z oldingda namoyon bo'lardi. Biroq mu'jiza sening xonangga to'satdan kirib kelishini, butun hayotingni ostin-ustun qilib yuborishini hali bilmasding. Sen hayotingdan va xayoling jomidan to'kiladigan sharobdan mastu mustar eding.

O'sha kun sen ishdan yayov qaytding. Ko'chada bo'lajak ayoz kunlarning elchilariday izg'irin izg'ib yurar, sening yonoqlaringni, burunlaringni chimchilab o'tardi. Undan o'zingni himoya qilish uchun qunishib olganding. Tezroq uyga etib olib, issiq xonangda miriqib choy ichishni ko'z oldingga keltirib, tezroq yurishga harakat qilding, izg'irinni xuddi o'tkir qilichday tilimlab ketib borarding. O'z ko'chalaringga burilganingda sen sal oldinroq ketayotgan qizil po'stinli, sochi elkasiga yoyilgan, bo'ychan juvonne ko'rib qolding. Bu ko'chada yashaydiganlarning barini deyarli tanirding. Durkun oyoqlari, bejirimgina tebranayotgan elkalariga qarab juvonning hali juda yosh ekanligini his etding. Ko'chada ikkovingdan bo'lak hech zog' yo'q edi. Kayfiyating chog' edi. Shu sababli ayol bilan bemalol suhbatlashishing mumkin edi. Tez-tez qadam tashlab, ayolga etib olding, so'ng u bilan yonma-yon keta boshlading. Shundagina ayolning haddan taddan tashqari go'zal ekanligini bilib qolding. Ayol senga bir qaradi-yu, indamay ketaverdi. Uning ko'zlari go'zal, joduli edi. Elkasiga yoyilgan sochlari xuddi qoyadan to'kilayotgan selday silkillab turardi. Ayol seni batamom maftun qilib qo'ygan edi. Izg'irin esa senga rashki kelganday yuzlaringni tinmay chimchilar, ayolning esa oppoq tizzalarini ko'z-ko'z qilish uchun etaklarini ochib yuborardi. Ayol senga qaramay, darhol etaklarini yopar, sen uning endigina oqarib kelayotgan tong shafag'iday bilinar-bilinmas qizarib ketganini ko'rib qo'larding. Ayolning lablari izg'iringga jahl qilib titrab ketar ekan, negadir bu senga xush yoqardi, ayol senga osmondan yuborilgan tuhfaday, beixtiyor zavqing

kelib, jilmayib qo'yarding. Sen ayolning bu shaharlik emasligini sezganding; ayolning yuzi so'lim, tiniq va oppoq edi. Ko'nglingda mehmonni ko'rganda tug'iladigan mezbonlik tuyg'ulari jo'sh urib ketgandi. Ayol bizning ko'chaga adashib kirib qolgan bo'lsa kerak degan o'yga borganding.

- Bu erlik emassiz, chog'i, - deding tomdan tarasha tushganday, to'satdan, sirli qal'adagi qo'shinni chamalab ko'rayotgan makkor lashkarboshidek sinovchan ohangda.

- Yo'q, shu erlikman, - dedi ayol yo'lida davom etar ekan, so'ng senga qarab, mayingina jilmayib qo'ydi. Sen ayol hazillashyapti, deb o'ylading. Biroq ayol juda jiddiy va qat'iy ohangda gapirayotgan edi; u bu ko'chani ko'pdan beri biladiganday erkin va xotirjam ketib borar, muyulishlardan ham chalg'imay o'tardi. U rostdan ham aniq maqsad bilan ketayotgan sirli qo'shinga o'xshardi.

- Unda bu ko'chada turmasangiz kerak, - deya savolingni darrov o'zgartirding.

Bu orada sen yashaydigan uyga yaqinlashib qolgandilaring. Shu sababli ayoldan ajralib qoladiganday bezovta bo'la boshlaganding. Vujudingga ayolning go'zal ko'zlaridan sen ko'pdan beri kutgan va har kecha o'ylaydigan qizning sog'inchiday shirin bir orziqish oqib kirgandi.

- Yo'q, shu ko'chada yashayman, - dedi ayol va shu so'zlari bilan seni butunlay yanchib tashlaganday kibrli nazar tashladi. Sizlar o'zing yashaydigan uyga burilar ekansizlar, yana so'rading:

- Qiziq, men hech ko'rmagan ekanman-da, sizni.

- Men ham, - dedi ayol.

- Yaqinda ko'chib keldingizmi?

Ayol endi senga xo'mrayib tikildi. Xo'mrayish ortida yana qancha savollar berasiz, buncha shilqim bo'lmasangiz degan nozli bir erkalash bor edi.

- Men shu erda tug'ilganman. Ota-onam ham shu erda yashashgan.

Sen batamom tong qola boshlading. Bu mahallada faqat o'zing taniydiganlar yashaydi, deb o'ylarding. Bu ko'chada etikdo'z ikkita juhuddan boshqa birona ham o'zga kishilarni ko'rmagan eding. Ko'chadagilarning hammasi senga tanish edi. Biroq ayolning ota-onalarini eslay olmading. Zotan bu ko'cha seni va sening bolalik tasavvuringni seryamoq etagiga solib katta qilgan qadrdon ko'cha edi. Sen uying ro'parasiga kelganda taqqa to'xtading va ayoldan ajralging kelmay, uni uyga taklif qilmoqchi bo'lding. Biroq ayol ham sen barobari to'xtadi va senga hayron bo'lib tikilib, sumkasidan nimadir izlay boshladi.

- Mana shu mening uyim, - dedi ayol ham tantanavor, ham xayrlashgan ohangda.

Sen jilmayding. Ayol seni yashaydigan bu uyni biladi va hazil qilyapti, deya o'ylading.

Lekin ayolning harakatlari qat'iy edi. U rostdan shu uyda yashaydigandek tutardi o'zini.

Shunda esingga hamisha biron g'aroyib voqealar o'ylab yuradigan oshnolaring tushdi va da'fatan miyangga ayolni tag'in ular jo'natgan bo'lmasin, degan fikr kelib qoldi. Ayolning ko'zlaridan hozirgina otilib, keyin sochilib ketadigan hazilning ko'rinishlarini izlay boshlading. Biroq ayol hamon jiddiy, aftidan, hecham hazillashgisi kelmayotganday senga sinovchan tikilib turardi. Uning kibrli va maftunkor ko'zlaridan, chiroyli, oppoq yuzlaridan, zaharxandalik bilan qimtib olgan lablaridan atrofga yot bir malohat taralardi. Ayol sumkasidan xuddi sening qo'lingdagidek kalit chiqarib, eshikni ocha boshlagach, bir zum esankirab qolding.

- Kechirasiz, - deding iloji boricha quvnoq tovushda. - Men ham shu uyda yashayman.

Ayolning ko'zlarida hayrat va g'azab jilvalandi. So'ng bulraning o'rnida qahr o'ynoqlay boshladi. U seni qandaydir ko'cha shilqimi deb o'ylayotgan edi. Uning ko'zlaridan bu fikrni uqib olding-u, xo'rlicing keldi.



- Agar ishonmayotgan bo'lsangiz, mana, marhamat qiling.

Sen uni chetga surib, o'z kaliting bilan eshikni ochding. Endi ayol senga qiziqsinib, bir eshikka, bir qo'lingdagi kalitga qarab qo'ydi, nimanidir o'ylab, senga shubha bilan tikilganча turib qoldi.

-Balki o'g'ridirsiz, - dedi soddalik bilan deyarli shivirlab. - Bekor qilasiz, biznikida o'g'irlashga arziydigan narsaning o'zi yo'q.

- Qani edi, - deding o'zingni quvnoq tutib, - balki rostdan ham o'g'ridirman. Biroq bu uy menga otamdan, otamga esa otasidan qolgan.

- Menga ham otam-onamdan qolgan, -dedi ayol. - Ularga ham otasidan qolgan.

- Uch xonalimi? - deb so'rading sen xayolingga kelgan rejada birdan quvonib, ayolni sinash uchun.

- Ha, uch xona, undan tashqari - ayvon, oshxona, ko'mirxona, qaznoq bor.

Sening hayrating ko'nglingda shubhaga aylanayotgan edi. Agar hozir otang tirilib keldi, desa ham bunchalik hayratga tushmasding. Ayol sen yashaydigan uyni bekami-ko'st tasvirlab bergandi. Sen endi ayolga shubhalanib tikilib qolding. Balki, bu ayol emas, qandaydir insu-jinsdir? Sen hech qachon jinlarga va ajinalarga ishonmasding. Biroq hozir ishonging, tavba qilging kelardi.

- Qiziq, - deding sen so'lg'inlik bilan, - balkim, mehmonxona devoriga tog'ning surati solingandir?

- Bo'lmasam-chi,- dedi ayol. - Gullar ochilib yotgan tog' etagining surati bor.

- Devordagi suratchi? Kimniki. U odamlarni ham tanirsiz?

- Ha. U erda ota-onamning surati osilib turibdi.

- Yotoq devoriga qizil gilam osilgan bo'lsa kerak?

- To'ppa-to'g'ri, otamga o'rtog'i sovg'a qilgan.

Sen hayratdan o'kirib yuborayozding. Ayol sening uying va sening otang haqida gapirmoqda edi. Sen mo''jizaga ishonarding-u, biroq mo''jizaning bu tariqa tashrif buyurishini sira ham xayolingga keltirmaganding. Mo''jiza ham xuddi ayollar kabi makkor bo'lishi mumkinligini sen hali bilmas eding.

- Siz qaerdan bilasiz? - deya so'radi ayol ham endi senga ajablanib tikilib.

- Axir men shu uyda yashasam, qanday bilmasligim mumkin? - baqirib yubording sen biroz asabiylik bilan.

Izg'irin goh sening, goh ayolning yuzida o'ynoqlardi. Ayolning etaklarini ko'tarar, sening yoqangni hilpiratib, jig'ingga tegardi. Sen juda ham sovuq qotding.

- Balkim uyga kirarmiz, - deding sen ayolga er depsingancha, - oyog'im qaqshab ketyapti.

- Meniki ham.

Ikkalang ham har kuni kirib-chiqib turadigan yo'lak bo'ylab, so'ng zinadan ko'tarilib, ayvonli uyga kirdilaring. Sen tug'ilganingdan beri yuraverib, ko'zingni yumib ham topishing mumkin bo'lgan uyda birinchi marta seni yot bir ayol boshlab borardi. Senga qadrdon bo'lib qolgan hovliga, ikki tup o'rikka, kichikinagina gulzorga, tunuka yopilgan oshxona tomiga xuddi endi bir umr ayrilib qoladigandek najot izlab boqarding. Ko'ksing yurak uchun ardoqli bo'lganiday, bu uy sen uchun ardoqli va aziz edi. Uyingdagi osoyishtalikdan va osudalikdan tonglari rohat qilib uyg'onarding. Bepoyon dengizda suzayotgan kemadek, sen ana shu osudalik qo'ynida kun bo'yi ohista suzib yurarding, xuddi go'zal bir qo'shiqning naqoratiday, sen uydagi osudalik musiqasini ba'zi-ba'zida ehtiyotkorlik bilan buzib, o'zingning baxtli ekanligingni bildirish uchun g'o'ng'illab-g'o'ng'illab qo'yarding. Nazaringda hech kim seni bu erdan haydab chiqarolmaydigandek va bularning hammasi qandaydir anglashilmovchilikday bo'lib tuyulgandi. Ayol mezbon

kabi mulozamat, iltifot bilan muomala qilgancha, ergashtirib borardi. Sizlar avval ayvondan, so'ng birgina dahliz orqali mehmonxonaga kirdilaring. Hamma jihozlar sen qanday joylashtirgan bo'lsang, o'sha holatda turardi. Bundan sen xursand bo'lib ketding. Uydan sening hiding kelardi. Buni sen dahlizga kirgan zahotiyoq sezganding. Ayol esa xuddi hamma narsa o'ziga tegishliday emin-erkin tutardi o'zini. U etigingni echadigan joyni ko'rsatgach, sen har kuni kiyib yuradigan shippaklaringni senga mulozamat bilan uzatdi. Mehmonxonada ham hamma narsa sen qo'yganday joy-joyida turardi. Qaysidir yili borib mahliyo bo'lib qolgan, so'ng rassom do'stingga aytib chizdirgan tog' etagingning suratidan bahor nafasi urilardi. Sen suratdagi xarsang ustida pastdagi qo'zichoqqa xezlanib turgan uloqchani ko'rib, ko'ngling bir oz joyiga tushdi. Bular bari seniki edi. Sal oldin ichingga olgan yana adashgan bo'lmay degan shubhaga asos yo'q edi. Bu erdan seni hech kim quvib chiqarishi mumkin emas edi. Ko'ngling xotirjam bo'lib, seni hayron bo'lib kuzatayotgan ayolga zafar qozongandek g'olibona tikilding.

- Erim qaysidir yili toqqa chiqqanda shu manzara yoqib qolibdi, - dedi ayol sening devordagi manzaraga tikilib turganingni izohlamochidek. - Bir rassom o'rtog'ini boshlab kelib, devorga shu suratni chizdirdi.

Sen ayolga yana qo'rqib tikilib qolding. U mening fikrimni o'qib olib o'zimga aytmayaptimi, degan shubhaga bording. Axir har kuni mo'jiza sodir bo'lib turgan bu asrda odamning fikrini uqadigan mashina yasash ham hech gap emas-ku? Sen tag'in mashina-robot bo'lmasin, degan shubhada ayolni sinchiklab kuzata boshlading. Yo'q, unda mashinaga xos hech qanday xususiyat yo'q edi. Hatto u juda go'zal va jozibali edi. Bu go'zallikdan sening yuraging dukurlab, behalovat ura boshlagan edi. Sen bularning hammasi tag'in tushim emasmikin, deb o'ylab qolding. Bu o'y hatto senga taskin berganday, seni yupatganday bo'ldi. Tushda har narsa bo'lishi mumkinligi birdan qalbingdagi shubha va gumonlarni quvib yubordi va sen o'zingni xuddi tushdagidek tuta boshlading. Ayolga kulib, xotirjam tikilding. Uni kuldirging, ko'nglini olging keldi. Chunki baribir tezda uyg'onib, bu anglashilmovchiliklar barham topishiga ishonar eding. Uyg'ongach esa, seni hech kim uy meniki deb tergamas edi. Hech qanday chalkashlik ham yuz bermasdi. Tongda uyg'onarding-u, o'z uyingga yolg'iz xo'jayin bo'lib, choy qaynatib icharding, to'shagingda xohlagancha ag'nab-ag'nab yotarding. Hech kim seni ta'qib etolmagan bo'lardi. Biroq tush uzoq va so'ngsizday davom etar, xatar va gumonlar ko'nglingga ko'proq yopirilib kirardi.

- Ana u esa ota-onamning surati, - dedi ayol, - darvoqe, buni siz bilasiz, shekilli? Sen ota-onang surati osilib turgan joyga qarading va dahshatdan murdaday qotib qolding. Suratda otang va onang senga har doimgiday kulimsirab, mehribonlik bilan boqib turardi, ularning ko'zi, yuzi, tikilishi - hammasi sening ota-onang edi. Biroq boshidan hech qachon do'ppisini tashlamagan otang yalangbosh, sochi ham allanechuk patila edi. Onang esa xuddi yoningdagi ayolga o'xshab sochlarini yoyib yuborgan, uning sochlari ham xuddi ayolnikiday tillarang va elkalari osha to'kilib turardi. Sen birdan vahimaga tuhding va ko'zlaringga ishonmay, dovdirab, ayolga tikilib qolding.

- Uyning hujjatini ko'rsam bo'ladimi? - deding shosha-pisha.  
- Marhamat!

Ayol senga uy daftarini keltirib berdi. Hujjatda hamma narsa joyida edi; uy ayolga tegishli ekanligi to'g'risida kichkina izoh bilan salobatli muhr bor edi. Sen narigi xonaga o'tib, hujjatlar yotgan javondan o'z nomingdagi uy daftaringni axtara boshlading. Orqangdan hayron bo'lib qarab turgan ayolga e'tibor bermay, hamma narsani xuddi

aqldan ozgandek har yoqqa sochib tashlading. Nihoyat, eskirib, varaqlari ko'chib ketgan uy daftarini topgach, quvonchdan baqirib yubording:

- Mana, mana bu erda uy menga tegishli ekanligini bildiruvchi muhr bor.

Ayol hayron bo'lib, sen uzatgan daftarni varaqlay boshladi. So'ng senga qarab, burnini jiyirdi-da, yana qaytarib berdi va dimog'i aralash mazax bilan kulib qo'ydi. Hech narsaga tushunmay, bir unga, bir daftarga shoshib qaragancha varaqlay boshlading. Uy seniki ekanligi to'g'risidagi tegishli muassalar chiqargan qaror yozilgan varaq bo'm-bo'sh edi. Sen batamom dovdirab qolding va ayol o'zingga endi yanada ko'proq shubha bilan qarayotganini ko'rgach, Har oqshom o'tirib gazeta o'qiydigan deraza oldidagi eski orom kursiga o'zingni behol tashlading. Seni butkul gumonlar chulg'ab olgan edi. Najot izlab butun uyni ko'zdan kechirding. Nimadir esingga tushib, cho'ntaklaringni tita ketding va qip-qizil jildli pastportingni topgach, irg'ib turib, ayolning ko'z oldiga borib varaqlashga tushding.

- Mana bu erda yozilgan... mana bu erda... - Deya hansirab baqirding. Biroq birdan daming ichingga tushib to'xtab qolding, ish joyingda maosh erayotganda kekxa, injiq kassir yuz martalab sinchiklab tekshiradigan «Yashash joyi» degan varaqda ikkita uzun chiziqdan boshqa hech qanday belgi yo'q edi.

Sen yana orom kursiga cho'kkancha boshlaringni changallab uzoq o'tirding va shunda yana men tush ko'rayotgan bo'lsam kerak, deb o'ylay boshlading. Ayol esa tepangda senga hamon shubha va ajablanish bilan tikilib turar edi. Kim biladi, u shu daqiqalarda sen to'g'ringda nimalarni o'yladi ekan. Balkim bironta uchiga chiqqan qallob deb o'ylagandir; balkim o'zi aytganday muttaham o'g'ri deb o'ylagandir, balkim ko'chada yuradigan bironta shilqim deb o'ylagandir, balkim uyiga surbetlik bilan kirib olgan bosqinchi, deb o'ylagandir. Har qalay, uning ko'zlari senga xavfsirab tikilib turardi. Agar bu tush bo'lsa, sen hech qachon bunchalik uzoq tush ko'rmaganding. Har qanday xatarga yuraging dosh bermay uyg'onib ketgan bo'larding. Lekin sen uyg'onmasding. Qachon uyg'onishing ham noma'lum edi. Balkim sen uyg'onguncha oyog'ing ostiga yana bir asr yiqilar, balkim sen achrning ustiga yiqilib tusharsan. Balki, seni uyg'otishga mening bu madorsiz va kuchsiz so'zlarimning qudrati etishmas. Balkim bu so'zlar seni uyg'otish o'rniga, seni ko'proq g'aflat chohiga qarab etaklar? Tushmidi bu? Agar tush bo'lsa qachon uyg'onarding? Buni men ham bilmasdim, buni sen ham bilmasding. Qachon uyg'onasan sen?! Bu ro'yo saltanatini ko'z oldingdan qachon supurib tashlaysan? Bu saltanat seni tobora o'ziga tobe qilib, mute qilib borardi. Sen orom kursisiga cho'kkancha ojiz qiyofada o'tirarding.

- Balkim, uy xo'jaligi bo'limiga borib uchrashib ko'rarmiz, - deding sen nihoyat ayolga umid bilan tikilib. Ayol sening ko'zlaringdagi iltijoni ko'rib, rahmi keldi, shekilli, elka qisdi.

- Marhamat, menga baribir.

U o'ziga ishonar, shuning uchun ham sen bilan dunyoning narigi burchagiga ham hech ikkilanmay biga boraverardi.

Sizlar izg'irin o'ynoqlayotgan ko'chaga chiqdilaring. Ig'irin yana ayolning etagini o'ynoqlay boshladi. Ikkalaring ham gung va bir og'iz gaplashmay, jim ketib borardilaring. Sen shu da'fada hech narsaga ishonging kelmasdi. Go'yo bularning barchasi ro'yo edi. Biroq sen ayni payt uxlab yotganingni, uyg'oq ekanligingni va qandaydir noma'lum ayol bilan birga ketayotganligingni anglarding. Sen bunday ro'yoni hatto tushlaringda ham ko'rmagan eding. Tushingga hamma narsa kirardi. Ehtimol, bu

ayolni ham qachonlardir tushingning ko'chalarida ko'rgandirsan. Lekin sen ota-onang, bobokalonlaring yahab o'tgan uyni o'ziniki qilib olgan va yana hammasi tushdagiday emas, o'ngdagiday sodir bo'lgan voqeani hech qachon ko'rmagan eding. Sen o'zingga ham ishonging kelmasdi. Balki men hech qachon yashamagandirman. Bu uy rostdan ham ayolga tegishlidir va men tunggi kapalak kabi bu uyga adashib kirib qolgandirman, degan fikr damo-dam xayolingda charx urardi va ayolga shubha va iltijo bilan tikilib-tikilib qo'yarding. Shunda birdan shu kunlarda gazetalarda shov-shuv bo'lgan bir voqea esingga tushgandi. Shahardagi tarix muzeyida yoshgina xodimani bo'g'izlab ketishgandi. Gazetadagi xabarlariga ko'ra, xodim o'sha kuni kechga tomon ishdan so'ng o'z xonasida ishlab o'tirgan edi. So'ng to'satdan butun muzey shovqin-suron va to'polon bo'lib ketgan edi. Muzey qorovul xonasidan yugurib chiqaman deb pushonasini eshikka urib olgandi. Uning eshigi qulflab tashlangan edi. Shunda muzeyning keng zalida qanday shovqin bo'layotganini ko'rish uchun kalit tirqishidan mo'ralagan va xodimni nayzalarining uchiga ildirib chiqayotgan qandaydir dubulg'ali kishilarni ko'rgan edi. Gazetada qorovulning ruhiy bemorlar kasalxonasida yotgani yozilgan edi. Muzey xodimining nimtalab tashlangan jasadi yonidan ettinchi asrda yasalgan qilich topib olishgan edi. Odamlar bu voqeani turlicha izohlashardi. Ko'plar boshqa sayyoradan tushgan odamlarning ishi deb baholashardi. Ko'plar esa mutlaqo ishonmasdi. Turli sharpalar kasalxonada ham qorovulning ko'ziga ko'rinib turibdi, deb aytilgan edi gazetalarda. Sen bu xabarga muxbirlar uchun navbatdagi uydirmasi, deb ishonmaganding. Lekin hozir birdan ishonging kelib qolgandi va ayolga biron sharpa yoki boshqa sayyoradan tushgan odam emasmikin, deb gumon bilan qaraganding. Yo'q, u arvoq emas edi va boshqa sayyoralikligini bildiradigan hech qanday alomati yo'q edi. U o'zingdan ham ko'ra tabiiroq, so'limroq, go'zalroq edi va yoningda ayozli osmonni tantanavor kezib yurgan hilol kabi mag'rur va maftunkor qiyofada ketib borardi. Sening ko'rinishing suvga bo'ktirilgan kuchukday ayanchli edi. Butun vujuding muqarrar mag'lubiyatdan qalt-qalt titradi. Uy xo'jaligi bo'limiga sen deyarli umid qilmasding, shunday bo'lsa ham tavakkal qilib ketib borarding. Ayol esa o'zini bezovta qilganidan noroziday ba'zi-ba'zida ming'irlab qo'yardi.

Senga hamisha uy haqini o'z vaqtida to'la, deb po'pisa qilib yuradigan bo'lim mudiri sizlarning gaplaringizni hayron bo'lib eshitdi, so'ng qandaydir hujjatlarni tekshirib, senga g'azab bilan tikilib turdi-da:

- Uy qurilgandan buyon bu xonimga tegishli. Sen qayoqdan kelib qolding? - dedi. Sen indamay tashqariga yo'l olding. Boshqacha bo'lishi mumkin emasligini o'zing ham sezganding. Ayol bilan birgalikda endi seniki bo'lmagan uyga qaytdilaring. Ayolning mezbonga o'xshab qilayotgan mulozamatidan endi g'ashing kelmasdi; ayolga indamay bo'ysinib borarding.
- Agar xohlasangiz vaqtincha qaznoqdan joy qilib berishimiz mumkin! - dedi ayol uyga qaytib kirganlaringda, sening so'lib qolganligingdan rahmi kelib. -Sovug'u, lekin nachora, qish o'tsa, birorta joy topib olarsiz.
- Sen rad etgandek bosh silkitding. Orom kursisida uzoq o'tirding. Derazalarga tun pardasi tortilgach, sekin o'rningdan turib, hozirlana boshlading.
- Kiyimlarimni olsam maylimi? - so'rading ayolga taqdiringga tan bergandek.
- Qanday kiyimlar?
- Sen kiyim javonida terib qo'yilgan kiyimlaringga ishora qilding.
- Axir ular erimning kiyimlari-ku? - sal bo'lmasa hayron bo'lib baqirdi ayol va xuddi sen tortib oladigandek javonning oldini kelishgan qomati bilan to'sib oldi.
- Sen u bilan tortishib o'tirmading. Qupquruq, so'ppayib ketayotgan qo'llaringni seni

voyaga etkazgan darchalar va eshiklardan yashirish uchun cho'ntagingga tiqib batamom tor-mor etilgan qo'shunday tanish yo'lak orqali uydan sekin chiqib ketding...

... Bu, tushning oxiri emas edi. Bu ibtidosi edi. Bu tushni sen menga o'sha sovuq izg'irinli kunda gapirib berganding. Sening yuzlaring umidsizlik va yolg'izlikdan gezarib ketgan. Sen bu tushni gapirar ekansan, men o'zimga ishonmay qolgandim. Bu tushni sen menga gapirib berganmiding yo mening o'zimmi?! Sen shu paytda izg'irinli ko'chada manzilsiz daydib yurgandirsan, ayoz supurgisi seni ham bu oqshom sahnasidan batamom supurib tashlash uchun singan tug'ning bir parchasidek ayovsiz tortqilar, g'azovot o'tida yonib, uchib kelayotgan ko'chmanchi mo'g'ul askarining egnidagi qora ro'dapodek seni osmonu-falak qo'ynida tinmay hilpiratar. Lekin bu tushni sen ko'rdingmi, menmi, g'anuz bilolmadim. Men seni shundan keyin faqat bir marta uchratdim. Sen Q. maydonida yovvoyi kaptarlarga don sepib o'tirarding. Ko'zlaring orzumand porlab turar, yuzing baxtdan yayrab ketgandi. Men seni ko'pdan berish shu holatda ko'rmagan edim. Kaptarlar sen har don sepganingda hurkib, gurillab havoga ko'tarilar, so'ng hech qanday xavf yo'qligini bilgach, qaytib erga qo'nishar va kukulay-kukulay sen sepgan donlarni terib eyishardi. Sen esa ularga xuddi go'zal manzarani ko'rganday qarab turarding. Men sening yoningda turgancha, sen bu kaptarlarga qarab nimalarni o'ylayotganingni bilgim kelardi. Sen bu vatansiz qushlarga qarab nimalarni o'ylagan eding? Balkim sen ularning bejirim va keskir qanotlariga qarab ozod qushlar haqida o'ylagandirsan? Balki, ularga boqib vatan haqida o'ylagandirsan? Balki tuyg'ularingni kaptarlarga aylantirib, uzoq-uzoqlarga uchirib yubormoqchi bo'lgandirsan? Balki sen hech narsa haqida o'ylamagandirsan? Sen shunchaki kunni kech qilish uchun yoki o'zingning uysiz ekanligingni unutish va biron lahmga yoki vokzalning bir buochagiga borib tungash va vaqt o'tishi uchun qushlarni shunchaki ermak qilib o'tirgandirsan? Yoki bu qushlarga qarab, uysiz faqat o'zing emasliging, olamda millionlab uysiz va vatansizlar borligi to'g'risida o'ylab, o'zingni ovuntirgandirsan. Balkim sen qalbingni mana shu qushlargagina ochgandirsan? Men sening o'sha kuni Q. maydonida nimalar haqida o'ylaganingni haligacha bilolmadim. Kech tushgach, o'rningdan turding-da, qorni yopinib uxlayotgan, deyarli yo'lovchisi yo'q, huvillab yotgan ko'chaga qarab, qorong'ulik qa'riga singib ketding. Men sening izingdan qarab turar ekanman, sening rostdan ham shu da'fa qushga o'xshashing haqida o'ylagandim. Sen qor o'ynoqlayotgan kimsasiz ko'chaga qarab parvoz qilib ketganding. Men sendan o'sha kuni nimalar haqida o'ylaganingni so'ray olmay qolgandim. Keyinchalik ham senga bu savolni bera olmadim. Sen bilan boshqa uchrashmadik. Sening qushlarga qarab nimalarni o'ylaganingni hech qachon bila olmadim, bu menga armon bo'lib qoldi. So'ray desam, o'sha kuni sening kaptarlaring ham qaylargadir uchib ketgan edi. O'sha kuni Q. maydonida kabutarlarga don sepib, ularni orzumand va mastona kuzatib, yuzida azob va iztirob aks etib turgan parishon yigit senmiding yoki menmidim? Balki men kabutarlarga don sepayotganda va so'ng kimsasiz ko'chaga qorong'ulik qo'yniga singib ketganimda izimdan shafqat va achinish bilan qarab qolgan sendirsan, kaptarlarning qanotlaridan mening orzularimni o'qimoqchi bo'lgan ham va kabutarlarning kichkina, hushyor ko'zlarida o'qilib turgan ham balki sendirsan?

Shundan so'ng men sen haqingda turli mish-mishlar eshita boshladim. Seni kimdir mast odamlarga qo'shilib, er osti yo'llarida tunab yurganingni aytdi. Kimdir esa seni vokzalda yotib yuribdi dedi. Keyin esa ish joying yotoqxonasidan joy berdi. Sen haqingda men boshqa hech narsa eshitmadim. Kimdir seni uzoq joyga qurilishga ketgan dedi. Kimdir cho'lga ketgan dedi. Men ularning gapiga unchalik ishonmadim. Lekin sening biz

yashayotgan shaharni bir umr tashlab ketganingni bilardim va har kecha mo''jazgina uyimda to'shakka cho'zilganicha qandaydir bir mo''jiza yuz berishini kutib yotar ekanman, go'yo mo''jiza xuddi shu daqiqada yuz beradigandek yuragim shirin lazzatdan hapriqib ketardi, shunda beixtiyor seni va o'sha izg'irinli kunni eslardim...

## AJR

«...Sen qo'shiq ayt, Zubayda, yonib-yonib qo'shiq ayt - o'zing ko'rmagan bu dunyoning ranglari haqida, oftob nuri, buloq suvi, daraxt gullari, chechaklar va qizg'aldoqlar haqida qo'shiq ayt; sen yig'lab-yig'lab xirgoyi qil-u, bu qo'shiq meni mana shu to'qaydagi qoqi guliga, hechqursa yovshonlardan biriga aylantirsin, men seni ko'rish va mudom birga bo'lish uchun toki shu yulg'unzorda qolib ketay, sening oyoqlaring tagiga qovjirab to'kilay, mayli, g'uborga aylanib sochlaringga qo'nay, faqat sening bo'yningdan ufurayotgan gul hidini hidlab tursam bo'ldi, sening baxtu muhabbat istab titrat turgan ko'kraklaringga boqib tursam bo'ldi...

Men seni ovuta olmayman, Zubayda. Seni qushlar chug'uri, qanday ochilishini sen hali ko'rmagan gullar, sening shivirlaring kabi er yuziga bodrab chiqqan maysalar, sochlaringni sog'ingan shabadalar, jimir-jimir yog'ayotgan yomg'ir, tonggi shafaq ovutsin...

O, nafaqat sen, nazarimda yaratgan ham unutilib qo'ygan bu to'qayga quyoshning bir parchasi sinib tushgan, yo'q, yo'q, seni parvardigor yulduzlar ichidan topib olgan. Sening og'ushing oftobning yotog'iga o'xshaydi, badaningdan behisht yalpizining bo'yi keladi, ko'kragingdan olma hidi anqib turadi...

Men sening ko'zlaringga termulib-termulib o'tirgim keladi, sening ko'zlaringdagi ko'lga cho'kkim keladi. Sen bu zulmat dunyoda sakrab-sakrab o'ynab yurgan nursan, bu tubanlik shomi cho'kkan dunyoning bag'riga tushib turgan yog'dusan. Hali bu mudhish dunyoga quvilmasdan oldin, chechaklar gul-gul ochilgan va daraxtu ko'katlarga, hasharotu hayvonlarga hali ism qo'yilmasdan burun, hali o'lim va hayotni kasb qilib olmaslaridan oldin odamzotning farishta bo'lgani to'g'risida falakning bir tuyqus iqrorisani sen... Sen jamiki tiriklik o'latdan qirilib ketgan, jamiki o'simlik quvrab-qovjirab qolgan, qip-qizil bo'lib jizg'anagi chiqib yotgan sahroda, qarq'ish tekkan bu biyobonda ochilgan bir to'p nafarmon gulsan.

Ko'zlaringda farishtalar cho'milgan qora tunning bir parchasi qolib ketgan, yo'q-yo'q, senga shaydo bo'lganlarni hibsi etish uchun falak sening ko'zlaringda zindon qurgan. La'natga yo'oiqqan biyobondagilarni ogoh etish uchun esa sening ko'kraklaringda bu dunyoga bir juft mashhar qo'ng'irog'ini jo'natgan, nelarga qodirligingni ko'rsinlar deb, seni - behisht gulini qabr ustiga qo'ygandek bu olam ostonasiga tashlab qo'ygan, yo'q,yo'q. borliq sening qarshingda chala tug'ilgan go'dakday xunuk bo'lib qolishini bilgan falak bu ayanch dunyoni ko'rmasin deya sening ko'zlaringni bog'lab qo'ygan...»

...Atrofga siyohrang tuk cho'kkan edi. Yo'l dala uzra oltin kalavadek cho'zilgan - havo dim va tevarak jizg'anak bo'lib kuyib yotardi, yulduzlar lipillay-lipillay so'nardilar - havodan kuyindi hidi kelar va qoq o'rtasidan yolg'izoyoq yo'l kesib o'tgan dala tutab

yotardi. Yo'lda yalangoyoq ketayotgan barvasta gavdali odam tutunning achchig'idan o'pkasi uzilayotgandek tez-tez va po'k-po'k yo'talardi. Uning egnida juda ohorli kamzul osilib turar, ko'ylagining zarhal tugmalari so'nayotgan yulduz shu'lasida yarqillab ketardi. Uning elkasida patak soqolli, beqasam chopon kiygan, jikkakkina chol oyoqlarini osiltirib o'tirardi.

Kech tushganiga ancha bo'lganiga qaramay, tuproq issiq edi, barvasta odam hansirab-hansirab, zo'rg'a ketib borardi.

- Esingdami, - derdi chol o'g'lining harsillab qolganiga yuragi achishayotgandek va atrofdagi mudhish sukunatdan cho'chiyotgandek shivirlab, - o'n yilcha oldin shu yo'lni tush ko'rgan eding. Aynan shu yo'lni. O'sha tushni sen bilan bir kechada men ham ko'rgan edim - axir qonimiz bir-da! O'shandayoq senga rahmim kelgan edi, ham bag'rim manavi daladay tutab ketgandi! Anavi tepalik ham kirgan edi, esingdami, o'zing ham bir haftagacha o'sha tushni eslab, xufton bo'lib yurganding. Har qalay shu tushingni sotib emagandirsan? Yo, uni ham biron narsaga almashtirib yubordingmi? Yo'l, dala, tutun, o'kiriklar, yig'i-sig'i - esingdami?

- Esimda, - xirilladi o'g'il, - hammasi esimda.- O'shanda men ham bir necha kun uxlay olmagan edim, bu yo'lgan qanday o'tarkansan, deb. U tush emas, yosdig' edi. O'sha kechasiyoq sening peshonangga yozib qo'yilgandi. Men shundan qo'rqqan edim. Sen axir u paytlari peshonangga yozilgani shu desa kular eding-da. Sizlar bu dunyodagi hamma narsaning oyog'ini osmondan qilib tashladilaring. Hamma narsa muallaq bo'lib qoldi. Qayoqqa qarama, yovuz niyatni ko'rasan. Sizlar qilgan va qilayotgan ishlarni ko'rib, odamzod hamon yashab kelayotganiga ishonmay qolaman. Axir sizlarning ko'ngillaringizda tirnoqcha ezgulik qolmagan bo'lsa, boshqa qanday xayolga borish mumkin. Oldinlari odamlar ishonishardi, yaxshi kunlar kelishiga, bolalariga, qo'shnisiga, bir-biriga. Sizlar mana shu ishonchni o'g'irlab qo'ydilaring. Endi odamlar hech narsaga ishonmaydi, yo tavba, hatto bolasiga ham. Oriyat, nomus qolmadi odamlarda. Sizlar ularni ishton kiygan hayvonga aylantirdilaring. Qanday isnod! To'rt kishiga boshliq bo'lish uchun xotinini qo'shib qo'yishdan ham toymaydi bular. Hammasi senga o'xshaganlarning kasofati. Yo gapim yolg'onmi, a?!

O'g'il indamadi - ikki-uch marta ich-ichida ingrab qo'ydi. Qaeridir chidab bo'lmas darajada og'riyotgandek ko'zlarini yumib ochdi. Peshonasidan oqib tushgkan terdan ko'zi achishardi. Darmoni qurigan, yiqilay-yiqilay deb ketib borardi. Tevarak-atrofga quloq bitib qoladigan darajada bir necha soniyaga sukunat cho'kdi, go'yo tun ham, tutab yotgan dala ham, goh-gohida qaydandir eshitilib qoladigan bo'rinikiga o'xshash uvillashlar ham o'g'ilning iqrorini eshitish uchun bir zum tin olganday edi. Har qanday savol ham javobsiz qolmasligini, ertami-kechmi, baribir javob topilishini, faqat savolga javob bergani, uni oshkora tan olgani odamning yuzi chidamasligini, biroq ko'ngilning bir chekkasida bu savoldan alangalangan javob butun yurakni kuydirib turishini chol ham, o'g'il ham sezar, shunday bo'lsa ham o'g'il miq etmas, go'yo gapirsa yiqilib tushadiganday hansirar va ship-ship etgan tovushdan boshqa sas chiqmasdi undan.

Sukunatni yana otaning tovushi buzdi.

- Hech narsa deyolmaysan! Qaysi yuz bilan gapirasan?! Sendaylardan tug'ilmaslaringdan oldin voz kechish kerak edi. Lekin, afsus, sizlar tug'ildilaring, unib-o'sdilaring, so'ng unib-o'sgan erlaringga tupurdilaring, unib-o'stirgan odamlarni ....dilaring. Yana ko'kraklaringga mushtlab «xalqparvarimiz, ... parvarimiz» deb da'vo qildilaring.

- Bo'ldi...- ingradi o'g'il. - Bo'ldi, bas... qirq yildan beri shu bir gapni takrorlaysiz... Charchab ketdim. Bas!

- Men-chi, men charchamadimmi? - Cholning tovushi zorlanib chiqdi. - Menga osonmi?!

- Axir qirq yil bo'ldi! Qirq yildan beri shu savolni takrorlaysiz...

Qirq yildan beri shu gap, shu ta'na! Adog'i bormi bu yo'lning?! Men ham odamman axir...

- Oz qoldi. Juda oz qoldi. Elkangdan tushamanu men o'z yo'limga ketaman, sen o'l yo'lingga... Boshqa qaytib ko'rishmaymiz... Ko'rishmaganimiz ham tuzuk. Men o'zim o'stirgan terakning qanday yonayotganini ko'rishni istamayman. Men o'sha, sen bilan oxirgi marta yurgan qoya ostidagi g'orga ketaman, mening u erlardan bosh olib ketishim mumkin emas, mening qonim to'kilgan u erlarga. O'sha qoya esingdami? Sen meni Buxorodagi tabibga ko'rsatish uchun olib chiqqan eding, esingdami?

- Esimda! - xirilladi o'g'il. - Hammasi esimda! Nega buncha egzasiz?

- Xayriyat, - dedi chol, - aqalli shunga ham shukr. Har qalay o'sha kunni sotmabsan, shunga ham shukr. Yoi bu xotiraning - isliqi bir cholning o'limi to'g'risidagi xotiraning hech kimga keragi bo'lmadimi? Yoki sotishga, o'zigni oshkor etishga qo'rqdingmi?! Mayli, shunga ham shukr, ba'zan qo'rqqoqlik ham imonni asrab qoladi. Mayli, shukr...

Siyohrang tun quyuqlashib borar edi. Tutun ko'zni achishtirar, dimog'ni kuydirar, o'g'il tinmay yo'talardi, tevarakka pala-partish tashlangan yalang oyoqlarning besaranjom saslari taralardi. Havo dim va bo'g'iq, yo'l esa benihoya edi.

- Sizlarning katta xatolaring shuki, Uni ta'qib qildilaring. Unga qo'shib, hamma narsani ta'qib qildilaring. Aslida hamma narsaning boshlang'ichi U edi. Chunki U dunyoning ismi edi, U bu azaliy dunyoga ism bergan, zeb bergan usta edi. Dunyoni Undan ajratib olib bo'lmasdi... Sizlar buni tan olmadilaring...

- Charchadim, - dedi o'g'il astagina. - Bunchalik og'ir bo'lmasangiz? Yelkam ezilib ketdi. Oyog'imda darmon qolmadi.

- Buni men emas, sening o'zing istagansan... O'zing meni shunga undading. O'sha kuni bu mening xayolimda ham yo'q edi. Sendan hatto minnatdor edim - kasal otasini kuzatib borayotgan shunday o'g'lim bor deb... Bu yo'lni sening o'zing tanlagansan.

O'g'il ixrab-ixrab ketardi. Uning pishnashi demasa hamon vahimali sukunat hukm surardi, faqat atrofda qandaydir sassiz sharpalar aylanib yurar, ular juda ko'p edi, aftidan. Butun dala bo'ylab yugurib yurishar, lekin qadam tovushlari eshitilmas, ba'zan yo'lga yaqinroq bostirib kelishar, so'ng hansirash va pishnashni eshitib orqaga chekinishardi.

- O'shanda men xarsanglar orasidagi tashlandiq g'orga kirib ketdim, - davom etdi chol, - kun sovuq edi, undan keyin birov mening sharpasni sezib qolishidan qo'rqardim. Birinchi kunlari juda zerikdim, atrofda gaplashadigan hech kim yo'q edi; kundazlari tog'ma-tog' sakrab tog' echkilarini quvib yurardim. Toki onang xabar topguncha, men shu holatda yolg'iz yashadim. Bir kuni kechqurun g'orga onang kirib keldi - xudo rahmat qilsin, u juda yasharib ketgan edi, u hammasini kimdandir eshitibdi, shu sababli mendan hech narsa so'ramadi, faqat «Qoyadan nariroq yursangiz bo'lardi-ku, axir uning bir kuni shunday qilishini bilardingizku?» dedi. Sho'rlik, qanchchalik qilmishingdan ezilmasin, seni nogahon qarg'ab yuborishdan qo'rqardi; ikkalamiz ham tilimizni tiyardik, o'sha kunni eslamaslikka harakat qilardik, agar ozgina qarg'asak ham u dunyoyu bu dunyo kuyib ketardi. Onang o'sha kezlari har kuni kelib turardi, u yoqlarda qayoqdan kelyapsan deb so'ralmaydi, bunga hojat yo'q, hamma marhumlarning borar va kelar joyi bitta. Biz g'orda toshga bosh qo'yganicha sening qanday tug'ilganingni, qanday toy-toy bo'lganingni, cho'g'ga qo'lingni qanday bosib olganingni eslab o'tiraodik: u yoqlarda



faqat xotiragina kishiga huzur beradi, boshqa hech narsaning mazmuni qolmaydi; men senga achinaman, sen axir bu dunyodagi qilgan ishlaringni qanday qilib eslaysan - eslashing bilan arvohtar quzg'uni boshingga baloday yopiriladi. Senga achinaman... seni hech kim ayamaydi... bir necha kundan so'ng kechasi g'orga qilich-qalqon taqqan otliq kishilar kirib kelishdi; ular uch kungacha g'orda qolib ketishdi, negadir g'orda meni ko'rib ajablanishmadi; ular bu g'orda har xil qo'noqlarni uchratishga odatlanib qolgandilar chog'i, bizning tilimizda, sal burab gapirishardi, dubulg'achilarning biri oqsoq edi; mening g'orga kelib qolish sarguzashtimni eshitishgach, sendan juda g'azablanishdi, hatto oqsoqrog'i hozir borib chopib tashlayman deb irg'ib turdi, lekin men ko'nmadim, o'g'lim aybdor emas, o'zim yiqilib tushdim deb aldadim. Dubulg'a kiyganlar men bilan uch kuncha yashashdi. Ular ham menga o'xshab o'z ajali bilan o'lmagan edilar, gaplariga qaraganda biri jangda, biri suiqasdda, biri kasal bo'lib o'lgandi. Otliqlar yuz yillardan beri bir vaqtlar o'zlari zabt etgan mamlakatlarni aylanib yurisharkan va har yili qish tushishi oldidan Chinmochinga yurish uyushtirishar va har doim mag'lubiyatga uchrasharkan. Keyin ular meni o'zlari bilan olib ketmoqchi ham bo'lishdi, biroq oqsog'i ko'nmadi, aftidan, u menga ishonmadi. Bir qancha vaqt o'tgach, yana yurish uyushtirish uchun o'zlarining o'liklardan iborat lashkarlarini yig'ishga jo'nab ketishdi. Men g'orda yana yolg'iz qoldim. Faqat kunora xabar olgani onang kelib turar, menga sen haqingda va shotirlaring haqida hikoya qilib berardi; men uning gaplariga hech bir ajablanmasdim, shusiz ham sening qilmishingdan xabardor edim; o'ho', sen qanchadan-qancha odamlarga jabr qilmading, qanchadan-qancha begunohlarni qamab yoki otdirib tashlamading. Sen qilgan har bir ish uchun meni ularning ota-bobolari qistovga olishardi, men esa o'sha yoqda endi yovuz niyatingning navbatdagi qurboni kim bo'larkan, uning marhum qarindoshlari ko'pmikan deb, yurak hovuchlab turardim. Seni qanchadan-qancha arvohtar qarg'amadi. Sen odamlarning o'zingdan qo'rqishini, zor titrab turishini orzu qilarding, ularning ojizligi va nochorligi senga huzur bag'ishlardi. Ular hayotda o'z tashvishlaridan ham muhim narsalar borligini xayollariga ham keltirmasdi, sen buni bilarding, bilib turib qilarding barcha yaramasliklarni. Sendan yovuz odamni bu tog'lar hali ko'rmagan... tuf... Endi ham ko'rmasin... Sen oxirgisi bo'!! Sening qilayotgan ishlaringga Karab turib har doim o'lik senmi yoki menmi deb o'ylardim, tani o'lgandan so'nggina odamning o'lik yoki tirikligi ma'lum bo'ladi. Xomtama bo'lma, lekin sen fanoda birormarta ham tiriklarga xos ish qilganing yo'q, sen nimaiki qilgan bo'lsang, o'zim uchun qilding. Shunday! O'lim - man tiriklik! Sen o'liklar orasida qayta tirilar ekansan, hatto oddiygina, «nima uchun yashadim? Degan savolga ham javob berolmaysan. Seni hatto oddiy o'liklar ham o'z saflariga qo'shmaydi, sen qum quyuni qoplab olgan sahroda yolg'iz o'zing abadiy kezib yurasan, abadiy! Bu sahro hech qachon tugamaydi; oylar, yillar, avlodlar tugaydi, lekin bu sahro hech qachon tugamaydi; ana shunaqa. Hu, ana, qorayib ko'rinayotgan g'or - o'sha sahroning eshigi... Yo'ling seni to'g'ri o'sha yoqqa olib boradi. Yaqinlashib ham qoldik. Men seni o'sha ergacha kuzatib qo'yaman. Dadil bo'l. Hechqursa g'ordan o'tayotib meni uyaltirma, shusiz ham mening yuzim shukut bo'lib qolgan...

- ... Anavi qz kim? Nega to'qayzorda yolg'iz o'zi yuribdi? Qadam tashlashlari ham bejo.
- Ne'mat kalning tng'ich qizi. Har doim shu to'qayda qo'zi boqib yuradi.
- Nega qo'lini oldinga cho'zib yuradi?! Ko'rinishi abgor, nima, esi pastroqmi?
- Esi-ku joyida, unda balonning esi bor. Lekin u baxtiqaro bo'lib tug'ilgan. Hamma balo shunda. Bo'lmasa bunday suluv qiz bu o'rtada topilmaydi. Uning ko'zlari basir. Chippa ko'rmaydi. Ona qornidan shunday bo'lib tushgan. Shuning uchun ham qo'llarini oldinga cho'zib yuradi...

- U hech kimning kuzatuviz yuradimi?! Shu holiday-ya?!

- E-e, uni kim ham kuzatib yurardi. Otasining bundan boshqa olti qizi bor, tashvishi shusiz ham etarli... Bu esa otasiga qo'zi boqib beradi. U qo'zilarni isidan taniydi. Qo'zilar uni hech qachon tashlab ketishmaydi, shu atrofda o'tlab yurishadi. Kech bo'lgach, uyga o'zlari aytadi. Ana shunday u qiz...

Eshikni yamoq to'n kiygan o'rta yashar odam ochdi. U ichkariga qo'rqa-pisa nazar tashlab, o'ziga qattiq tikilib turgan ko'zlarni his etgach, sekin ichkariga kirdi. Izidan eshik sekin g'ichirlab yopildi.

- Xo'sh, nima gap? - dedi ichkaridagi ovoz.

Tirqishdan sirg'alib kirayotgan xiragina oy nurida uning charm kamzuli yaltirab ketdi. Kirgan odam ostonadayoq tizzalab o'tirib oldi. Gap boshlashdan oldin kamzulli odamning avzoini bilmoqchidek, unga zingil solib qaradi. Biroq shilpiq ko'zlari barvasta sharpa ustida qalqib turgan xumday qoradan boshqa hech narsani ko'rmadi; uning nazarida ichkaridagi odamning na yuzi, na ko'zi, na labi bor edi, faqat chuur g'orda yoqib qo'yilgan bir juft shamday ikkita ko'z o'ziga qadalib turganini his etar va o'ng'aysizlanardi.

- Nima gap? - dedi yana ichkaridagi ovoz.

- Men... men... - Kelgan odam qorong'ulik qa'riga tikildi, lekin boyagi shaytonning soyasiday sharpadan boshqa hech narsani ilg'amadi, - men pastki chorbog'da o't o'rayotgandim... bu yil beda erta quvrab ketdi.

- Xo'sh, gapir...

- Shunday yo'lning bo'yida. Oy yorug'ida ham o'raqolay deb hali uyga ketmagandim.

- Bu erda nega kelding? - o'shqirdi ichkaridagi ovoz. - Senga bu erga kelma degandim-ku?!

Ostonadagi odam cho'chib tushib, gapini yo'qotib qo'ydi, tili og'ziga kosovday tiqilib qoldi, uni harakatga keltirish uchun xiyla qiyin kechdi, bir necha bor qizarish va qaltirashdan so'ng bo'g'zidan daf'atan otilib chiqqan tovush hech qanday ma'no ifodalalmadi.

- Shu... shu... o'rayotandim... Keyin birdan...- O'zini tutib oldi u oxiri. - Keyin birdan ov... ovozidan tanidim. Yo'lda Begmat polvon bilan Hasan cho'loq o'tib borishayotgan ekan. Ular ertalab Ko'chabuloqqa - Sori Haydarnikiga ta'ziyaga o'tib ketishgandi, o'z ko'zim bilan ko'rgandim. Ular bir-biriga shivirlab gaplashib boryapti ekan...

- Nimani? Eshitdingmi?...

- Ha, sizni... sizni, otasini o'ldirgan, padarkushlik qilgan deyishyapti...

Ichkaridagi odam shu'la tushib turgan derazani aylanib o'tib, burchakka borib keldi.

Yana avvalgi joyiga kelib derazaga orqa o'girib turib oldi.

O'rta bir zum sukunat cho'kdi.

- Tuhmat qilma! Zang'ar!!!

- Tuhmat bo'lsa tosh bossin. Ichkaridagi odam boshini quyi egib oldi. Oraga yana jimlik cho'kdi. Uning nafas olishi og'ir va xirildoq edi. Bu sukunat naqadar xatarli ekanini sezgan ostonadagi odam bezovta bo'lib, qimirlab qo'ydi. Ichkaridagi odam unga e'tibor bermadi, tizzalariga tikilganча uzoq turib qoldi.

- Mulla Xidirnikida nima gap? - dedi u so'ng mutlaqo boshqa ohangda.

- Poylab yuribman. - Ostonadagi odam birdan engil tortib javob berdi.

- Sayful eshon bilan Shukur qizil kelib ketdi. Lekin nima olib kelganini ko'rolmadim, ichkariga kirib ketishdi.

- Mayli, sen endi boraver, lekin bundan buyon kela ko'rma, kerak bo'lsang o'zim oldingga boraman. Mullanikini yaxshilab kuzat. Kim, qachon, nima olib keldi, hammasini

bilib ol. Agar biron kori xol bo'lsa, o'zing qulog'ingni ushlab ketasan. Ostonadagi odam itoatkorona bosh irg'adi. Eshikni ochar ekan, qayrilib yana ichkariga qaradi, yana barvasta sharpadan boshqa hech narsani ko'rmadi. Bu o'zi qandaydir sharpaga o'xshaydi, - o'yladi ichida u. - Chiroq yoqibo'tirsa nima qilarkin? Yo yorug'likdan qo'rqarmikin.

- Samad o'zinggunohingni bo'yningga ol, shunday qilsang, jazong ham engil bo'ladi.

- Mening hech qanday gunohim yo'q. Axir buni senga necha marta aytdim.

- O'ylab ko'r. Balki eslarsan.

- Axir o'n kundan beri jslolmadim. Meni bu erga nima uchun olib kelishdi, hech bilolmayapman.

- Gunohsiz kishini bu erga olib kelishmaydi. Yaxshilab eslab ko'r.

- Yo'q eslolmayman, kallam shishib ketdi. Yo meni otib tashla, yo qo'yib yubor. Ortiq bu azobga chiday olmayman. Meni sharmanda qilma.

- Buni jinoyat qilmasdan oldin o'ylab ko'rish kerak edi. Endi kech.

Yaxshisi, o'zing bo'yningga ol. Tavba qilib keldi, deb yozib qo'yamiz

- Aybm bo'lsa, shartta ayto jazoimni ber. Nega menga azob berasan! Har narsa to'g'risida o'ylayverib adoyi tamom bo'ldim.

- Shukur qizilnikida qo'shiq aytganmiding? Nima deb aytganing esingdadir?

- Aytgandim. Nima, qo'shiq aytish mumkin emasmi?!

- Mumkin, mumkin. Sizlarga mumkin.

Barvasta odam bir uyum qog'ozlar ichidan bir varaq qog'oz olib, Samad baxshiga uzatdi.

- Mana bu qo'shiq senikimi?!

Baxshi qog'ozga ko'z yugurtirirdi

- Men o'qishni bilmayman.

- O'qish shart emas. Darrov esingga tushdi. O'zing mug'ombirlik qilyapsan. Otasini o'ldirgan, g'am-anduhga to'ldirgan kim ekan?! Biz emasmi?! Sen bu erda bizni nazarda tutmayapsanmi?!

O'chib xamrohiga tikilib qoldi.

- Bu qo'shiqni bizning ota-bobolarimiz to'qigan.

- Lekin sen aytgansan...

- Men bunday demoqchi emasligimni sening o'zing bilasanku?!

- Nega?! Masalan men xuddi shunday deb o'ylayman. Keyin buni men emas, o'sha to'yda bo'lgan hushyor odamlar etkazishgan.

- Yolg'on! Hech kim bunday demagan.

- O'kirma, bu er otangning uyi emas. To'yda qatnashganlarning hammasini bir-bir chaqirdik. O'n etti kishi buni tasdiqladi. Mana, ko'r. Ular aynan shunday tushunishgan.

Xo'sh, endi tan olarsan kimga sotilganingni?!

- Men hech kimga sotilmaganman.

- Unda o'zing buzg'unchi ekansanda- Mayli shunday deb yozib qo'yamiz.

- Nega endi bilib turib zug'um qilayotganingni men tushuna olmayapman.

- Tezda tushunib olasan. Sen ko'p aqlli bo'lib ketding. Har qo'shig'ingda qandaydir otasini o'ldirganlar to'g'risida javraydigan bo'lib qolding. Endi aqlingni peshlab kel. Sen qo'rqma, Sibirga jo'natmayman, sen cho'lga borasan, cho'lni o'zlashtirasan. Agar ongli ravishda o'z xatoingni yuvsang, qaytib kelishga ruxsat berishadi.

- Meni sharmanda qilma. To'rtta bolam bor, ularning qarg'ishiga qolma!

- Bolalaring to'g'risida qayg'urmay qo'yaqol.. O'zimiz g'amxo'rlik qilamiz. Agar sening yoningda bo'lsa, ularni ham dushman qilib tarbiyalaysan.

- Ko'zingni och! Bu turishda yaqinda butun ahlar huvillab qoladi.

U yana nimadir demoqchi edi lekin xonaga kirgan ikki kishi uni olib chiqib ketdi.

- Biz yo'llimizga kim to'siq bo'lsa, hammasini yo'qotamiz, hech kimni ayamaymiz, - baqirdi uning izidan ichkaridagi odam. - Qishloq bo'shab qolsa, boshqa odamlarni ko'chirib kelamiz...

«Bu qo'llar emas, seni nogiron qilib yaratgan dunyoning bag'riga sanchilgan xanjarlardir, Zubayda. Kipriklaring u osmon shohining tasbehidir, o, yo'q, bu ko'ngil qushlariga qo'yilgan tuzoqdir...

Meni sendan tortib olishadigandek bo'ynimdan quchoqlab yig'laganingda, bu ovloq to'qayni pichir-pichirlaringga to'ldirganingda, labingda tushuniksiz savollar qotganidaYu bu sirli olamga yorib chiqib va o'chdida va meni o'zingga ham ishonmay o'z ko'zlari bilan ko'rish uchun jajjigina yuraging ko'ksingning qafaslariga gurs-gurs urganida, bu dunyodan baxt izlab cho'zilgan qo'lingning qon hidi tutgan sochlaringni silaganida sen uni topdingmi, Zubayda?!

...Kel, meni quchog'ingga ol, oftobni ko'mganday meni og'ushingga ko'm. Mayli, ko'zlaring qo'rg'oniga qamab qo'y, mayli, kipriklaringga bog'lab qo'y, faqat bu dunyoning qarg'ishlaridan meni sochlaring qatiga, lablaring qa'riga yashirsang bo'ldi.

Men seni izlab bu erga har kun kelgim, bu to'qayga umr o'tovini tikkim keladi, sening bosgan izlaringga o'zimni ko'mgim keladi. Kel, panjalaringni ko'zlarimga sanchib qo'y, toshlar tilgan oyoqlaringni ko'kragimga ekibyu qo'y, shivirlaringni qulog'imga qok. Sen mening izlay-izlay topib olgan baxtimsan, sen mening to'qayzorga qadab qo'ygan tug'imsan. Mayli, hamma yuz o'girsin, mayli, hamma tashlab ketsin, faqat sen meni tashlab ketma, sen tashlab ketma... tashlab ketma...»

«...Sening zilol suvlarinni ichganimda, ko'rpa bo'lib to'shalgan ko'katlaring ustida yayrab yotganimda hayotga qaytadan kelgandek bo'laman. Men sening tuproqlaringdan yaralganman, bu ulug'vor qoyalar ham, undagi xarsang toshlar ham, ilon izi yolg'izoyoq so'qmoqlar ham mening tanim. Men ular bilan birga nafas olaman. Ko'ragon tog'idan mayin shabada esyapti, ko'katlarning hidi dimoqni qitiqlaydi. Qandaydir qushlar sayrayapti. Hoynahoy, moda kakliklar bo'lsa kerak...»

«Aftidan ko'klam kelganga o'xshaydi. Dimog'imga olma gulining hidi kelyapti. Pastdagi to'qayda bolalar shovqini eshitilmoqda. Ular chillak o'ynayotgan bo'lsa kerak, har-har damda qaysisidir g'uvillab yuguradi. Uning oyoqlarining shitiri mening suyaklarimni yayratadi, men bu tovushdan huzur qilaman, men uning maysalar yalagan, shabnam yuvib qo'ygan jajjigina tovonlaridan o'psam deyman, yotgan joyimdan tepaga - ularga mo'ralab qaragim keladi. Ular oyoqlari tagida odam suyaklari qaqshab yotganini, zaxda chirsillab sinayotganini, chiriyoqganini, eng qizig'i, mening uyg'oqligimni, ularni kuzatib turganimni, tovushlarini eshitayotganimni bilisharmikan? Agar menga u dunyodagiday ovoz ato etishganda mana shu go'rimda turib, ularga qarata: «Sizlar g'aflatda qolmanglar, hushyor bo'linglar! Bobolaring ruhi uyg'oq, uyg'on!» deya qichqirgan bo'lardim...»

«Narigi qabrning atrofini kimdir supurib-sidirayapti, supurgi shitiri eshitalayapti. Mening yonimda yotgan bolakay uyqu aralash hiringlab kulib qo'ydi; kimdir tush ko'rdi, shekilli, balkim tushiga onasining mammalari kirgandir; yuqoridagilar uning kulgusini eshitishdimikin?!.. Er osti dunyosi naqadar bepoyon! Bu erga odam qayta o'lmaslik uchun keladi. Bu erda u dunyodagi umr ko'z ochib yumishday gap. Yashayverasan, yashayverasan, bu yashashning, qani, oxir-nihoyasi bo'lsa. Faqat sen shu zim-ziyo qo'rg'ondagina er bilan abadiy birga ekaningni anglaysan...»

...Mening yon tomonimdagi qiz yana xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi. Oshiq yigiti bilan topib olishgan akalari uni naq qoyadan uloqtirishgan. U dunyo naqadar mudhish. Odamlar ustida hamisha yovuzlik hukmron bo'ladi...

...Uh yana qanday shovqin?! Naq ustimda qiyomat qoyim boshladi chog'i. Nimaning tovushi bu?! Muncha vahimali?! E-e, bular mozoristonni buzishyapti-ku! Aqldan ozishibdi u dunyodagilar... Ha, aniq, buzishyapti, yana, o'sha mudhish qiyomat tovushi tobora yaqinlashib kelyapti. O, sen, ona erim, momo erim, mana endi ular meni sendan judo qiladilar, suyaklarimni abgor qiladilar. O, yaramaslar, haromilar, padarkushlar!..»

- O'rtoq boshliq biz Ne'mat kalni olib keldik.

- U nima gunoh qilibdi? Nega uni bog'lab tashladilaring?

- U katta qizini mana bu bolta bilan chopib o'ldiribdi. Qizi kimdandir bola orttirgan ekan. Bolasini ham chopib tashlabdi. Bu o'sha - biz to'qayda ko'rgan qiz. Uning qoq peshonasidan bolta uribdi. Tili bir qarich chiqib yotibdi...

O'g'ilning sillasi quriy boshlagan edi: uning peshonasidan reza-reza ter oqar, yuzi tobora bo'g'riqib, ko'karib borardi, oyoqlari chalishib ketardi. Lekin yo'lning adog'i hali beri ko'rinmasdi - butun borliqni tun shohi timqora chodiri tagiga yashirib olgan edi.

Yo'l naq jahannamga olib borayotganday harorat tobora ko'tarilardi.

- Biz hech kimga hech narsa qilmagan edik, - derdi chol o'g'ilning jimib qolganidan va bu kimsasiz sahroda yolg'iz ketayotganidan bir oz cho'chib. - Biz hech kimning eriga bostirib bormadik, biz hech kimga zug'um qilmadik. Tinchgina yashab yurgan edik: qo'sh haydardik, bug'doy yanhardik, tiriklik toshini sekin tortib yuruvdik. Biz emas, ular bostirib kelishdi, tinch hayotimizni ular buzishdi. Sizlarday aqlimiz o'tkir emas edi, har narsani ham darrov tushunmas edik. Biz faqat eski osoyishta hayotimizni qurolli kishilardan qurol bilan qaytarib olmoqchi edik. Bor gunohimiz shu edi, boshqa hech narsa! Eshityapsanmi, boshqa hech narsa.

- Bilaman, - dedi o'g'il. U g'ilt etib yutindi. Yuzi ko'm-ko'k ganch haykal rangiga kirgandi, tovushi bo'g'izidan emas, go'yo er ostidan, naq jahannamdan guldirab chiqayotganday eshitildi.

- Bilasan? A? Demak, otangni bilib turib o'ldirgan ekansan. Qoyil. Sizlar kimdan ta'lim oldilaring, bilmadim. Otasingunohi yo'qligini bilib turib, ataylab o'ldirgan emish? Otam tirik tursa, o'sha shaloq kursimga o'tirolmayman, boshliq bo'lolmayman deb qo'rqdingmi, a? Shundan qo'rqdingmi?

- Bo'ldi, - ingrab yubordi o'g'il otasini silkib, o'ngarib ko'tarar ekan, - bo'ldi deyaipman...

- To'g'ri, shundan qo'rqding. Otang tirik tursa, senga nozik joylarni ishonib topshirmasdi, parvozing baland bo'lmasdi, har ikki daqiqada otang uchun so'roq berib turishingga to'g'ri kelardi. Sen buni juda yaxshi anglarding. Otangni deb, senga g'animplaring tinchlik bermasdi. O'lib ketsa hech kim notayin odamni surishtirmasdi ham. Sen shunday deb o'ylaganding. Afsus o'sha kuni - dedi qoya orqali olib o'tayotganingda buni sezmagandim. Sen hammasini osongina hal qilib qo'yaqolding. Qoya ustiga kelganimizda mening ostimdagi otga qamchi bosding. Ot hurkib, oldinga tashlandi, men hatto nima bo'lganini bilolmay qoldim, faqat qoyadan toshdan-toshga urilib uchib tushayotganim esimda. So'ng men bir zum zulmat ichida qoldim, qayta tirilganimda sen mening jasadim ustida yig'lab o'tirarding va nariroqdagi ikkita cho'ponga nimalardir deb tushuntirarding. Sen juda qo'rqqoq eding, qilgan padarkushligingni birov bilib qolmaslik, shubhalanmaslik uchun og'zingni sasitib so'kinganingda, go'yo alamdanda aqlingni yo'qotganday, og'zidan qon kelib, ixrab yotgan otni ham otib tashlading. Sen otdan ham qo'rqding, otarkansan, uning javdiragan ko'zlariga qaray olmading... Men esa hammasini kuzatib turardim -

shundoq oldingda, yoningda kuzatib turardim. Hatto ikki marta mauzeringni olib, nishon qadalgan ko'kragingdan otib tashlagim keldi. Lekin bizga bunday huquq berishmagan. Men jasadim ortilgan aravani Ko'kqiyagacha kuzatib bordim-da, so'ng g'orga qaytdim. Lekin, sen mening jasadimni qanday ko'mganingni ko'rib, sezib turardim. Sen boshliqlaring oldida bir tomchi quzyosh to'kmading. «Otam yot odam edi, o'z o'limini o'zi topdi» deding. Sening ahvolingni ko'rib ular ham ich-ichidan kuldi - axir ularni ham ota yaratgan-da. Agar yig'laganingda ham hech kim hech narsa demasdi. Faqat sen ustasi farang odam eding. Unsur otasining ustida yig'lagandi degan gapni ko'taring, kelajagingni havf ostiga qo'yging kelmadi. Sen yig'lamading, yig'larmikansan, tavba qilarmikansan, deb men uch kungacha uying atrofida aylanib yurdim. Yo'q, yig'lamading. Sendaylar asli yig'lashmaydi. Odamlarning o'limidan rohatlanishadi. Qanday uyat?! Hali bizning ajdodimizda ojizaga zug'um qilish hodisasi bo'lmagan. Sen esa hech narsadan tap tortmading. Mana, oqibati... Ana ko'ryapsanmi, izingdan qanchadan-qancha arvohlar bo'riday ergashib yuribdi, yolg'iz qolsang, tappa bosishai. Ular juda quturgan... O'sha sovuq yurtlardan seni deb aytib kelishgan. Endi har kecha yo'lingni to'da-to'da bo'lib poylab yotishadi. Har birining sen bilan o'z hisob-kitobi bor... Senga achinaman, biroq nachora bu yo'lni sen o'zing tanlagansan...

- Ota, esingdami men hali juda-juda yosh edim, mishiqli arimagan qizcha edim, hammasi qo'rqinchli tushdek elas-elas esimda, sen g'oz qotib turarding, yo'ldan esa arava-arava odamlar o'tardi, yo'llar tiqilib ketardi, xuddi chumolilar iniga shoshayotgandek aravalar qaylargadir imillab borardi, odamlarning esa rangi qochgan, senga goh sezdirmay, goh oshkora adovat bilan tikilib-tikilib qo'yardi, sen esa pinak qoqmay turaverarding, aravalar hes tugamasdi, turna-qator bo'lib tongdan shomgacha, shomdan tonggacha o'taverardi, hatto yarim kechalari ham yo'ldan aravaning g'iyqillagan tovushi, zorlanishi eshitilib turardi, ularni qandaydir askarlar qo'riqlab borishardi, sen esa o'sha erda qotib turaverarding, ikki kunmi, uch kunmi vaqt o'tib, aravalar yana kunchiqar tarafga qarab yo'l olishardi, yo'ldan birin-ketin o'tishardi, aravachilar ham boshlarini egib olgan, atrofiga qarashdan qo'rqanday, uyalganday otlarini qichab haydab borishardi, aravalar g'iyqillardirdi, askarlar so'kinardi, to'da-to'da aravalar kunchiqarga yo'l olishardi, lekin bo'm-bo'sh bo'lardi, bu aravalar, ota, xuddi keraksiz toshlarni qaygadir, xilvatroq joyga to'kib qaytishayotganday, aravalar bo'm-bo'sh bo'lardi, yana bir necha kundan so'ng arava-arava odamlarni olib qaylargadir jo'nardi, sen esa, o'sha bahaybat xarsang oldida g'oz qotib turaverarding, o'sha odamlarni qayga olib ketishardi, ota? Nega ularning ko'zlari senga bunchalik kin bilan tikilardi, nega seni bunchalar yomon ko'rishardi ular?! Esingdami, ota? Yo tushmidi bu? Men, o'sha mishiqli qizaloq bularning barini tush ko'rganmidim?! O'sha aravalar tushmidi, ota?!

- Bilmadim, qizim, bular mening esimda yo'q... Hoynahoy sen tush ko'rgan bo'lsang kerak...

- O'sha paytlari odamlar go'yo bu erlarda yovuz bir sharpa oralab yurganday hamisha nimadandir qo'rqib, hadiksirab yurishardi. Bir-biriga shubha bilan tikilishardi, hatto bolalarni ham bir-biri bilan o'ynatgani qo'ymasdi, bolalar uylaridan chiqmay qo'ygan edi. Hamma xuddi yovuz sharpa sening tanangga yashiringanday, senga qo'rqib-pisib qarashar, sen bilan duch kelib qolsa ko'zlaridagi g'azabni yashirib, go'yo joni sening qo'lingda turganday yaltoqlanib, egizib-bukilib o'tardi, bellar esa... ayollar sening nomingni qo'shib qarg'ashardi, seni ko'rganda etaklarini ko'tarib, orqalarini ko'rsatishar va endi bu erimni ham ol deb shang'illashardi. Nega shunday deyishardi, ota? Nega kechalari qishloqlar mozoristonddek jimib qolardi, ota; nega odamlar bir-biriga eb qo'yguday tikilishardi, bir-biridan nega qo'rqardi, ota?!

- Bilmadim, qizim. Hoynahoy sen adashtiryapsan. Bularning hammasi tush bo'lsa kerak. Hammamiz tush ko'rganmiz, qizim, shu sababli u zamonlarni yaxshi eslolmaymiz... eslaganimiz ham tuzuk.

- Men esa kechalari uyg'onib ketaman, nazarimda, hali ham yo'ldan aravalar g'iyqillab o'tayotganga o'xshaydi, gohida kuppa-kunduzi ham yo'lga tikilib qaragam, aravalar hamon o'tib borayotganini ko'raman, ular avval kun botishga qarab o'tadi, so'ng kun chqarga... Ba'zan bu umr bo'yi tugamaydigandek, oxiri yo'qdek tuyuladi menga. Go'yo endi bir umr qulog'imizdan aravalar g'iyqillashi arimaydigandek, ko'zlarimiz oldida endi faqat aravalar o'tib turadigandek tuyuladi menga. Yarim kechalari uyg'onib ketaman.....

- Bilmayman, qizim. Men keksayib qoldim. Menga bunday savollar berma! Hech narsa esimda yo'q! Esimda bo'lmagani ham tuzuk.

- Kimdir shu tarafga kelayotganga o'xshaydi, ota.

- Ular aftidan ikki kishi bo'lsa kerak, yaxshilab qara-chi.

- Ikki kishi ekan, biri sal orqaroqda kelyapti. Sen aerdan bilding?

- Kecha xabar berishgan edi. Ularni men ertaroq kelsa kerak deb o'ylagandim.

- Qiz bir zum angrayib qarab qoldi.

- Kim ekan ular?

- Cho'lga ketganlar. Begmat polvon bilan Hasan cho'loq

- Axir ularni o'ldi deb xabar kelgandi-ku.

- Ular allaqachon o'lib ketishgan, o'lmaganlarida bu erlarga qaytib kelmasdi...

...Yo'lning intihosi ko'rinmasdi. Ship-ship etgan qadam tovushlari eshitilar, ular ketayotgan yo'lga yulduzlar uchib tushardi. O'g'il yurib borar, ota esa uning elkasida yalpayib o'tirgancha yo'lning adog'iga tez-tez ko'z tashlardi. Aftidan, u ham o'g'lining elkasida o'tiraverib charchagandek edi. Yo'l kesib o'tgan dala esa huvillab yotardi, atrof ularning sharpasidan kukunday to'zg'ib ketayotgan kuyindi suyaklar bilan to'lgandi; tong go'yo bu erlarga tashrif buyurishni unutib qo'yganday ularning ustida besarhad tun sim-simi to'shalib yotardi.

Yo'l esa benihoya edi...

## QALB TO'ZONI

Yaqinda bir tanishim bir to'da qo'lyozma ko'tarib keldi.

-Shu qo'lyozmalardan yaroqlisini tanlab, bir to'plam qilsangiz. Muallifi ikki oy burun qazo qildi. Juda yosh edi, to'plam qilishga ham ulgurmagan ekan. Nimadan o'lganini hali aniqlashganicha yo'q. Ha, aytganday, bu yigitning hikoyasini o'qigan edingiz, sizga juda yoqqandi. Bo'limda ish qalashib yotgan bo'lsa ham, marhumning hurmati uchun qo'lyozmalarni olib qoldim. Ikki oylardan so'ng unga tartib berish va tanlash uchun saralab, o'qiy boshladim. Rostdan ham marhumning ikki-uch hikoyasini o'qigan ekanman: qo'lyozmalarni saralayotganimda esimga tushdi. U men tasavvur qilgandan ham yosh, hali ko'p ishlar qilishi mumkin bo'lgan nozikta'b va favqulodda qobiliyat egasi edi. To'g'risini aytishim kerak, jurnalda ishlaganimga o'n yildan oshgan bo'lsa-da, bunday hikoyalarni kamdan-kam o'qigandim. Hikoyalarda inson tabiatida mavjud bo'lgan ziddiyatlarning hammasi potirdab yuzaga chiqqan, muallif tushkunlik umidsizlik, ikkilanish, jur'atsizlik, xijolat, cho'chish va mavhumliklararo o'ziga shunday yo'l ochib olgandi-ki, uni endi bu yo'ldan surib chiqarish mumkin emasday tuyulgandi menga.

Qo'lyozmalar meni qanchalar hayajonga solganini hozir tushuntirib berolmayman. Men go'yo biyday bepoyon va tuganmas sahroda uzoq adashib yurib, to'satdan ko'klam cho'milib yotgan, qizg'aldog'u lolalar porillab ochilgan, maysalar qomatlarini ko'z-ko'z qilish uchun saylga chiqan qizlar kabi durkunlashgan, havosidan hayot isi anqib yotgan, uzoq-yaqindan hayvonlar o'kirigi eshitilib turgan yam-yashil o'rmondan chiqib qolganday edim. Kim biladi, turli xil chuchmal qo'lyozma o'qiyverib, charchaganim uchun shunday ta'sir qilgandir, lekin uzoq davom etgan tunni ufqdan otilib chiqqan quyosh to'satdan charag'on qilib yuborgani kabi uning sevgan qizingizning tabassumi yanglig' dilingizni nurafshon qiladigan so'zlari, majozlari, manzaralari va ramzlari mening ko'nglimni lovllatib yoritib yuborgandir? Hikoyalari xalqalari mustahkam va hech qachon uzib bo'lmas zanjir, ko'chalarda o'lja izlab, uvillab yurgan o'lim, qabrlarga boshlab boradigan yo'l, qaygadir shoshib ketishayotgan boshsiz odmlar, ko'zlari chippa ko'r bobolari izidan oq qasrni izlab borishayotgan bolalar, faqat qo'zichoq tug'adigan ayol, egasiz va qorovsiz daydib yurgan otlar, umr bo'yi hech kim sotib olmaydigan xanjar yasab o'tirgan telba usta, donishmandning boshini koptok qilib tepishayotgan olomon haqida edi va barcha hikoyalari odamning ko'nglida achchiq xo'rsiniq uyg'otardi. Ammo meni to'plam ichidagi hikoya ham, kundalik ham deb bo'lmaydigan, xuddi tassurotlar qaydnomasiga o'xshash qo'lyozma ko'proq hayratga soldi. Bu qo'lyozma hali tugallanmagan, oldingi hikoyalarga hech bir o'xshamaydigan tarzda poyintor-soyintor, u hikoyadan ko'ra biron kitobdan olingan fikrlar umumlashmasiga o'xshardi-ammo bu erda na kitobning nomi, na uni yozgan yozuvchining ismi tilga olingan, tush kabi almoyi-aljoyi lavhalar edi.

Bu qo'lyozmadan alahsirash, vasvasa anqib turar, so'zlar ishlanmagan, varaqlar yuviqsiz yuz kabi kir-chirga belangan, so'ng g'azab va nafrat bilan sahifalar toki yirtilib ketguncha chizib tashlangan, bu manzaralardan biron narsani aniqlab olish qiyin edi. Shoshib ketyotganingizda oldingizdan lop etib bir yirtqich chiqib qolgandek, bu qo'lyozmada voqealar ham to'satdan, izohsiz, tafsilotsiz boshlangandi. Men qo'lyozmaning birinchi varaqlari tushib qolgan bo'lsa kerak deb o'ylagandim, darvoqe, sahifalarga tartib raqami ham qo'yilmagan, voqealarning rivojiga qarab duch kelgan betdan o'qiy boshladim.

«Bugun yozuvchi A. bilan uchrashuv bo'ldi. Zal odamlarga to'lib ketdi. Taniqli yozuvchilarning hammasi A.ni «ustoz» deb maqtadi. A. menga yangi chiqqan kitobini sovg'a qildi...»

«... Kasalligim uchun bugun meni ishdan bo'shatishdi. Miyamda shish bor ekan. Yaxshi bo'ldi: endi uyda kitob o'qib yotaman. Qo'limga kitob olmaganimga ham ko'p bo'ldi. Bugun «Qalb sadosi»da bosilgan hikoyamning qalam haqini surishtirib qo'yishim kerak. Balki, u mening bir-ikki oy kun kechirishimga etar?..»

«Bu kitobni deyarli har kuni o'qiyman. Uning so'zlarigina emas, tinish belgilarigacha shiraga yopishgan pashshaday xotiramga o'rnashib qolgan. Ko'zlarimga tuganmas qo'shunday bostirib kirayotgan jumlar nazarimda, to'satdan yorila boshlagan suyak kabi qarsillab ketayotganga o'xshardi, har safar qayta o'qiganda bo'shab yotgan kimsasiz dalaga yopirilib keladigan kuzgi qarg'alar misoli qalbinga yangi-yangi vahimalar yopirilar, baayni, aroqqa ro'ju qo'ygan, faqat maygina xulyo oftobini yoritadigan, xumorini bosadigan bodaparast kabi menda ham kitobdagi manzaralarning xumori paydo bo'lgan, voqea meni mast qilib qo'ygan, unga ro'baro' bo'lgan kundan boshlab, biron kecha ham o'qimasdan uxlamas, hayotim shomi ham, tongi ham shu kitob bo'lib qolgan edi. Har kuni ko'chadan charchab qaytgach, nomigagina nonushta qilar, biroz mizg'ib olishga qanchalik harakat qilmay, yostig'im tagida yotgan kitob meni



ohanraboday o'ziga torta boshlardi: vujudingga xuddi maydalab yog'ayotgan qor kabi bir miskin tashnalik, bir miskin qumsov ezilib-ezilib yog'adi. Men esa qorga qarab turib, shirin hayollar surish, xotiralarga berilish o'rniga, oxiri yo'q botqoqni kechib yurgandek, kitob varaqlari aro jur'atsiz kezib yurardim. Kitobda aytarli hech bir voqea yo'q, til ham zanglagan kasov kabi quruq, joziba va nafosatdan xoli, dag'dag'a va vahm to'la manzaralar joy olgan ko'rimsiz, aytish mumkinki, g'oyatda dag'allik bilan yozilgan og'ir zanjirday jumlar to'plamidan iborat edi. Ammo mana shu sarg'ayib ketgan sahifalar, qulab tushay deb turgan ustunga o'xshash zo'raki jumlar va ataylab bo'rttirilgan tasvirlar aro bir tojovuzkorana ruh kezib yurardi. Va balkim meni ham mana shu ruh oshufta etgan, tushimning, hayotimning osayishta va sokin qo'rg'onlariga shu ruh bostirib kirgan, telba xayolini band etgan osmonsiz quyoshsiz kabi mening ham o'y-u xayolimni band etib olgandir?!

Tunlari cho'chib o'yg'onib ketar ekanman, hozirgana meni uyqu osmonidan haydab tushirgan tush kalxatining chaqchaygan ko'zlarini eslashga behuda harakat qilardim. Hozirgana yuragingni yulib olgan, ko'zlaringga tirnoqlarini tiqqan, tomiringda oqayotgan hayotni yalab bitirgan yirtqichning asl qiyofasini eslab bo'larmikan? U yirtqichning asl qiyofasi bormi? U tushim uxlab yotgan kulbaga goh uch boshli ajdar, goh osmonu-falakni qanoti bilan to'sib qo'ygan kalxat, goh er yuziga o'zidek maxluqlarni urchitib yuruvchi o'laksaxo'r maxluq bo'lib kirardi. O'yg'onib ketgach, xonamga pardalar orasidan zo'rg'a sirg'alib kirayotgan tongning moviy yog'dulariga tikilganicha, uning qiyofasini eslashga xarakat qilardim, shu'lalar esa go'zal malakning moviy rangdagi soch tolalaridek, mening bo'ynimni va yuzimni qitiqlardi. Kitobdagi ruh asta-sekin mening oylarimni, haftalar, kunlar, daqiqalarimni istilo qilib olgan, har lahza, har soniya jismu jonimni qatilkor qadamlari ostiga olar, so'ng chekib bo'lingan tamaki kabi ezg'ilab o'tardi- bu holat deyarli har kuni takrorlanar, tonglar shafaqdan endi bosh ko'tarayotgan quyosh, tunlari to'lin oy bo'lib umrim ko'chalarida paydo bo'lar, gohida esa besanoq qo'shinlar yig'ilib turgan ulkan qal'a ustida hilpirayotgan yalov kabi xayolim, shuurim devorlarida hilpirar, tog'dan shiddat bilan to'kilayotgan jilg'a misoli qon tomirlarimda gupirib aylanardi, o, bu ruh meni qachon tark etar ekan, o, bu taqdir kitobi qachon meni kishanlardan ozod qilar ekan? Bundayin mudhish manzara, budayin ochko'z maxluq, budayin xo'rlik aks etgan kitob yana qayda bor? Qayda bor bundayin jodu g'arq qilgan mustabid suhufar? Qayda bor bundayin mutelik ilmi? Bu xo'rlik san'atidan qachon qutulaman? Bu haqorat uyqusidan qachon o'yg'onaman? Men vahim va qo'rqinch to'la ko'nglimni nimta-nimta qilib, sahifalarda xo'rak izlab izg'ib yuradigan ruhning sayoq itlarga bo'lib bergan, endi menda jismu, to'rtta suyakdan boshqa hech narsa qolmagan edi. U kitobni na yirtib tashlardim, na birovga berib yubora olardim. U idish tagiga cho'kkan g'ubor kabi ongimga, shuurimga o'tirishib qolgandi: o'qib chiqqandan so'ng har safar yirtib, varaqlarini qiyma-qiyma qilishga o'zimni chog'lar, biroq pistirmadan chiqib qolgan, sanoqsiz qo'shin oldida lolu-hayron bo'lib turgan botir yanglig' qo'limga olishim bilanoq, bu tahluka, tojovuz va vahim to'la varaqlar oldida o'zimning zabun va ojiz ekanligimni anglab qolardim. Vaholaki, men ham bu olam ishqining mevasi bo'lgan, xo'rlik va haqoratlarga dosh berishga o'zimda kuch, to'qson botmonni bir silkishda ko'targan Alpomish kabi o'zimning izimdan o'ttiz yil umr botmonini ko'tarib yurgan, bir zamonlar bu dunyoga ezgulik va zaminni gullatish uchun ekilgan o'sha nasning navqiron avlodi edim. Kitob qarshisidagi mening holatim yaratgan gunohlarimga avf so'rab, sajda qilayotgan taqvadorning xolatiga o'xshardi, zero, menga kitob rostdan ham behad qudrat va xo'rlikning timsoli bo'lib tuyulardi. Balkim, mening sahifalar oldida ojiz va mahkum bo'lib qolishimning ham sababi shudir?? Mening o'sha paytdagi kechinmalarim

kema halokatidan so'ng bepoyon dengizda yolg'iz yog'ochga osilganicha turgan odamning kechinmalari kabi tushkun va umidsiz edi, zotan, bu sahifalar ko'ngil bog'laridan umid yalovlarini uchirib ketguvchi qop-qora quyunga o'xshardi. Shunday bo'lsa-da o'z yarasini o'zi tishlab yotgan bo'ri misoli men ham bu afyunga o'xshash manzaralarni xuddi telba kabi qayta-qayta o'qiyverar va bundan maxluq ko'z oldimda yana ham ulkanlashib, vahshiylik borar, endi miyaxo'r ertadan kechgacha miya er, lekin hech to'ydim demasdi: balkim rostdan ham telba bo'lib qolgandirman, yo'qsa, menga bu naqs va zo'rlik g'arq qilingan kitobning fosihu fotih ko'chalarida kezishga ne hojat, yo'qsa, shifti alam, devori xiyonat bo'lgan kitob bilan yashashga ne hojat, yo'qsa, har qadamiga dorlar qurilgan yo'llarda yurishga ne hojat?!

Men endi undan hech qachon qutulolmayman. U mendagi hamma narsaga yagona xo'jayin bo'lib oldi. Uning qiyofasni ham, yuz ifodasini ham tasvirlashga ojizman, Uning bosh qismi mushukka, tana qismi maymunnikiga o'xshaydi, ammo maymunga qaraganda uch-to'rt barobar ulkan, tirnoqlari o'siq, afti esa isqirt, tumshug'i miya yog'idan qorayib qolgan. U yaqinda butun shahardagi miyalarni eb bitirsa kerak. Axir kitobni ham shundayin vahshiyona ruhda yozadimi, degan fikr damo-dam xayolimga kelardi: axir maxluqning miyani qanday eyishi-yu miyasi eyilayotgan odamning ko'zlari qanday chaqchayishi, ajinlari qanday titrashishi, yuzini, ko'zini tiriklik qushlari qanday tark etishi, hayot zavqi qanday so'nishi, maxluqning miya eyish usullari-yu, uni xil-xiliga ajratib, chanoqning o'zidayoq ezg'ilab, so'ng ishtiyok bilan yalashi, yalar ekan, ko'zlari huzur va halovatdan so'zilib ketishi, o'rshiq va qalin lablari orasidan ko'kimtir, badbo'y so'lakning bo'yinlari aro ko'kragiga oqib tushishi, isqirt tishlari orasida qolgan miyani rohat qilib, ko'zlarini yumib so'rishi, so'ng yana miya izlab ko'chalarda izg'ib yurishi, tirik jon poylab, muyulishlarda, qorong'u xilvatlarda, dahliz va er osti yo'laklarida soatlab payt poylab o'tirishi, bosh chanog'i yorilayotgan odamning faqat ko'chani emas, butun dunyoni fig'onga to'ldirishi, lekin maxluq iskanjasida tipirchilay-tipirchilay, oxiri jon taslim qilishi haqida bunchalar hafsala bilan yozilishi shartmidi, o'qigan kishining dardu-dunyosini, shuuri ongini bunchalar zulmatga burkash uning qalbini, ko'nglini o'rtash, maxluq qo'lida jon taslim qilayotgan odamga qo'shilib, har bir o'qigan odamni ham qatl etish shartmidi?! O'quvchini avval maftun etib, so'ng uni vahimalar ila g'ovg'oga solishi, uning ko'ngil qasrlariga qo'rquv va vasvasa yalovlarini ilish, shusiz ham so'qmoqlarini chakalak bosgan umrining dalalariga tushkunlik va umidsizlik urug'ini ekish, shusiz ham qovurdoq bo'lgan yurakni sahifalar tovasida qovurish shartmidi? Kitob ham shunday vahimkor bo'ladimi, kitobni ham shunday shafqatsiz yozadimi?! Undan ko'ra jallod bo'lib, suyaklarini nimta-nimta qilgan afzal-ku!!"... Men kitobga va qalbi vahimga limmo-lim bo'lib turgan qahramonimga shunchalik muhtalo bo'lgan ketdim-ki, endi undan xuddi qulning bo'ynidagi zanjirday sira ajrala olmas edim va tunlari kitob ko'chalarida sargashta kezib yurardim. Kitobda miyaxo'rning uzun tafsiloti, fe'li, tishlari, qorachig'i cho'g'day yonib turadigan ko'zlari, qancha miya egani, uy boshchanoq bilan to'lgani, shaharni kundun-kun vahima qamrab olyotgani haqida uzun tafsilot berilgandi. Keyingi sahifalarida voqea keskinlashardi.

«Oh, tangrim,-deb oh tortardi qahramon,- najot bormi bu maxluqdan?! Kecha yoshgina qizchanning miyasini paqqos tushirdi. So'ng kun bo'yi yotib uxladi. Uxlaganda tanasidan badbo'y hid chiqardi-xonada turib bo'lmay qoladi - undan qochib chiqib ketgim keladi, biroq taqdir meni uning qo'llariga ekib qo'ygan, uning oyoqlariga kishanlab qo'ygan! Qochib qayga boraman? Qayga boray?! Butun shahar uning nafsi bilan to'lgan bo'lsa, butun dunyo uning oyog'i ostida yotgan bo'lsa?! Qani najot?! Agar u bor bo'lsa keltiring,

men uning kundasiga boshimni qo'yay, ko'llarila o'zimni g'arq qilay, ajal oloviga yuzimni bosay... Men shuni anglab qolgandimki, jumlar, so'zlar, sahifalar ko'z oldimda ulkan va eb to'yimas maxluqni yaratib berar va kitobning o'zi ham kundan-kun, nazarimda, miya eydigan ochko'z maxluqqa aylanib borar, men esa uni yirtib, pora-pora qilish o'rniga turli sahifalardan iqtiboslar ko'chirar va bu ko'chirmalarni qayta-qayta o'qirdim.

«...Miyaxo'r endi yuzlab miyani bir o'tirishda eb bitirar, qancha esa shuncha ishtahasi ochilib borardi. Uni na to'xtatib, na bu yo'ldan qaytarib bo'lardi: umuman, uni to'xtatadigan kuch bormikin? U qorong'u joylarda poylab turar, ko'chadan biron yo'lovchi o'tishi bilan tappa bosib, burchagiga sudirab ketar, sho'rlik esini yig'ib, baqirishga ulgurmay bosh chanog'ini bir urishda ochib, hash-pash deguncha miyani yalab bitirardi: miyani eb bo'gach, jasadga qayrilib ham qaramas, boshqa biron joyiga ham ziyon etkazmas, miyasiz jasad yotgan joyida to'lg'ana-to'lg'ana tipirchilab qolardi. Keyingi kunlarda u hatto ko'chalarda oshkora tentirab yurardi, qo'liga tushgan odam qochib qutulolmasdi, u bir paytning o'zida oyoqlarining tagiga o'nlab odamni bosib qo'yib, birin-ketin bosh chanoqni ochib, miyani yalar, so'ng yana o'lja izlab, gavjum joyga yo'l olardi. U kundan-kun semirib, shishib ketayotgan, yuzi tovoqday lorsillab qolgandi. Miya yalar ekan, qip-qizil tili shundayin tez harakat qilardi-ki, chanoqda bir chimdim ham miya qolmasdi. Unga qarshi qo'yilgan barcha pistirma-yu tuzoqlar bekor ketdi: u o'lguday ayyor edi-pistirmalardan sakrab o'tar, qopqonlarni sindirib, tuzoqlarning to'rlarini uzib tashlar, hirsday kuchli, yo'lbarsday chaqqon va ohuday xushyor edi».

«...U bir soat ichida butun boshli binodagi barcha odamning miyasini eb bo'lib chiqib ketibdi, deb eshitganimizda hech bir ajblanganimiz yo'q. Vaholanki, bunday binolar shaharda kundan-kun ko'payib borardi. U uylarga sezdirmasdan kirardi: qulflarini bir tortishda ochar, kitob o'qib o'tirgan yoki oshxonada kuymanyotgan kishining bo'ynidan xippa bug'ar, unga unchalar azob ham berib o'tirmas, bosh chanoqni tirnoqlari bilan qo'porib, miyani og'ziga tiqardi-bir-ikki daqiqadan so'ng yana bilintirmay chiqib ketar, siz uning changini ham sezmay qolardingiz. Bu erda vahshiy odamxo'rlar haqidagi rivoyatlar ham shunchaki cho'pchakka aylanib qolardi: bu yovuzlikni ko'z ko'rib quloq eshitmagandi... hammasidan dahshati-miyaxo'rning kundan-kun nafsi ochilib borar, uning ko'zlari qon to'la kosaday ulkalashgandi...»

Qo'lyozmaning shu joyidan bir necha varaq chizib tashlangandi-har qancha urinsam ham, bir-ikki uzuq-yuluq jumla-yu, birikmalardan boshqa hech narsa o'qiy olmadim, balkim yosh yigit sahifalarda bir oddiy ufrindi kitob tufayli paydo bo'lgan oh-vohlardan uyalib ketgandir, balkim bu sahifalarda kitob qarshisidagi ojizlik haddan oshganu, unga qarshi qo'lidan biron chora kelmasligi o'ziga nash'a qilib, ojiz va mahkum etganligini tan olgisi kelmay, alam va azob bilan chizib tashlagandir-sahifalarning yirtilib ketganiga qaraganda bu taxmin haqiqatga yaqinroq edi- balkim, toshib, ko'pirib keladigan botiniy va o'jar tuyg'ular ta'sirida shunchaki, besabab yirtib tashlangandir: nima bo'lganda ham bu chizish odamning yuziga qarab turib, surbetlarcha va farosatsizlarcha tuflash bilan barobar edi. Men nafas rosllab olgach, boshqa sahifani shoshib o'qiy boshladim- zero, bu qo'lyozma po'lat sharikchanning ichida nima borligini bilmoqchi bo'lib, behuda urinayotgan bolaning qiligi kabi, meni g'qiziqtirib qo'ygan edi.

«O, men bu sahifaga qachon muftalo bo'ldim, bu kitob qachon joy oldi qalbidan? Bu xulyoning cheku chegarasi bormi? Meni adoi tamom qiladi bu kitob. Nahotki, umrim tariqday shu kitob sahifalariga sochilib ketgan bo'lsa? Kitobdan qanchalik o'zimni olib qochsam, unga shunchalik yaqinlashayapman, ko'nglimda muftalolik bo'ronlari

shunchalik kuchayayapti.” «...Qabuliga kirganimda bo'lim mudirimiz nimanidir kovshab o'tirardi,-meni ko'rib, xo'ragini darrov stol ostiga yashirdi. Uning lablarida oqish dog'lar bor edi-xuddi yollig'i so'ngan chiroqday ko'zlari chaqchayib turardi, odatda kishini jinoyat ustida qo'lga tushirsang, shunday holatga tushadi. Men shunda eyotgan narsasi miyadan boshqa narsa emasligini bir ichki sezgi bilan his etdim...»

“Qancha iqtibos olmay, qancha qayta-qayta o'qimay, kitobga bo'lgan ixlosim so'nmas, aksincha, bu ixlosda qandaydir hirsiy yovvoyilik paydo bo'layotgandi: eng hissiyotli oshiq ham o'z ma'shuqasini men kitob varaqlaridagi manzaralarni kutgan kabi mushtoqlik bilan kutmasa kerak. Bir kuni bu muhtololik meni ado qilishiga shubha qilmasdim. Kechalari xonamda kimdir gapirganday bo'ladi, men xirillagan nafasni aniq eshitaman - yuragim orqaga tortib, tura solib, chiroq yoqqanimda hech zog' ko'rinmaydi: faqat varaqlarni derazadan kirayotgan shamol o'ynoqlayotgan kitobgina ochiq turardi. Shunda ming yillik zanjirga o'xshab salobat bilan ochilib yotgan kitobga qarab turib, men baribir taqdirdan qochib qutulolmasligimni anglayman. Shunday bo'lsa-da iqtiboslar olamidan sira toliqmasdim. Ko'chirganlarim naq kitob darajasida ulkanlashganda ham bu meni qoniqtirmadi, zero, xonamda kitob paydo bo'lgandan beri na kundalik yozishga, na qog'oz qoralashga holim qolmagandi-kitob endi mening butun umrimni ishg'ol qilib olgan, yotsam ham , tursam ham asta sekin unga taqlid qila boshlagan, uning oldida o'zimni mustabid shohning qarshisida qaltirab turgan fuqoradek his etar, oxirgi paytlar esa f'eli atvorim miyaxo'rning xunuk va ochko'z basharasiga o'xshab ketayotganini sezib qaltirab ketardim, asli bu qiyofa maxluqning basharasimi yoki mening qalbimmi? Nahotki maxluq qalbimni ham ishg'ol qilgan bo'lsa?!

Nahotki, qalbim ham uning asiriga aylangan bo'lsa?! Qayda qoldi mening yostiqdoshim-osudalik?! Qayda qoldi, yo'ldoshim va rafiq'im-xayol?! Qayda qoldi, kamarim-erkim?! Kim meni bunchalik dag'allashtirdi?! Kim menga bu tutqunlik to'nini kiydirdi?! Kim mening xazinamni-sururimni o'g'irladi? Kim mening osmonimni maxluqning tezagi ila bo'yadi? Kim mening hujramga yolg'izlik tegirmonini qurdi? Kim mening ostonamga vahim yo'lbarsini bog'lab qo'ydi?? Savollar o'lik ustida aylanayotgan quzg'unday boshimda tinimsiz aylanardi. Unga na javob bor, na sado. O'rniga faqat kitob-qo'rquv va vahimga to'la kitob bor. Meni sahifalar o'rmoni toliqtirdi: bu o'rmonda qayga qarab yurmay qarshimda faqat maxluqni ko'raman-qani endi yotib uxlasamu, ertalab, meni bu qo'rquv saltanatidan olib chiqadigan xaloskor bilan birga uyg'onsam: ko'zlarimda uyqu tulporlari cho'poyayapti. Tun ham allamahol bo'lgandir? Eshik taqirayapdimi? Hozir turib ochaman, balki meni yo'qlab kelishgandir?!.. yo'q, u kelgandir...” Qo'lyozma shu erda to'satdan to'xtagandi: go'yo ta'qib va vahm hukmron changalzorni kezib yurib, birdan bo'm-bo'sh kimsasiz dalaga chiqib qolganday, bu yog'i bo'shliq va yo'qlik zarb etilgan bo'm-bo'sh varaqlardan iborat edi: shunda yosh yozuvchi qo'lyozmani davom ettirishni mo'ljallaganu, biroq qandaydir hodisa unga bu yog'ini davom ettirishga qo'ymagan degan shubhali, ham dog'uli fikr o'rmalab kirgandi. Qo'lyozmaning ma'nosi ham hali davomi yozilmaganidan darak berib turardi. Balkim, bu yosh yozuvchining so'ngi qo'lyozmasidir, balkim, bu qo'lyozmani tugatmay turib, uni ajal elchilari mangu rixlatga etaklab ketgandir?! Xuddi sokin yoz osmonini birdan to'zon qoplagandek ko'nglimda to'satdan quyunday g'ulg'ula paydo bo'ldi. Bu shubha qanchalar ishonchsiz bo'lsa-da, menga shunchalar haqiqatga yaqin bo'lib tuyulardi. Musibatli xabar eshitganingizda yoxud bir umr sig'inib kelgan e'tiqodingiz bir lahzada bir so'z ila puchga aylanganda yoki xonangizda sizga tashlanmoqchi bo'lib turgan hayolning qudrati etmas darajada ulkan va vahmkor chayonini ko'rib qolganingizda shuuringizda shunday holat paydo bo'ladi va

tasovvuringiz shiftlari qo'porilib, siz ham xayoldan to'kiluvchi va jazavaning kundasiga sekin bosh qo'yasiz. Men nimanidir g'ira-shira angladim va anglagan narsalarim yozuvlar ichidan bir maxluq kabi bosh ko'tarib chiqqan va mening changimni ham qoldirmay bir haplashda yutib yuborgan edi, zero, qo'lyozmadagi yozuvlar to'zigan qalbning to'zonlari ekanligiga men endi amin bo'lgan edim.

O'z shubhamni isbotlash uchun men ertasiga tanishimga sim qoqdim va jasad qay holatda topilganini so'radim. -Biz ham hayronmiz,-dedi u.

- Bosh chanoq ochilib yotardi, u erda umuman miya qolmaganini aytmasa, tananing boshqa hech joyida tashqi zarbaning alomati yo'q edi. Men o'zim tekshirib chiqdim, uydan hech narsa o'g'irlanmagan...

## OQ ALANGA

...“Sen meni balki esdan chiqargandirsan, - deb xat yozardi yigit o'zi bir vaqtlar ko'ngil qo'ygan qiziga, - men xotirangdan balki butkul o'chib ketgandirman. Lekin mening yodimda hamon o'sha qiyofada - ko'kish gulli oq ko'ylakda lovullab yonib turasan. Sen xuddi hilpirab turgan oq alangaga o'xshaysan. Bu alanga tillarigacha oq. Faqat ba'zi-ba'zida, alanga lovullab ko'tarilaganda uing oppoq yog'dusi uzra ko'kish uchqunlar porlab ketadi-yu, so'ng darhol so'nadi. Shunda go'yo oq alanga mening yuragimda lovullab keetganday bo'ladi. Oradan to'rt yil o'tsa ham sen biron sonya ko'z oldimdan ketmading. Har lahza, har daqiqa ko'z o'ngimda oq alangani ko'rib turdim... Alanga hamon mening sovuq xonamni cho'g'day isitib turibdi... Men bu alangani o'chirib tashlashga ojizman... Yigit ko'p yillardan beri shu xonada yashar, xona ulkan atirgulning hovuchiga o'xshardi. Xonada yigit gulning shirasiga qo'ngan kichkina asalaridek bo'lib ko'rinardi. Yigitga o'zining xonasi juda ham yoqardi..

Yozib bo'lgach, yigit xatdan gulola yasab, derazadagi bo'sh tuvaklarga solib qo'yardi. «...O'sha paytlari mening gaplarim senga qanchalik havoyi va kulguli bo'lib tuyulgan bo'lsa, endi senga shunchaliuk tabiiy bo'lib tuyuladi, deb yozadi yigit qizga.- Sen ba'zida meni eslab yig'laysan ham. Sening gulgingni qistatgan mening tuyg'ularim endi senga hech orom bermaydi. Bu tuyg'ular sening hozirgi hayotingdan ko'ra mazmunliroq bo'lib ko'rinadi. Sen mazax qilgan, mensimagan, g'ashingni keltirgan o'sha tuyg'ular endi seni iztirobga soladi. Endi bu tuyg'ular sen uchun umringning eng shirin lahzalari bo'lib qoladi...»

Yigit har kuni xat yozar va xatni tuvaklarga joylab, xonasiga terib qo'yardi. «Muhabbat - inson qalbida ochilgan loladir. Agar u so'lsa, umrning o'zi ham so'ladi... To'rt yildan beri ko'nglimdagi lolalar chaman-chamn bo'lib ochilib ketdi.»...

Deraza to'lgach, yigit qog'oz gullar solingan tuvaklarni yozuv stoliga, kursiga kitob javoniga, erga, keyin esa divanga terib qo'ya boshladi. Xonaning burchaklari ham qog'oz gulli tuvaklarga to'lib ketdi. Xonada nagohan, barcha gullari chaman bo'lib ochilgan guzor paydo bo'ldi. Yigit xona burchaklari to'lgach, tuvaklarni xona devorlariga osib qo'ya boshladi. «Balkim men adashgandirman, - deb yozdi yigit . - Balkim, men hayotga sening nigohing bilan qaramasligim kerakdir. Hayot menga quchog'ini ochib turganu, men sezmay kelayotgandirman. Balkim, mening qalbidagi muhabbat emasdir,

muhabbatdan ham kuchliroq tuyg'udir... Men har kuni tushumda seni ko'raman. Negadir hamisha tushumga ilk marta ko'rgan qiyofada kirasan: yuzlaring lovullab qizargan, soching burgut qanotiday yoyilgan, lablaring titrab turgan bo'ladi. Goho yuzing gulu, sochlaring bu oppoq gulni xovuchlab turgan qat-qat gulbarglarga o'hshab ketadi; gulbarglar bunchalik nafis gulni tebratganidan ba'zan to'lg'onib-to'lg'onib qo'yadi. To'lg'onar ekan gulbarg qatlari, ora gulning nozik bandi ko'rinib ketadi. Bu go'yo tun qo'ynida lovullab yonib, yana darhol so'ngan guxanga o'xshaydi. To'rt yildan beri men seni lovullab yongan oq alanga orasida ko'raman. Oq alanga gurillab osmonga ko'tarilar ekan, hovuchdagi gul cho'g'day qizarib ketadi...»

Yigit so'nggi tuvakni bo'sag'aga joylashtirgach, xonani xo'rsinib ko'zdan kechirdi. Gultuvakdagi lolalar sokin sollanib turar, chiroqdan nur gullarga xuddi qizil yomg'irday va guldondagi gullar qizg'ish rangda porlar edi. Gullar chaman-chaman bo'lib ochilib yotgan bu xonada endi yigitning o'zi ortiqcha edi.

Yigit xonani tashlab chiqib ketdi. Uyni aylanib o'tarkan, xona derazasiga ko'z tashladi. Xonani lovullagan alanga burkagan edi...

## BITIK

### **«Men mangu toshga hammasini o'yib yozdim» Kul Tegin Bitigi**

Bekatlارaro taksi yon tamondan kelib urilgan «KaMAZ»ning zarbiga dosh berolmay avval bir yonga og'di, keyin gursillab quladi: shofyor vayo'lovchilarning ko'zlari chaqchayib ketdi-qo'rquv-dahshat aralash baravar baqirib yuborishdi- ularga nariroqdagi bekatda turganlar ham jo'r bo'ldi: «KaMAZ» ning haydovchisi mashinadan sakirab tushib, ttaksiga qarab yugurdi: u sportchilar kamzulini kiyib olgan, barvasta, juhudbashara shop mo'ylovli odam edi: taksining g'ildiraklari hamon chirillab aylanib turardi: u yugurib borib kabinaning eshigini tortdi. Biroq eshik pachoq bo'lgandi, osonlikcha ochilmadi. Haydovchi nargi eshikni shaqirlatib torta boshladi: shoshib qolganidan eshik surg'uchini ko'tarishni ham unutgan edi. Izidan etib kelgan shlyapali kishi unga yordam berdi: ikkalasi oynasi chil-chil bo'lgan pachoq eshikni zo'rg'a yarim ochishdi: va yuzi shilingan qo'rquvdan serrayib qolgan yoshgina yigitni tortib tushurishdi.

Yigit o'zining tirikligiga ishonmayotganday yon-atrofga shubha hamda iltijo bilan ko'z tashlab chiqdi va o'zini erga tappa tashladi, biroq orqasidan ushlab qolgan o'rta yashar, kelishgan ayolning yordamida yana o'zini tutib oldi: odamlarga olazarak bo'lib bir-bir qarab chiqqach, ust-boshini qoqa boshladi: so'ng birdan esiga tushib qolgandek o'zini mashina eshigiga urdi-ammo taksi oldiga yig'ilib qolgan olomon unga yo'l bermadi: «KaMAZ» ning shofyori yana uchta yo'lovchini tortib chiqardi- ularning hech joyiga jarohat etmagan edi, yoxud hali o'zlariga to'la kelmagan, shu sababli o'zlarini soppa-sog'day tutishardi. Ular nariroqqa borib, tomashabinlar safiga qo'shilishdi. Taksi shofyorining chap yuzi pachoq bo'lgan edi. U garchi gapirayotgan bo'lsa ham o'zini allaqachon o'lik hisoblab cho'zilib yotib oldi. Yana bir yo'lovchi bor ovozi bilan «Qavurg'am... qavurg'amning abjag'i chiqdi» deb baqirardi. Uni mashina ichidan tortib

olib, yo'l chetidagi o'tloqqa yotqizib qo'yishdi. Shu payt uzun bo'yli, oqquva milittsioner etib keldi. U odamlarni turtib-surtib oldinga o'tdi. Mashinada o'rindiqlar qisilib qolgan, labining bir chekkasidan qon sizib turgan tizzasi ustida turgan ochiq kitobni panjalari bilan qisib ushlab olgan yo'lovchi qolgan edi. Uni o'rindiqdan ajratib olish ancha mushkul bo'ldi. Yuzi suyanchiq bilan shift orasida qolib ketgandi. «Kamaz» haydovchisi yarmi singan oynanai olib tashlab, suyanchiqni orqaga tortdi. Yo'lovchini militsioner va yana ikki kishi o'rindiqdan sug'irib olishdi va yo'l chetiga yotqizishdi.

-O'libdi-dedi uning bosh tomonida turgan do'ppili kishi.

«Kamaz» haydovchisi endi militsionerni ko'ribyu qolgandi; Yo'l meniki edi, qaydan paydo bo'ldi bilmay qoldim, - dedi ovozigga musibat tusi berib. Militsioner hech narsa demagach, shu gapni ikki-uch marta qaytardi. Militsioner o'lgan yo'lovchining panjalari orasidan kitobni zo'rg'a chiqarib oldi va qonli barmoqlarining izi qolgan ochiq varaqqa shunchaki nigoh yugurtirdi va katta-katta harflar bilan yozilgan «U kitob o'qib o'lajak»... degan so'zlarga ko'zi tushdi...

## SAN'AT-1

Mamlakat podshosining oldiga bir kishi keldi.

Men rassomman, - dedi u. - Umrin qashshoqlikda o'tdi, hayotimda shunday kunlar bo'ldiki, eslashning o'zi dahshat. Men endi ochlikdan juda qo'rqaman. Senga o'zimning suratlarimni sotishim mumkin. Suratlarim juda g'aroyib, u odam qurbi etmaydigan ishlarga qodir. Agar xohlasang senga g'alabani suratini chizib beraman, u orqali sen qo'shni shohlikni osongina bosib olasan yoki bo'lmasa go'zal bir qizning suratini chizib beraman.

Shoh endi oyog'ini uzatib yotadigan darajada qarib qolgan, lekin yuragi tinch emas edi. Shohlikda tez-tez g'alayon bo'lib turardi. Odamlar o'z haq-huquqlarini talab qilib, goh narh navoning oshib ketganiga, goh uzluksiz soliqlarga qarshi norozilik bildirib turishar, saroy ahli juda bezovta edi. Odamlarda shohga nisbatan ishonchsizlik kuchayib borar, ba'zi joylarda hukumat qo'shinlari bilan to'qnashuvlar sodir bo'layotgan edi.

- Menga qo'shni erning keragi yo'q,-dedi shoh rassomga.

- O'zimda ham ortiqcha erlar oshib-toshib yotibdi. Agar sen rostdan ham shunday mo'jizali suratlar chiza olsang, unda menga osoyishtalikning suratini chizib ber. Odamlar hech qachon g'avg'o qilmasinlar, g'alayon ham bo'lmasin, mening chizgan chizig'imdan chiqishmasin. Mamlakatdagi masalalarni hal etishda faqat mening haqim bo'lsin.

Rassom darrvo ishgv kirishdi. U har xil bo'yoqlarda avval shohlikning, so'ng unda yashayotgan fuqoralarning suratini chizdi, - lekin suratdagi odamlar favqulodda itoatkor, mo'min va mehnatkash edi. Rassom ularni g'oyat qunt va ustaliku bilan chizar, uning qo'li jodugarlarnikidek harakat qilardi. Surat chizilgan sayin shohlikdagi odamlarning ham tabiati asta-sekin o'zgarib borardi: shaharlarda g'alayonlar birin ketin tinchiy boshlagan edi. Qandaydir sehrli kuch ularning ko'ngillaridagi norozilik iplarini uzib tashalardi: odamlar ishlashar, nima berishsa qanoat qilishar, teatrga, kinolarga borishar, qo'shiq ham eshitishardi, biroq g'alayon qilishmasdi.

Rassom shohning talabiga binoan ularni rostdan ham maldaniyatli qilib tasvirlagandi. Mamlakatda hamma shohona kiyinib yurar va shoh bilan bir qozondan ovqat ham eya olardi. Eng qashshoqchilik yillari ham bu shohlik fuqoralari to'qlardek, shodu-xurram kun kechirishardi. Surat shohga juda ma'qul bo'ldi. Ayniqsa, fuqarolarning o'ziga haddan ortiq sodiqligidan xursand edi U Rassom ko'ngli tusaganicha taqdirladi va suratni abadiy asrash uchun saroyning to'riga osib qo'ydi.

Rassom tirikchilik ilinjida hamma joyda - shaharda, qishloqlarda, kent va viloyatlarda, qo'rg'on va qal'alarda, qarorgoh va jang maydonlarida kezib yurar va uning suratlari hamma joyda munosib taqdirlanardi.

U uzoq yillar qirollarga va vazirlarga goh sirli qurolning, goh kishanning, goh boylikning, goh ochlikning, goh qullikning, goh hiyonatning, goh urushning suratini chizib berib yurdi. U uzoq umr ko'rdi, biroq undan biron marta ham baxtnig suratini chizib berishni so'rashmadi.

## SAN'AT-2

Bir mamlakatda kambag'al rassom yashardi. U ayanchli darajada qashshoq, ustiga-ustak juda ham yolg'iz edi: u hayotni qanday tushunsa, shunday ko'rinishda chizar, lekin uni hech kim tushunmas, suratlari past narxda sotilardi. Omadsiz rassom bir kuni ko'chada - aynan ko'chada, chunki malikalarni boshqa joyda uchratish mumkin emas, buni ertaklar ham tasdiqlaydi, - shahar aylanib yurgan malikani ko'rdi-yu, unga oshiq bo'lib qoldi; muhabbat uni devonaga aylantirdi: u malikaning ismini aytib, ko'cha-kuyda sang'ib yuradigan va esiga tushib qolgan joyda - toshga ham, devorga ham uning suratini chizadigan bo'lib qoldi. Bu holni malikaga etkazdilar. Malika qah-qah urib kuldi-yu, rassomni chaqirib, avval masxara qildi. Lekin malika rassomning ko'zlariga boqib dong qotdi. Bu ko'z emas, tun qo'ynida porlab turgan mash'ala edi: u erda musibat va sitamlarning yog'dulangan bo'yoqlari jilva qilardi. «Agar mening suratimni xuddi o'zimdek qilib chizolsang, men senga tegishga roziman - dedi malika.

- Faqat surat ham men kabi jonli bo'lishi shart.»

U qashshoq kishilarni yoqtirmasdi, biroq, mamlakatdagi yagona rassomning ko'nglini qoldirishdan ham qo'rqardi, shuning uchun hech qachon amalga oshmaydigan shart bilan uning muhabbatini rad etmoqchi edi.

Rassom mashaqqat bilan uzoq yillar yolg'iz surat ustida ishladi. U yana ham qashshoqlashdi, egnidagi kiyimlar juldurga aylandi, eyishga noni qolmadi, tushkunlikning barcha ayanchli va xaroba ko'chalarini bir-bir kezib chiqdi, lekin ixlos bilan ishlayverdi. Charchagan yoki umidsizlikka tushgan paytlari malikaning go'zal chehrasini ko'z oldiga keltirib, unga yalinib yolvordi, iltijo qildi, yig'ladi, sog'inch va visol onlariga umid hamda yolg'izlik musibati unga kuch bag'ishladi: u bo'yoqqa o'zining qonini qo'shib yangi-yangi ranglar topdi, qarochiqlarga ko'zlarining nurini baxshid va etdi, oradan yillar o'tib, rassomni masxara qilish uchun malikaning o'zi unikiga tashrif buyurdi. U rassomni ko'rib, yanada hayratda qoldi - rassom juda ham yasharib ketgan, ko'zlarida baxt va muhabbatning olovlari yonar, yuzida ulug'vorlik aks etar, yonida esa xuddi malikaga o'xshash, go'yo malikaning egizagiday, xuddi malikaning ko'zga tashlanar va tashlanmas nuqsonlari taroshlab chiqilganday malikadan-da latofatliroq,



endigina ochilgan guldek so'lim va nazokatli qiz ham turardi. Qiz malikadan ham go'zalroq va jozibaliroq edi - rassom unga xayolning ranglarini bergandi, muhabbatning buyukligi bilan ishlangan go'zal bir iloha yaralgan edi: u qah-qah otib kula olar, rassomning xonasini mushku anbarga va gul xidiga to'ldirib farishtalarday raqs tushib yurardi. Bu rassom qalbi va muhabbatining timsoli edi. Rassom o'zi yaratgan ilohani ko'rib, aqli-xushidan ayrilgan, u malikani ham, bergan va'dasini ham unuttgandi; «Malikam, - dedi rassom, - men sizning muhabbatingizda yillar mashaqqat chekdim, yig'ladim-siqttadim, qalbimni g'am-anduh so'ndirdi. Ko'zlarim yo'lingizda nogiron bo'ldi, lekin siz shu yillarda hatto mendan biron marta ham hol so'ramadingiz, aksincha, ustimdan kulib, meni telba, deya ovoza qildingiz. Men uchun eng og'ir bo'lgan uqubatli davrda menga faqat shu suratgina taskin berdi, menga qunt va ishonch bag'ishlab turdi.

Suratni chizib bo'lgach tushundim, men sizni emas, aslida sizning qiyofangizda bo'lgan bu siymoni sevgan ekanman. Men izlaganimni topdim, biz ahdu-paymon qildik, mendek bir qashshoq rassom faqat shu malakning tengiman, sizning emas, malikam». Shunday deya rassom chehrasidan malohat taralib turgan qizni etaklab uyiga kirib ketdi... Biz aslida sevganimiz timsolidagi boshqa qiyofani sevamiz. Buni anglash uchun rassom kabi xo'rlikni boshdan kechirishimiz kerak.

## O'PQON

Chorrahadan o'tishi bilan trolleybus tez yurib ketdi; endi yo'l unchalik gavjum emasdi. Trolleybusni quvlab o'tayotgan engil mashinalar ba'zi-ba'zida bir-birini ogohlantirgandek quvnoq signal berib qo'yardi. Trolleybusda yo'lovchilar anchagina; o'rindiqlar to'lgan, o'rtada ham besh-olti yo'lovchi tik turardi. Zavol payti bo'lgani uchun trolleybusning ustki tuynugidan izg'irin yopirilib kirar, orqadagilar junjukib o'tirishardi; biroq hech kim negadir tuynukni yopishni xayoliga ham keltirmasdi. Biz tik turgan holda orqa eshik oldida turardik; sovuq shamoldan quloqlarni himoya qilish uchun paltolarimizning yoqalarini ko'tarib olgandik; barcha yo'lovchilarning yuzida o'ychan bir horg'inlik hukmron, trolleybusning guvillashini aytmasa, sukunat hukm surardi; hammaning yuzida lanjlik aralash, aksariyat hollarda, qish kunlari, bayram arafasida bo'ladigandek qandaydir muztarlik kezinardi; biz ham tuynukni kim yoparkin, deya, unga yaqin turgan odamlarga qarab qo'yar, lekin jimlikni buzishga jur'at etolmas, keyin bir necha bekatdan so'ng tushib qolishimizni o'ylab, bu shart emas, deya o'ylardik. Haydovchi quvnoq yigit edi; uning butun diqqati trolleybusni haydashdan ham ko'ra kabinaga yaqin o'tirgan ikkita popukdekkina qizlarni kuldirish bilan band edi. Qizlar uning hazillariga jilmayib qo'yishar, bir-birlariga qarab nimalardir der, so'ng xuddi sinab ko'rishmoqchidek haydovchini gapga tutishardi; umuman, yo'lovchilarning ancha tund yuzlarida ham karnay orqali hammaga eshitilib turgan bu hazil-huzilning engilgina alomatleri aks etar, ko'pgina yo'lovchilar qizlarga qaramaslikka va ularni hijolat qilmaslikka yoki ishdan horib chiqqan, yuraklariga shundan boshqa hech narsa sig'mayotgan, kayfiyatlari uzilish darajasiga etgan tordek taranglashib turgan bir paytda bu beminnat ko'ngilxushlikdan ayrilib qolgilari kelmayotgandek ko'zlarini tashqariga tikkanlaricha, miyig'ida sirli qilib, kulib qo'yishardi.

Ba'zi keksa ayollar qizlarga qarab ho'mrayib olishgan, ularning lo'q qilib olgan ko'zlari hasad yoki havas bilan tikilayapdimi, bilib bo'lmas, faqat andek sershubha yuzlarida

«shunday ham odobsizlik bo'ladimi» deganday badgumon ifoda qotib qolgandi. Aslida, qizlarning hatti-harakatida, o'zini tutishlarida hech qanday odobsizlik sezilmas, ular haydovchining gaplariga faqat jilmayibgina qo'yishar, savollariga esa haydovchiga qaramay javob berishar, bir-biri bilan tez-tez ko'z urishtirib olishar, suluv ekanliklarini o'zlari bilishganday yoki odamlarning harakatlariga va yigitlarining shakarguftorligiga ko'nikib qolishganday, o'zlarini emin erkin tutishar, ularning tiniq chehralarida bir oz kibr aks etib turardi. Ular rostdan ham juda go'zal edi; go'yo trolleybus ichida bir juft gul qulf urib ochilib turganga o'xshar va ularning chiroylarini, tiniq yuzlarini kuzatish kishiga allanechuk huzur bag'ishlardi. Qizlarga yaqin o'tirgan yosh yigitlar - ko'rinishidan talabalar, surbetlik bilan tez-tez ularga o'girilib qarashar va bir-birlariga qarab, sirli qilib tirjayishardi. Ularning xulq atvori, o'zlarini tutishlari, xoxolab kulishlari yo'lovchilarga unchalik yoqmayotgan bo'lsa ham negadir bu qiliqlar unchalik odobsizlik bo'lib tuyulmas, aksincha, ularning kulishlari-yu, surbetona tikilishlariga qizlar aybdorday, yigitlar qiqirlab kulib yuborishganda, qilar biron ayb ish qilishmadimikan deganday hamma qizlarga qarardi.

Qizlar talabalarga e'tibor ham berishmas, go'yo bundaay hodisalar ularning bosgan har qadamida sodir bo'ladigandek, kulayotganlarga takabburlik bilan ko'z tashlab, bepisand elka qisib qo'yishar, so'ng yana «qulf urib, sollanib» turishardi. Biz hamrohik ikkimiz ham qizlarga bir ko'z tashladigu, yana o'z xayollarimizga g'arq bo'lib, tashqarida lip-lip etib orqaga yugurib o'tayotgan daraxtlar, simyog'ochlar, binolar, quyoshning so'nggi nurlari to'shalib yotgan ko'chalar, u erdagi yo'lovchilarni, eriyotgan qorni, trolleybus o'tishi bilan, yugurib ko'chani kesib o'tayotgan jimitdaygina kuchukchani, yo'l chetida daraxtlar orasida qor titayotgan qarg'alarni kuzatib borardik. Yo'l quruq bo'lsa ham bir hafta oldin yoqqan qor yo'l chetida, imoratlar soyasida hali erimagan edi; goh-gohida yo'lakda qorbo'ron o'ynayotgan to'da-to'da bolalarni ko'rish mumkin edi.

Yo'lovchilar ancha g'imirlashib qolishdi: kimdir nihoyat tuynukni yopdi; g'ala-g'ovur boshlandi, yangi yo'lovchilar chiqqan edi, trolleybus ichiga endi ancha jon kirdi; qizlar hamon kabina oldida dugonasining yuzidan o'z aksini ko'rmoqchidek, bir-biridan ko'z uzmay tikilib turishardi. Talabalar ancha tinchib qolishgan, tepalarida tik turishgan o'rta yoshlardagi odamlarni ko'rmaslikka olib, endi tashqariga qarab o'tirishardi.

Trolleybus serqatnov katta ko'chaga burildi; bu erda mashinalar ko'p edi; ko'plari xuddi botayotgan quyoshga taqlid qilishgandek halitdan chiroqlarini yoqib olgan edi. Trolleybus besh metr yurmasdan yo'l o'rtasida birdan to'xtadi, so'ng yana silkinib, yuz qadamcha, yurdi-da yana to'xtadi. Shofyor hazil aralash «Bir necha minut tanaffus e'lon qilaman» dedi va sharaqlab kulib yubordi. Yo'lovchilar bir-biriga va trolleybusning oldiga hayron bo'lib qarashdi; yuzlarida norozilikka o'xshash ifoda qalqib chiqdi. Oldindagi keng yo'l mashinalar bilan tirband bo'lib ketgan edi; oldinda ham, orqada ham mashinalar trolleybusni tiqib qo'yishgan, ular, aftidan, nima gapligidan bexabar tinmay signal berishardi.

-Yo'l berk,- dedi haydovchi yana karnay orqali. Yo'lovchilar olazarak bo'lib, yon atrofga qarashdi: hech narsaga tushunmay yana joylariga o'tirishdi. Bir pastda orqada ham mashinalar qatorlashib ketdi; yo'lni kesib o'tayotgan tramvay yo'li ham berkildi; chetdan qaragan odam bu erda transport ko'rigi bo'layapti deb o'ylashi mumkin edi; besh - oltita tramvay izma-iz turib qoldi; go'yo namoyishga chiqishgandek qator yo'lovchi mashinalar turardi bu erda; bir pastda qiyomat qoyim bo'ldi - yuzlab mashinalar signal bera

boshladi. Xuddi bu hol o'zlariga yoqayotgandek ba'zilari ataylab jon jaxdlari bilan signal bosardi; mashinalar orasiga tushib qolgan sarg'ish «tez yordam» najot so'rayotganday yurakni orziqtirib serena chalar, peshonasidagi ko'kish chiroq tinmay aylanardi, Ba'zi yirik yuk mashinalari «yo'l ber» deganday har damda «pov» etgan tovush chiqarardi. Talabalar haydovchiga nimadir deyishar, u «mumkin emas», «mumkin emas» deganday elka qisardi. Yana ikki yo'lovchi borib, unga nimalarnidir tushuntirgach, haydovchi mashinalar tiqilib qolgan yon veriga qaradi-yu, oldingi eshikni ochdi. Talabalar sabrsizlik bilan tashqariga o'zlarini urishdi. Izidan yana ikki kishi tushishdi.

-Yayov ketamizmi,- dedi hamrohim.

-Uzoq-ku - dedim men. - Tushaylikchi...

Biz turgan trolleybus oldida ham bir necha trolleybus bor edi; biz mashinalar orasidan zo'rg'a sirg'anib o'tib, piyodalar yo'lagiga chiqib oldik. Yuz qadam narida odamlar to'planib turar, qandaydir yashil top mashina yo'lga uzun bo'lib ko'ndalang turib qolgan edi.

-Nima balo, avariya mi? - dedim men hech narsani tushunmay.

Hamrohim elka qisdi.

Biz odamlar to'planib turgan joyga borib, ularning orasiga kirdik. Qandaydir kuzoviga brezent yopilgan yirik harbiy mashina yon tomonga qiyshayib turar, orqa baloni kanalizatsiya quvuriga tushib ketgan, yo'lning ikki chetida ikki harbiy mashinalarni to'xtatib turardi. Beshtacha yo'l harakati xavfsizligi xodimlari mashina atrofida aylanib, bosh chayqab yurishardi.

Yo'lak birdan shafyorlar, yo'lovchilar bilan to'ldi. Hamma bu erda ushlanib qolganidan norozi, lekin hech kim bu ushlanib qolishning asl sababchisi bo'lmish harbiy mashinadagilardan emas, ko'proq o'zlaridan, aynan shu yo'ldan yurganidan, aynan shu erga kelib, to'xtab qolishga mahkum etilgan ulovga o'tirganidan noroziday edi. Bogi suluv qizlar ham bir chetda turashardi. O'p'qonga tushgan harbiy mashina bu erga qanday ko'ndalang bo'lib qolganiga hech kimning aqli etmasdi. Sabri chidaganlar sigaret olib tutatishga tushdi.

Topgan joyini qaranglar, - dedi hamrohim jahl aralash. Yana kimdir so'kindi va kimnidir, aftidan, kanalizatsiya quruvchilarini «muttahamlar», dedi.

-Chorak soatdan beri to'xtab turibmiz, - dedi yo'lakka yaqin turgan mashina shafyori. Shu payt yon tomoniga «avariya» deb yozilgan mashina kelib to'xtadi. Mashinadan tushgan uchta sariq korjomoli odam harbiy mashinani aylanib, ko'rdi-da, shafyorga nimadir, dedi. Shafyor bosh iring'ab, mashina budkasiga kirib, qo'lida qalin tros ko'tarib chiqdi. O'zg'ingina harbiy, aftidan, harbiy mashinaning shafyori bo'lsa kerak, trosning bir tomonini mashinaga uladi, ikkinchi tomonini avariya mashinasiga berkitdi. Va yugurib mashina kabinasiga chiqdi-da, «ketdik» degandek qo'l ko'tardi. Tros sekin tarang bo'la boshladi, harbiy mashina bir silkindi-yu, quvurdan baloni chiqar-chiqmas yana qaytib tushdi - sharaqlagan ovoz eshitildi, tros chiqib ketgan edi. O'zg'in harbiy tushib, trosni qaytadan uladi. So'ng mashinaga chiqdi - mashina chiranib, uvladi-yu, silkinib o'p'qondan chiqib ketdi, o'n qadamcha ilgari yurib to'xtadi, sariq korjomoli odam trosni olib, avariya mashinasiga tashladi.

Harbiy mashina sekin yo'lga o'ngarildi va nariroqqa yo'l chetiga borib to'xtadi. Sariq korjomoli kishi qandaydir belgi qo'yilgan temir-lavhani o'p'qondan nariroqqa - mashinalar qarshisiga olib borib qo'ydi.

Biz yugurib, eng oldingi trolleybusga chiqdik; mashinalarga birdan jon kirdi, harbiylar o'zlariga tegishli mashina tomon qarab kedishdi; barvasta yo'l harakati xavfsizligi xodimi ola-bula tayoqchasini ko'tarib, yo'l ochiq deganday ishora qildi: mashinalar seli birdan harakatga keldi - trolleybus birdan silkinib yurib ketdi; bizning orqamizda yana boyagi tanish qahqahalar eshitildi - talabalar o'rta eshik oldida turishar va o'zlaricha nimalardir deb xixilashar, go'yo ular yarim soatdan ko'proq yo'lda to'xtab qolganlarini ham, boyagi bir juft gulga o'xshaydigan qizlarni ham unutganday, bamaylixotir kulishar, mashinalar seli esa tobora shiddat bilan shahar ichiga qarab yugurar va sekin asta siyraklashib, shaharning turli burchaklariga tarqab ketishmoqda, go'yo ular ham yarim soatdan ortiq yo'lda harakatsiz qolib ketganlarini unitishganday, tezlik bilan ketib borishardi.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)